

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ҚУРИЛИШ ВАЗИРЛИГИ

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ИННОВАЦИОН
РИВОЖЛАНИШ ВАЗИРЛИГИ**

**МИРЗО УЛУҒБЕК НОМИДАГИ
САМАРҚАНД ДАВЛАТ АРХИТЕКТУРА-ҚУРИЛИШ
ИНСТИТУТИ**

ВОЛГОГРАД ДАВЛАТ ТЕХНИКА УНИВЕРСИТЕТИ

БЕЛОРУСС МИЛЛИЙ ТЕХНИКА УНИВЕРСИТЕТИ



**“МУҲАНДИСЛИК КОММУНИКАЦИЯЛАРИ СОҲАСИДА
ИННОВАЦИОН ТЕХНОЛОГИЯЛАРИНИ ЖОРИЙ ҚИЛИШНИНГ
МУАММО ВА ЕЧИМЛАРИ”**

мавзусида халқаро илмий–амалий анжуман

МАТЕРИАЛЛАРИ

I-ҚИСМ (2020 йил, 21-22 май)

**Materials of the international scientific-practical conference on
“PROBLEMS AND SOLUTIONS FOR IMPLEMENTING OF
INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN THE FIELD OF
ENGINEERING COMMUNICATIONS” part 1 (2020, May 21-22)**

**Материалы международной научно-практической конференции на тему
“ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ ВНЕДРЕНИЯ ИННОВАЦИОННЫХ
ТЕХНОЛОГИЙ В СФЕРЕ ИНЖЕНЕРНЫХ КОММУНИКАЦИЙ”. ч. I
(2020 год, 21-22 май)**

Самарқанд-2020

“Муҳандислик коммуникациялари соҳасида инновацион технологияларини жорий қилишнинг муаммо ва ечимлари” мавзусида халқаро илмий-амалий конференцияси материаллари. I-қисм. – Самарқанд: СамДАҚИ нашри, 2020 йил. – 304 бет.

Ушбу тўпламга конференция мавзусидан келиб чиққан ҳолда муҳандислик коммуникациялари соҳасида амалга оширилаётган инновацион технологиялар, шаҳарсозлик, архитектура, қурилиш, рақамли иқтисодиёт, экология ҳамда соҳаларни ривожлантиришнинг долзарб муаммолари, олиб борилаётган илмий изланишлар натижалари, мулоҳазалар ва таклифлар киритилган.

В сборник вошли материалы по инновационным технологиям в области инженерных коммуникаций, актуальные вопросы градостроительства, архитектуры, строительства, цифровой экономики, экологии и развития отрасли, а также результаты научных исследований, обсуждения и предложения.

The collection includes materials on innovative technologies in the field of engineering communications, topical issues of urban development, architecture, construction, the digital economy, ecology and development of the industry, as well as the results of scientific research, discussions and suggestions

Конференция материаллари Самарқанд давлат архитектура-қурилиш институти Илмий-техник кенгашининг қарори асосида нашрга тавсия этилди (Баённома № 6, 24.03. 2020).

ТАХРИР ҲАЙЪАТИ/РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

- | | | |
|----|----------------|--|
| 1. | С.И.Ахмедов | СамДАҚИ ректори, таҳрир ҳайати раиси; |
| 2. | Э.Х.Исаков | СамДАҚИ илмий ишлар ва инновациялар бўйича проректор, таҳрир ҳайати раиси муовини, аъзо; |
| 3. | К.А.Якубов | СамДАҚИ СТКваСРМҚ кафедраси мудири, аъзо; |
| 4. | С.М.Бобоев | СамДАҚИ ИГТвасервис кафедраси мудири, аъзо; |
| 5. | О.В.Максимчук | Заведующий кафедрой ВолгГТУ, член; |
| 6. | И.И.Гончарёнок | Белорусско-Узбекский межотраслевой институт прикладных технических квалификаций, БНТУ, член; |
| 7. | У.А.Хушвақтов | Илмий ва илмиц-педагогик кадрлар тайёрлаш бўлими бошлиғи, аъзо; |

Масъул муҳаррирлар: У.А.Хушвақтов, К.А.Якубов, С.М.Бобоев, О.В.Максимчук

Компьютерда саҳифаловчилар: Ф.А. Қосимова, А.Б. Бобоназаров
Ушбу тўплам муаллифларнинг қўлёзмалари асосида ўзгартиришсиз тўлалигича нашрга тайёрланди ва чоп этилди.

© Самарқанд давлат архитектура-қурилиш институти, 2020 йил.

С Ў З Б О Ш И

Ассалом алайкум ҳурматли конференция иштирокчилари!

Мамлакатимиз иқтисодий тараққиётининг ўсиш суръатлари дунё ҳамжамияти томонидан юксак эътироф этилмоқда. Бу айтиш пайтда илм-фанни ривожлантириш, таълим соҳасини ислоҳ этиш, илмий ва инновацион фаолиятни ҳар томонлама қўллаб-қувватлашга қаратилган кенг қўламли ислохотлар самарасидир. Хусусан, бугунги илмий-анжумандан кўзланган мақсад Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 26 ноябрь, ПФ-5883-сонли “Аҳолининг ичимлик суви билан таъминланганлик даражасини ошириш ва унинг сифатини яхшилаш учун Ўзбекистон Республикасининг сув ресурсларини бошқаришни такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ва 2019 йил 30 октябрдаги ПФ-5863-сонли “2030 йилгача бўлган даврда Ўзбекистон Республикасининг атроф муҳитни муҳофаза қилиш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида” ги Фармони, Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлигининг 2017 йил 28 сентябрдаги 704-сонли “Олий таълим муассаларида илмий изланишлар олиб бораётган докторантлар ва иқтидорли талабаларни илмий-тадқиқот ишларига жалб этиш, ишлаб чиқариш корхоналари, илмий-тадқиқот ва лойиҳа институтларида тажриба-синов ишлари учун шароит яратишни такомиллаштириш тўғрисида”ги буйруғини амалга ошириш каби устувор вазифалар назарда тутилган.

Бундай эзгу ишларни босқичма-босқич амалга ошириш мақсадида ўтказилаётган “Муҳандислик коммуникациялари соҳасида инновацион технологияларини жорий қилишнинг муаммо ва ечимлари” мавзусидаги мазкур халқаро конференция фан-таълим тизимини инновацион ривожлантириш орқали баркамол авлодни вояга етказишга қаратилган саъйи-ҳаракатлардан бири ҳисобланади. Бугунги конференциянинг асосий мақсади ҳам олий таълими муассасаларида иқтидорли ва қобилиятли ёшларни илмий тадқиқот ишларига йўналтириш, ёшлар ўртасида ўзаро илмий-иждодий ҳамкорлик муҳитини ривожлантириш, ўзаро фикр-мулоҳаза ва тажриба алмашишлари учун шароит яратиб бериш, ёшларни фан-техника тараққиёти йўлида бирлаштириш ҳамда ёш олимларнинг илмий фаолиятини қўллаб-қувватлаш ва рағбатлантиришдан иборатдир.

Ўйлайманки, анжуманда берилган таклиф ва тавсиялар республикамызда мазкур соҳани ривожлантиришда муҳим аҳамият касб этади. Ушбу илмий-амалий конференция ишига муваффақиятлар тилаган ҳолда, Сизларга омад ва илмий изланишларингизга ривож тилайман, келажакда илм фан соҳасида улкан ютуқларини қўлга киритишингизга, ўз билимларингизни Ўзбекистон тараққиёти йўлида сафарбар қилишингизга ишонаман.

Султон Илясович Ахмедов
СамДАҚИ ректори

Табрик сўзлари:

Қўлдашев Азамиддин Турсунович - Ўзбекистон Республикаси қурилиш вазирлиги бошқарма бошлиғи:

Хурматли халқаро конференция қатнашчилари!

2017—2021-йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегиясини “Илм, маърифат ва рақамли иқтисодиётни ривожлантириш йили”да амалга оширишга оид давлат дастурида белгиланган вазифаларга мувофиқ ҳамда иқтисодиёт тармоқлари ва давлат бошқаруви тизимида замонавий ахборот технологияларини кенг жорий этиш ва телекоммуникация тармоқларини кенгайтириш орқали республика иқтисодиётининг рақобатбардошлигини янада ошириш бугунги куннинг энг долзарб вазифалардан бири ҳисобланади. Бу эса ўз навбатида илм-фанни ривожлантириш, таълим соҳасини ислоҳ этиш, илмий ва инновацион фаолиятни ҳар томонлама қўллаб-қувватлаш билан боғлиқ.

Ушбу илмий-анжуманда Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 13 мартдаги, ПФ-5963-сонли “Ўзбекистон республикасининг қурилиш соҳасида ислохотларни чуқурлаштиришга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида” шунингдек Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 28-апрел даги ПҚ-4699-сонли Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Рақамли иқтисодиёт ва электрон ҳукуматни кенг жорий этиш чора-тадбирлари тўғрисида” фармонларини амалга ошириш каби устувор вазифалар назарда тутилган.

Шуни алоҳида қайд этмоқчиманки, Самарқанд давлат архитектура-қурилиш институти жамоаси Республикамизда бино ва иншоотлар қурилиши, меъморчилиги ҳамда ободончилик объектлари барпо этилишида фаол қатнашиб келмоқдалар, муҳандислик коммуникациялари қурилиши, монтажи, улардан фойдаланиш соҳалари учун кадрлар тайёрлашда институтнинг бажараётган ишларининг салмоғи катта.

Хурматли конференция қатнашчилари халқаро конференция ишига муваффақият тилаб, фаол олимларимиз, тадқиқотчи ва ҳамкорларга миннатдорчилик билдираман. Конференция қатнашчиларининг келгуси ишларига омад тилайман.

Абдураимов Мансур Фармонович - GWP (Global Water Partnership/ Глобальный Водное Сотрудничество) халқаро ташкилотининг Ўзбекистондаги Координатори:

Ассалому алайкум хурматли халқаро конференция қатнашчилари!

Бугунги халқаро конференциянинг мавзусидан кўриниб турибдики, у жамият ривожланишининг ўта муҳим соҳалари бўлган сув, газ, иссиқлик таъминотини таъминлайдиган коммуникацияларларининг муҳандислик масалаларига бағишланган. Маълумки, Ўзбекистон ва Марказий Осиё ўзининг чегараланган сув ресурсларига эга, лекин уларга бўлган талаб кун

сайин ошиб бормокда. Хўш, ресурслар захираси чекланган бўлса уларга эҳтиёжлар чексиз давом этиш мумкинми? Бу масалада Бирлашган Миллатлар Ташкилоти “Барқарор ривожланиш тамойилларини” эълон қилганки, ресурслар танқислигини олдини олиш, ёки узок йиллар давомида истеъмолчиларни сув, газ, иссиқлик ва энергия билан бир маромда таъминлаш учун улардан тежамкор фойдаланиш технологияларни ишлаб чиқиш, амалда қўллаш тавсия этилган. Ушбу конференция дастури бўйича турли давлатларда муҳандислик коммуникацияларининг замонавий инновацион технологияларига бағишланган илмий ишланмалар, тадқиқотлар борасида марузалар ва уларни муҳокамалари бўлиб ўтиши анжуманни салоҳиятини кўрсатиб турибди.

Глобал Сув Ҳамкорлиги халқаро ташкилоти ҳам бу соҳада Ўзбекистон ва Марказий Осиё ҳудудида муаммоларнинг амалий ечимлари, уни турли ҳудудлардаги ўзига хос масалалари ечими устида ишлар олиб боради. Қувонарли томони шундаки, ушбу ташкилотнинг лойиҳаларида Самарқанд давлат архитектура-қурилиш институтининг вакиллари фаол қатнашиб келмоқдалар. Бу ҳудудларда ер ости сув ресурсларини олиш ва ишлатишдаги замонавий тежамкор технологияларини амалда қўллаш лойиҳалари ҳисобланади. Мен фурсатдан фойдаланиб бизнинг Халқаро ташкилотимиз билан фаол ҳамкорлик ишларини олиб бораётган олимларимизга миннатдорчилик билдираман ва конференция қатнашчиларини келгуси ҳамкорликга чақириб қоламан. Ўйлайманки, ушбу конференция шу тоифадаги халқаро ҳамкорликларни янада кучайтиришда муҳим аҳамиятга эга.

Ҳурматли конференция қатнашчилари, мен ташкилотимиз ва ўзим номимдан халқаро конференция ишида омадлар тилайман.

СЕКЦИЯ 1

МУҲАНДИСЛИК КОММУНИКАЦИЯ ТИЗИМЛАРИНИ ЛОЙИҲАЛАШ, ҚУРИШ ВА ФОЙДАЛАНИШДА ДОЛЗАРБ МУАММОЛАР

УДК 69.07

СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ТЕХНОЛОГИЙ БЫСТРОВОЗВОДИМЫХ ЗДАНИЙ

Дубинин А.А., Горобченко Д.В.

КазГАСА, г.Алматы

В данной статье было произведено сравнение технологий быстровозводимых зданий с привычной технологией возведения кирпичных домов. Сравнение технологий несъемной опалубки было выполнено по следующим классификационным признакам: размер выпускаемой продукции, возможность армирования, возможная высота возводимых зданий, процесс уплотнения бетонной смеси, процесс заливки бетона и дополнительные возможности технологий быстровозводимых зданий с применением несъемной опалубки.

Ключевые слова: несъемная опалубка, 3D-панель, каркасное домостроение, «Пластбау-3», «Изодом», «Термодом».

In this article, a comparison was made between technologies of prefabricated buildings with the usual technology of erecting brick houses. Comparison of non-removable formwork technology was carried out according to the following classification criteria: the size of the products, the possibility of reinforcement, the possible height of the erected buildings, the process of compacting the concrete mix, the process of pouring concrete and the additional capabilities of technologies of prefabricated buildings with the use of fixed formwork.

Keywords: permanent formwork, 3D - panel frame house, Plastbau-3, Izodom, Thermodom.

С развитием металлообрабатывающей промышленности на смену деревянным домам пришли металлические. Быстровозводимые здания – это различные здания промышленного и гражданского назначения, которые благодаря особенностям применяемых конструкторских решений и закладываемых материалов технологичны, а также легко и быстро собираемы. В настоящее время существует 3 основных технологии быстровозводимых зданий: с помощью несъемной опалубки, 3D – панелей и каркасное домостроение. Разберем каждую из них подробнее.

Устройство быстровозводимых зданий с применением несъемной опалубки. Несъемная опалубка (рис.1) применяется для строительства жилых домов, небольших по объемам промышленных зданий и при возведении хозяйственных построек. Технология монолитного строительства с использованием несъемной опалубки довольно молодая, в сравнении с такими материалами как кирпич и дерево. Однако уже можно выделить плюсы и минусы данной технологии.

К преимуществам можно отнести небольшой вес стены, простоту возведения, высокая скорость строительства, экономию материалов и дешевизна. В современное время появляется большое количество производителей со своими уникальными особенностями изготовления и возведения несъемной опалубки. Недостатки технологии обусловлены особенностями материалов – бетона (железобетона) и пенополистирола. Дом плохо «дышит», необходимо устройство вентиляции. Кроме того, возможны затруднения при прокладке коммуникаций – пенополистирол выделяет в атмосферу соединения, оказывая воздействие на кабели. Также стоит задуматься о классе бетона и размере щебня.




Рис. 1. Несъемная опалубка

Быстровозводимые здания из 3D – панелей. 3D – панель представляет собой пространственную конструкцию, которая состоит из утеплителя с закрепленными с 2-х сторон арматурными сетками (рис.2). Дополнительные стержни пронизывают утеплитель и привариваются к сетке, что создает пространственную жесткость конструкции и удерживает утеплитель в изначальном положении. Из 3D – панелей создается множество строительных элементов, например несущие стены, лестничные марши, перекрытия. Так как такие панели изготавливаются в заводских условиях, процесс строительства становится эффективным, увеличивается скорость возведения и снижается стоимость. Рассматриваемая технология имеет обширную область применения: здания повышенной прочности с

эксплуатационным сроком более 100 лет, реконструкция зданий в условиях плотной городской застройки, надстройка отдельных частей здания, строительство в районах с малой несущей способностью грунтов. Такой метод способствует повышению прочности и морозостойкости конструкции, т.к. бетон заполняет трещины и поры. Размеры панелей стандартизированы: длина 3 и 6 м, ширина 1,2м. Пенополистирольный сердечник может иметь различную толщину, обычно для наружных стен он составляет 120 мм, перегородки – 50 мм, перекрытия – 100 мм.




Рис. 2. Быстровозводимое здание из 3D-панели

Ограничения применения технологии заключены в выборе фундамента. Для 3D –панелей подходят только ленточный фундамент и монолитная плита. Причина выбора объясняется тем, что для установки панелей используются выпуски из фундамента диаметром 10 мм с шагом 500 мм. Они отвечают за устойчивость панелей, недопустимость их смещения.

Возведение стен всегда начинают с угла, постепенно прикрепляя к установленным панелям новые элементы. Причем проемы для дверей и окон должны быть вырезаны заранее, до установки панелей. При возведении перекрытий используют временные горизонтальные распорки и откосы. Для увеличения прочности и устойчивости, перекрытия и стены в местах опирания на них перекрытий армируют между собой, предварительно перевязывая их проволокой. При бетонировании необходимо соблюдать определенную последовательность.

Сначала наносят первый слой торкретбетона на внутреннюю и наружную поверхность стены, затем слой бетона на нижнюю часть перекрытия. Завершают процесс нанесением бетона на верхнюю часть плиты перекрытия и торкретированием стен и плиты. Как у каждой технологии, 3D – панели имеют свои достоинства и недостатки. К достоинствам можно отнести уменьшение расхода материалов, экономических и трудовых затрат, а также упрощение прокладки инженерных сетей и коммуникаций.

Каркасное строительство. Основа технологии заключается в

строительстве дома на основе деревянного или металлического каркаса с использованием сэндвич-панелей (рис.3). Утеплители таких домов не являются уникальными, это могут быть базальтовые или минеральные ваты, «эковаты», пенополистирол и т.д. Утеплитель закрывают фанерой, цементно-стружечными плитами, на которые наносят штукатурку и обшивают сайдингом.




Рис. 3. Каркасная постройка

Как и любой основной технологии строительства, каркасное строительство имеет свои достоинства и недостатки. К достоинствам относят, прежде всего, высокую скорость возведения зданий и низкую стоимость строительства. Кроме того, каркасное строительство является легким, т.е. не требует сооружения массивного фундамента. Каркасный дом хорошо работает с грунтом, не допуская больших деформаций с равномерными деформациями. Такие дома быстро нагреваются и не отдают тепло наружу. Возможность использования негорючих материалов позволяет увеличить пожаростойкость, а паропроницаемые материалы отделки (например, цементно-стружечные плиты) и соответствующим материал утеплителя позволяют создать эффект «дышащего» дома, что характерно для деревянных домов. Кроме достоинств, технология имеет и ощутимые недостатки. К ним можно отнести дешевизну материалов и, соответственно, их неэкологичность, такие как формальдегидные смолы, содержащиеся в стружечных плитах, стекловатах. Температурная нестабильность внутри дома может быть как достоинством, так и недостатком. Например, в каркасных домах не требуется нагрев материалов стен, как в кирпичных или бетонных домах, при снижении температуры внутри дома стены не отдают тепло и не забирают излишки тепла в летнюю

жару. Для жарких стран это свойство является большим недостатком. Однако, такие дома быстрее остальных прогреваются и охлаждаются кондиционером, что уменьшает экономические затраты на электроресурсы. К каркасным домам нельзя отнести понятие «мой дом – моя крепость», т.к. стены дома можно разрезать с помощью бензопилы. Классический вариант строительства из кирпича никогда не потеряет свою актуальность, так как этот метод зарекомендовал себя как наиболее практичный и надежный. Однако данный метод и наиболее трудоемок. Все операции по возведению кирпичной кладки выполняются непосредственно на строительной площадке, что увеличивает общую продолжительность возведения здания.

Заключение. Из всех выше перечисленных способов быстровозводимых зданий, я бы выбрал каркасное строительство так как – строительство каркасных домов имеет целый ряд преимуществ. Современные технологии строительства каркасных домов позволяют быстро возвести энергоэффективное, эстетически красивое и безопасное здание, которое сможет прослужить не один десяток лет.

Литература

1. Асаул А.Н., Казаков Ю.Н., Быков В.Л. Быстровозводимые здания и сооружения: Научное и учебно-методическое справочное пособие – Гуманистика, 2004 – 467с.
2. Сайт Построй дом своими руками, <http://www.postroj-dom.ru/stroytelstvo-/87-nesiemnaia-opalubka-termodom.html> (дата обращения: 5.03.2017 г.)
3. Сайт Alien technologies,

BINOLARNI REKONSTRUKSIYA QILISH LOYIHASI SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Asatov N.

Jizzax Politexnika Instituti

When the temperature decreases, there is movement in the horizontal and vertical planes. The liquid and gaseous phases of atmospheric humidity affect the containment structures under the influence of capillary forces, wind pressure, pressure gradient and penetrate into the inner layers, which leads to a deterioration in the moisture content of the material and the properties of heat and strength.

Binolarning vazifasi ichki harorat va namlik rejimini saqlab turishdir, bu esa yashash qulayligiga ta'sir qiladi va yopiq inshootlar ishlab chiqarilgan qurilish materiallarining issiqlik muhandislik xususiyatlariga bog'liq. Yopiq tuzilmalar ko'p funktsiyali va ko'p elementli tizimlardir. Ularning vazifalari materiallar va tuzilmalarning o'ziga xos xususiyatlari bilan ta'minlanadi: issiqlik muhofazasi-issiqlik o'tkazuvchanligi va issiqlik sig'imi; suvni muhofaza qilish - havo o'tkazuvchanligi, komponentlar va tuzilmalar bo'g'inlarining qattiqligi ; ovozni himoya qilish - tovush yutilishi va tovush o'tkazuvchanligi; fizik-mexanik xossalari-devor ramkasining mustahkamligi. Shu bilan birga, yopiq inshootlar

muayyan shakldagi va rang sxemasidagi yopiq inshootlarning yuzasini berish bilan bog'liq me'moriy vazifani bajaradi.

Yopiq inshootlarning materiali vaqtining o'zgarishi nafaqat binolarning issiqlik-suv rejimining buzilishiga, balki inshootlarning shikastlanishiga, ularning yuk ko'tarish qobiliyati va mustahkamligining pasayishiga olib keladi. Devorlarning kam issiqlik izolatsiyasi yotiq konstruksiyalarga yoyiladigan namuretirishga yordam beradi, natijada ularning fizik-mexanik xossalari o'zgaradi.

Tashqi devorlar nafaqat atmosfera namligining kirib kelishini, balki suv bug'larining ichki muhitdan tashqi muhitga erkin tarqalishini ham ta'minlashi kerak. Normal rejimning eng muhim sharti tashqi muhitga bug'lanish qobiliyatiga ega bo'lgan bug'ning atmosfera namligi, kondensatsiyalanishi va tarqalishi. Atmosfera yog'inlari bilan botqoqlanishdan himoyalaniş samaradorligi o'z ijobiy va salbiy tomonlariga ega. Shuni ta'kidlash kerakki, turli xil tashqi qoplamali devorlar uchun namlik uzatish dinamikasi ko'plab omillarga bog'liq. Shunday qilib, gips qoplamasi shaklida himoya qilish namlikning doimiy to'planishiga yordam beradi, tashqi bezaksiz devorlar uchun namlik tezda chiqariladi. Bu hodisa, ayniqsa, g'ovak materiallardan(gaz silikat gaz va ko'pikli beton) devor to'siqlari uchun aniq namoyon bo'ladi. Keramik plitkalardan tayyorlangan qoplamalar atmosfera yog'inlari kirishining oldini oladi, lekin xonalardan namlik ko'chishini ta'minlamaydi.

Suv chiqarish tezligi qurilish materialining bug 'o'tkazuvchanligi va bug' elastikligiga bog'liq. Tashqi gipsga qo'llanilganda bo'yoq yoki qoplama plitasining himoya qatlami bug ' o'tkazuvchanligi pasayadi, bu esa izolyatsion qatlam ostida suvning kondensatsiyasiga va salbiy haroratning davriy ta'sirida sirt qatlamlarining yo'q qilinishiga olib keladi.

Atmosfera namligining suyuq va gazsimon fazalari kapillyar kuchlar, shamol bosimi, bosim gradienti ta'sirida ihota tuzilmalariga ta'sir etadi va ichki qatlamlarga kirib boradi, bu esa materialning namligi va issiqlik va kuch xususiyatlarining yomonlashuviga olib keladi.

Yuk ko'taruvchi va ihota konstruksiyalarining ishlashi ko'p jihatdan deformatsiya kattaligiga bog'liq. Ularning umumiy parametrlari qurilish paytida vertikal yuklarni oshirish va binoning nihoyat shakllangan tizimida uzoq muddatli siqilish va siljish jarayonlarining natijasidir. Umumiy deformatsiyalarning ikkinchi komponenti birinchisining hisoblangan qiymatlaridan oshib ketishi mumkin.

Harorat va namlik deformatsiyalari binolarning ishlashiga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatadi. Harorat pasayganda gorizonta va vertika tekisliklarda harakat kuzatiladi. Panel binolar uchun eng xavfli devorlar kesimida harorat farqlar oqibatida deformatsiyalari bor. Panelning deformatsiyalangan holati qizdirilgan yuzaga tomon egilgan soha sifatida namoyon bo'ladi. Qizigan qatlamda zo'riqish kuchlanishlari va qizimagan qatlamda siqilish bo'lishi deformatsiyalar va materialning zo'riqish kuchlanishidan o'ta oladigan kuchlanishlarni yuzaga keltiradi, bu esa yorilishga olib keladi. Issiklik ta'sirlar doimo yoriqlar sonini va ularning ochilish kengligini oshiradi.

Tashqi va ichki muhitlar orasidagi bosim gradienti ta'sirida havo infiltratsiyasi natijasida buzilishlarning yuzaga kelishi tufayli binolarning ishlashi sezilarli darajada yomonlashadi. Xonada nafas olishning asosiy sohasi panellarning bo'g'inlari va deraza va balkon plombalarining birlashmasidir. Nafas olish qobiliyati sezilarli darajada ularning qarishi natijasida va normativ qadriyatlar bir necha marta yuqorida birinchi ommaviy ketma-ket uylar uchun plomba xususiyatlarini o'zgartirish bilan ortadi. Bu holat binolarning konforini bezovta qilib, qo'shimcha infiltratsion issiqlik oqimini yaratadi.

Binolarni havo muhofaza qilish uchun muhim Windows va ijtimoiy plombalarning o'rnatish to'g'ri texnologiya, ularning adjacency orqali issiqlik yo'qotish qadar yetib, chunki 50% jami. Windows ge'cirmezligini oshirish binolar qavatli soni o'sishi bilan oshirish kerak. Shunday qilib, 17 qavatgacha bo'lgan binolar uchun torlik besh qavatga nisbatan 2-3 marta oshirilishi kerak.

Shamollatish tizimlari va muhandislik uskunalari tizimlari (Elevator tizimlari) havo almashinuvi shaxtalari, chiqindi quvurlari jarayoniga katta ta'sir ko'rsatadi). Dizayn echimlaridan chetga chiqish intensiv havo almashinuviga olib keladi, bu darhol turar-joy binolarining harorati va namlik sharoitlariga ta'sir qiladi.

Shu bilan birga havo almashinuvining yetarli emasligi qator salbiy hodisalarga olib keladi.

Shunday qilib, Germaniyada sanitized panel turar-joy binolari ishga tajribasi kvartiralar haqida 30% zamburug'li mog'or shakllanishiga bo'ysunadi, deb ko'rsatdi. Qo'ziqorin koloniyalarining intensiv o'sishining asosiy sababi panel uylarining jabhalarini izolyatsiyalashda havo almashinuvining etishmasligi. Muhrlangan Windows foydalanish va shamollatish yo'qotishlarni kamaytirish orqali energiya iste'molini kamaytirish istagi sezilarli namlik oshirish. Yana bir sababi yuqori namlik va tashqi devor ichki yuzasi haroratida kondensatsiya sabab bo'lgan sovuq ko'priklar, paydo bo'lishiga hissa loyihalarda xatolar hisoblanadi. Burchak xonalarida kondensatsiya ehtimoli juda yuqori, bu esa aerodinamik ta'sirga bog'liq bo'lib, u yanada samarali issiqlik uzatishga yordam beradi va materialning issiqlik izolyatsiyasi xususiyatlarini kamaytiradi.

Qulay turar joy uchun muhim sharti tuzilmalar ovoz izolyatsiya xususiyatlari ko'rsatkich hisoblanadi. Tutash xonalarning izolyatsiyasi ajratuvchi to'siqlarning tovush o'tkazuvchanlik qobiliyati va bevosita va bilvosita yo'llar bilan tovush uzatish jadalligi bilan baholanadi. Bu borada arxitektura va rejalashtirish echimlari, bo'linuvchi devor va shiftlarning materiali hamda tugun va tutash elementlarning konstruktiv yechimi katta ta'sir ko'rsatadi. Konstruksiyalarning tovush izolyatsion sifatlari vaqt o'tishi bilan ularning fizik-mexanik xususiyatlarining o'zgarishi natijasida yomonlashadi: elastiklik, deformatsiyalanish, yoriqlarning hosil bo'lishi va oshkor bo'lishi.

Devor va shiftlar ramkasi orqali uzatiladigan strukturaviy shovqinlar va tebranishlar binolarning vibroakustik parametrlariga alohida ta'sir ko'rsatadi. Ular bilan ishlashning asosiy usuli-vibratsiyani namlash, vibratsiyali izolyatsiyali split

strukturaviy tizimlar, suzuvchi qavatlar va boshqalarni ta'minlaydigan namlash yostiqlari bilan birliklarni yaratishdir.

Turar joy binolarining eng katta noqulayligi yo'l va boshqa transport rejimlaridan havo shovqiniga ta'sir qilish natijasida paydo bo'ladi. U transport jadalligi va asosiy avtomobil yo'llaridan binolarning uzoqligi bilan belgilanadi. Bu ta'sir kamaytirish shovqin-himoya yashil plantings ekish va maxsus o'ychan to'siqlar qurish orqali erishiladi, devor yuzasi, 3-qatlam yoki ommaviy shisha qurilma ovoz izolyatsiya, ovoz tebranishlar ta'sirini kamaytirish usullari bilan amalga oshiriladi.

MGSN2 standartlariga muvofiq. 04-97 'uy-joy va jamoat binolarida shovqin, tebranish va tovush izolyatsiyasi talablarining ruxsat etilgan darajalari' qurilish fizikasi usullari bilan havo va zarba shovqiniga qarshi kurash kuchaydi.

Rekonstruksiya ishlarini amalga oshirishda binolarning texnik va operatsion ishonchliligini oshirish, atrof-muhitning zararli ta'sirini kamaytirish, energiya tejaydigan inshootlar, qulay yashash sharoitlarini sezilarli darajada yaxshilaydigan samarali materiallar va texnologiyalardan foydalanishga qaratilgan jarayonlar va hodisalarni hisobga olish juda muhimdir.

Adabiyotlar

1. P. P. Serbinovich. Ommaviy qurilish fuqarolik binolar. M.2013.
2. Fuqarolik va sanoat binolari arxitekturası. Fuqarolik qurilish. A. V. Zaxarov tahriri ostida. M.2014.
3. U. T. Yusupov. Fuqarolik binolari arxitekturası. T.2014

УДК 697.1

МУХАНДИСЛИК КОММУНИКАЦИЯ ТИЗИМЛАРИНИ ЛОЙИХАЛАШ ВА ҚУРИШДАГИ МУАММОЛАР

Матъязов С., Самтаров И.С.

Самарқанд давлат архитектура-қурилиш институти

В статье рассматриваются ошибки, дефекты и повреждения зданий и инженерно-коммуникационных системах допущенные при проектировании и строительстве типовых малоэтажных жилых зданий, которые могут повлиять на энергоэффективность зданий.

This article investigates mistakes, defects, and damages of engineering system while projecting standard residence which can influence to buildings' energy efficiency.


20-21 май 2014 йили Самарқанд давлат архитектура қурилиш институтида “Муҳандислик коммуникация тизимларини лойиҳалаш, қуриш ва модернизациялашнинг замонавий масалалари” мавзусидаги халқаро илмий-техник конференцияда “Намунавий лойиҳалар асосида қурилган турар-жой бинолари ва унинг муҳандислик коммуникациялари тизимларини таъмирлашга тавсиялар” номли мақола билан иштирок қилган эдик [1].

2009-2012 йилларда имтиёзли ипотека кредитлари ҳисобига қишлоқларда 23500 дан ортиқ замонавий ва кўркам турар-жой бинолари

фойдаланишга топширилганлиги тўғрисида гап юритилганлиги келтирилган бўлса, бунинг салмоғи кейинги 2013-2019 йилларда, янада ошди.

Диаграмма: Ўзбекистон Республикаси қишлоқларида 2009-2019 йилларда қурилган намунавий турар-жой бинолари тўғрисидаги маълумотлар.

Обод маҳалла ва обод қишлоқ давлат дастурлари, шу жумладан кам қаватли арзонлаштирилган турар-жой биноларини қуриш борасидаги саъйл ишлар кўлами халқимизни қувонтирадиган даражада кенг йўлга қўйилди.



Биз томондан олиб борилаётган бинолар ташхиси ва экспертизаси бўйича изланишлар айниқса, намунавий турар-жой бинолари қурилишида йўл қўйилган, шу жумладан уларнинг муҳандислик тизимларида ҳам учраб турадиган биргаликдаги хато ва камчиликлар, нуқсон ва шикастланишларнинг бино умумий энергия самарадорлигига ва таъсирига йўналтирилган.

Ўтказилган тадқиқот натижалари шундан далолат берадики, намунавий турар-жой биноларида пайдо бўлган нуқсон ва шикастланишларнинг асосий сабаблари лойиҳалаш ва қуришдаги йўл қўйилган хатоликлардир. Буларни юқоридаги фото лавҳалардан кўриш мумкин.

Лойиҳалашда йўл қўйилган камчиликлар:

- иситиш қозонининг хажмини хаддан ташқари катталиги;
- иситиш тизими, иссиқ, совуқ сув ва оқаво қувирларининг девор ва бетон пол ичидан ўтказилиши;
- иситиш тизимида ҳар хил металлларнинг бир-бирига тўғридан тўғри улаш;
- иситиш тизими радиаторларининг хона юзасига мос келмаслиги ва ҳк.



Қурилишда йўл қўйилган камчиликлар:

- пойдевор жойлашиш чуқурлигининг лойиҳага мос келмаслиги;
- пойдевор билан ғишт девор оралиғида горизонтал гидроизоляция қатламининг йўқлиги;
- сифатсиз қурилиш материал ва конструкцияларининг ишлатилиши;
- иситиш тизими қувурларининг изоляция қилинмаганлиги;
- томдан ўтказилган иситиш тизими қувурларининг атрофини ёпилмаганлиги ва ҳ.к.

Имкон борида юқоридаги камчиликларга йўл қўйилмаслиги керак, акс ҳолда [2] талаблардан келиб чиқиб, жорий таъмирни 4 йил, капитал таъмирни 12 йил кутиб кўп миқдорда энергия йўқотилишига йўл қўйилиши мумкин.

Адабиётлар рўйхати:

1. И.С.Саттаров, С.Матъязов, М.Д.Сапарбоев, Т.И.Саттаров Намунавий лойиҳалар асосида қурилган турар-жой бинолари ва унинг муҳандислик коммуникациялари тизимларини таъмирлашга тавсиялар. “Муҳандислик коммуникация тизимларини лойиҳалаш, қуриш ва модернизациялашнинг замонавий масалалари” мавзусидаги халқаро илмий-техник конференция материаллари (2014 йил 20-21 май).
2. ШНК 1.04.03-05 Положение об организации в проведении реконструкции, ремонта и технического обслуживанию жилых домов, объектов коммунального и социально-культурного назначения. Ташкент-2005.

СИЗОТ СУВЛАРИ ЕР ЮЗАСИГА ЯҚИН ЖОЙЛАШГАН АҲОЛИ ЯШАШ ПУНКТЛАРИДА МУҲАНДИСЛИК КОММУНИКАЦИЯ ТИЗИМЛАРИНИ ЛОЙИҲАЛАШ, ҚУРИШ ВА ИШЛАТИШ

Имамназаров О.Б., Бойдадаева М.А.қ., Ҳайдарова Д.Д.қ.

Наманган муҳандислик-қурилиш институти

In settlements flooded with groundwater, and engineering communications systems remain under groundwater. Under the aggressive influence of groundwater, and engineering communications systems remain under groundwater fail or their validity periods are reduced. To prevent the negative effects of groundwater, it is necessary to develop methods and scientific and technical foundations for regulating the groundwater regime.

Keywords. *groundwater flooding, aggressive effects, settlements, engineering communications systems, drainage systems, optimal groundwater depth.*

В подтопленных грунтовыми водами населённых пунктах, и системы инженерных коммуникаций остаются под грунтовыми водами. Под агрессивным воздействием грунтовых вод системы инженерных коммуникаций выходят из строя или их сроки действия сокращаются. Для предотвращения отрицательных воздействий грунтовых вод необходимо разработать способы и научно-технические основы регулирования режима грунтовых вод.

Ключевые слова. *подтопление, грунтовые воды, агрессивное воздействие, населённые пункты, системы инженерных коммуникаций, системы дренажей, оптимальная глубина залегания грунтовых вод.*

Ўтган асрнинг 60-йилларидан бошлаб мамлакатимизда кенг миқёсда сув хўжалиги ишлари амалга ошира бошланди. Қурилган сув омборлари ва каналлардаги сувнинг филтрацияси ҳамда ўзлаштирилган суғорма ер майдонларидаги инфильтрация туфайли сизот сувларининг сатҳи ер юзаси томон кўтарила бошлади. Ер юзаси томон кўтарилган сизот сувларининг салбий таъсири, фақатгина суғорма ер майдонларидагина эмас, шунингдек, шаҳарлар ва қишлоқлар ҳудудларида ҳам ўзини намоён қила бошлади. Сизот

сувларининг салбий таъсири суғорма ер майдонларида ернинг шўрланишида ва тупроқларнинг ботқоқланишида кўзга ташланган бўлса, аҳоли яшаш жойларида эса бино ва иншоотларнинг ҳамда муҳандислик коммуникация тизимларининг ишдан чиқиши ёки ишлаш муддатларининг қисқаришида намоён бўла бошлади.

Бугунги кунда республикамызда сизот сувлари таъсири минтақасига 1,2 минг аҳоли яшаш пунктлари киради. Уларда сизот сувлари салбий таъсирини бартараф этиш бугунги куннинг долзарб масалаларидан бири бўлиб турибди[1].

Ер ости муҳандислик коммуникация тизимлари, сизот сувлари ер юзасига яқин жойлашган шароитларда, ташқи муҳит, яъни ҳаво, тупроқ ва сувнинг таъсири остида бўлади. Ҳаво ва тупроқ таркибидаги сув муҳандислик коммуникация тизимларига таъсир қилиб, уларнинг ишлаш муддатларини қисқартиради. Тупроқсиз фазо орқали муҳандислик коммуникация тизимлари ўтказилган(лотокда) ва сизот сувлари муҳандислик коммуникация тизимларини босган шароитларда сизот сувлари муҳандислик коммуникация тизимларига агрессив таъсир кўрсатади. Агрессив таъсир сизот сувлари таркибидаги химиявий моддалар турлари ва уларнинг миқдорига боғлиқ бўлади.

Сизот сувлари таркибидаги эриган тузлар ўзининг агрессив хусусиятига кўра қурилиш материалларини емиради. Муҳандислик коммуникация тизимлари иншоотларида ишлатиладиган портландцемент бетонларга сизот суви таркибидаги озод карбонат кислота гази(CO_2) агрессив таъсир этади. Сув билан цементнинг ўзаро таъсиридан боғланмаган оҳак $\text{Ca}(\text{OH})_2$ ажралиб, сув таркибидаги карбонат кислота билан реакцияга киришади. Ҳосил бўлган бикорбонат кальций $\text{Ca}(\text{HCO}_3)_2$ сувда тез эрийди ва бетондан ташқарига эритма ҳолда оқиб чиқади, натижада бетон емирилади.

Сув таркибида олтингугуртли тузлар миқдори кўп бўлса, бетоннинг емирилиш жараёни янада тезроқ кечади[2].

Сизот сувлари таркибидаги тузларнинг таркиби ва таъсир этиш даражасига қараб, сульфат ва карбонат ангидрит агрессивлиги содир бўлади. Сульфат агрессивлик ер ости сувлари таркибидаги SO_4^{2-} нинг миқдори 250 мг/л дан кўп, Cl нинг миқдори 1000-6000 мг/л оралиғида бўлган ҳолатларда содир бўлади. Бетон учун ишлатиладиган цементнинг таркибида сульфат ионлари бўлганлиги ҳамда ер ости сувининг сульфатлилиги туфайли бетонда кристалланиш жараёни вужудга келади, яъни алюминийнинг олтингугурт-кальцийли турлари билан янги бирикмалари-гипс $\text{CaSO}_4 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$ ҳосил бўлади. Бирикмалар ҳажмининг 2-3 баробарга ошиши юз беради. Бу ҳолат ўз навбатида бетоннинг мустаҳкамлигига путур етказади ва парчаланишига, емирилишига сабабчи бўлади[3].

Сизот сувлари таркибидаги кислород металдан тайёрланган қувурларнинг каррозияга учрашига сабаб бўлади. Бизга маълумки, кислород метал билан реакцияга киришиб метал оксидини ҳосил қилади. Сизот

сувлари оқими эса каррозия жараёнини янада тезлаштиради.

Ер ости муҳандислик коммуникацияларини лойиҳалаш ва қуриш бўйича мавжуд ҚМваҚларни ўрганиб чиқиш натижалари кўрсатдики, мавжуд ҚМваҚларда сизот сувлари ер юзасига яқин жойлашган шароитларда ер ости муҳандислик коммуникация тизимлари(сув таъминоти ва канализация тизимлари, иссиқлик ва иссиқ сув таъминоти тизимлари, газ таъминоти тизимлари)ни лойиҳалаш ва қуриш бўйича кўрсатмалар(айрим кичик тавсияларни ҳисобга олмаганда) берилмаган. Бундан шундай хулоса қилиш мумкинки, сизот сувлари ер юзасига яқин жойлашган шароитларда ер ости муҳандислик коммуникацияларини қуриш бўйича кўрсатмалар ишлаб чиқиш учун аҳоли яшаш жойларининг табиий-иқлимий шароитларини ҳисобга олган ҳолда комплекс илмий тадқиқотлар(КИТ) ўтказиш лозим. Комплекс илмий тадқиқотларнинг мақсади конкрет табиий-иқлимий шароитлар учун ер ости муҳандислик коммуникацияларини лойиҳалаш ва қуриш учун кўрсатмалар ишлаб чиқиш ва уларни ҚМваҚга киритиш орқали соҳага жорий қилишдан иборат.

КИТ ўз ичига қуйидаги вазифаларни олади: 1) аҳоли яшаш жойлари табиий-иқлимий шароитларини ўрганиш ва уларни, табиий-иқлимий шароитлар кўрсаткичига қараб, минтақаларга ажратиш; 2) ҳар бир минтақада сизот сувларининг ер ости муҳандислик коммуникация тизимларига таъсирини тадқиқ қилиш; 3) табиий-иқлимий ва гидрогеологик шароитларни тадқиқ қилиш асосида сизот сувларини қочирувчи дренаж турини танлаш; 4) ҳар бир минтақа учун ер ости муҳандислик коммуникациялари ва дренажлар тизимларини қуриш ҳамда ишлатиш учун керак бўладиган капитал ва эксплуатацион харажатларни аниқлаш; 5) сизот сувлари ер ости муҳандислик коммуникация тизимларига салбий таъсир қилмайдиган ва капитал-эксплуатацион харажатлар минимал қийматга эга бўладиган сизот сувларининг оптимал чуқурлигини аниқлаш; 6) табиий-иқлимий шароитларнинг ва ер ости муҳандислик коммуникацияларини қуриш ҳамда ишлатишга бўладиган харажатларнинг вақт бўйича ўзгаришини ҳисобга олган ҳолда, сизот сувларининг оптимал чуқурлигини аниқлаш имконини берувчи электрон дастурни яратиш.

Сизот сувларининг оптимал чуқурлигини аниқлаш учун олиб бориладиган илмий тадқиқот ишларининг гипотезаси қуйидагидан иборат: сизот сувлари юқорига, яъни ер юзаси томон кўтарилиб борган сари ер ости муҳандислик коммуникацияларини қуриш ва ишлатишга бўладиган харажатлар ортиб боради. Чунки, сизот сувларининг ер юзаси томон кўтарилиши оқибатида ер ости муҳандислик коммуникацияларининг ишлаш муддати қисқаради ёки улар бутунлай ишдан чиқади. Ер ости муҳандислик коммуникация тизимларини ишлатиш учун бўладиган харажатларнинг эса ортишига олиб келади. Сизот сувларини қочириш учун хизмат қиладиган дренажларни қуриш ва ишлатиш учун бўладиган харажатлар камаяди. Агар сизот сувларини қочириш учун дренаж тизими ташкил қилинмайдиган бўлса,

ўз-ўзидан келиб чиқадики, дренажни қуриш ва ишлатиш учун бўладиган харажатлар бўлмайди. Агар сизот сувларининг ер ости муҳандислик коммуникация тизимларига салбий таъсирини камайтириш ёки бутунлай бартараф қилиш мақсадида сизот сувларининг сатҳини дренажлар тизими ёрдамида пасайтириладиган бўлса, дренажларни қуриш ва ишлатиш учун бўладиган харажатлар ортиб боради. Аксинча, ер ости муҳандислик коммуникациялари тизимларини қуриш ва ишлатиш учун бўладиган харажатлар камайиб боради. Юқорида айтилганлардан шундай хулоса қилиш мумкин: сизот сувларининг шундай чуқурлиги мавжудки, унинг сатҳини дренажлар ёрдамида бундай чуқурликда ушлаб турилса, ер ости муҳандислик коммуникация ва дренажлар тизимларини қуриш ва ишлатиш учун бўладиган харажатларнинг йиғиндиси минимал қийматга эга бўлади. Айнан, сизот сувларининг бундай чуқурлиги оптимал чуқурлик деб аталади. Сизот сувларининг оптимал чуқурлигини аниқлаш орқали илмий тадқиқот мақсадида эришилади.

Сизот сувлари турли муҳандислик коммуникация тизимларига турлича таъсир қилади. Уларнинг салбий таъсири тармоқ қувурларининг каррозияга учрашда ва иншоотларининг емирилишида ҳамда тармоққа сизот сувларининг тушишида намоён бўлади. Иссиқ сув ва иссиқлик таъминоти тармоқларига сизот сувларининг таъсири юқоридагиларга ўхшаш бўлса-да, қувур тармоқларида иссиқликнинг йўқолиши билан ажралиб туради. Газ таъминоти тармоқларига сизот сувларининг салбий таъсири қувурларнинг каррозияга учраши, тармоқдаги иншоотларнинг емирилиши ва ишлаш муддатининг қисқариши ҳамда сизот сувларининг тармоқ қувурларига кириши туфайли уларнинг иш самарадорлигининг пасайиши кабиларда намоён бўлади[4].

Биз бугунги кунда “Аҳоли яшаш пунктлари мелиорацияси” деб номланган фан соҳасининг янги босқичи арафасида турибмиз. Мазкур фан соҳасини ривожлантириш ва мамлакатимиз аҳолисининг яшаш шароитларини яхшилаш ҳамда фаровонлигини таъминлаш каби вазифаларни бажариш ёш ва иқтидорли олимларимиз зиммасига юксак масъулият юклайди.

Фойдаланилган адабиётлар

1.Б.К.Салиев. Мелиорация подтопленных территорий городов и поселков. – Ташкент: Фан ва технология, 2010. -14 с.

2.Ў.Эргашев. Инженерлик геологияси ва гидрогеология. –Тошкент: Ўқитувчи, 1990. -123-124 б.

3.М.Ш.Шерматов. Гидрогеология ва инженерлик геологияси асослари. –Тошкент: ЎМКХТМ, Билим нашриёти, 2005. 290-291 б.

4.О.Б.Имомназаров, А.Соҳибов. Сизот сувларининг иссиқлик таъминоти тармоқларига таъсири/“XXI аср-интеллектуал авлод асри” конференция материаллари. – Наманган: НамДУ, 2014.-262-265 б.

ПРИМЕНЕНИЕ БЕТОННОГО ЛОМА В КАЧЕСТВЕ СЫРЬЯ В ТЕХНОЛОГИИ БЕТОНА

Пулатова З.У.

Самаркандский государственный архитектурно строительный институт

An experimental study was conducted in concrete solutions, and the kinetics of strength gain of concrete based on concrete scrap was studied. The optimal content of concrete scrap and its influence on the properties of concrete are determined. It is shown that to obtain a high-quality large aggregate based on concrete crushing products, it is necessary to use equipment that allows separating large aggregate from cement stone.

Конкрет эритмаларда экспериментал тадқиқот ўтказилиб, бетон қоришма асосида бетоннинг мустаҳкамликка ега бўлиш кинетикаси ўрганилди. Бетон қоришмасининг оптимал таркиби ва унинг бетон хоссаларига таъсири аниқланади. Бетон майдалаш маҳсулотлари асосида юқори сифатли йирик агрегат олиш учун семент тошидан йирик агрегатни ажратиш олиш имконини берувчи ускуналардан фойдаланиш лозимлиги кўрсатилган.

Ключевые слова: *щековая дробилка, бетонный лом, вторичный заполнитель, прочность, водопотребность, цементный камень.*

Строительство, как самая материалоемкая отрасль народного хозяйства по объёму и разнообразию исходных сырьевых компонентов, является самым мощным потребителем отходов, способным рационально использовать их в виде вторичного сырья для производства строительных материалов и их компонентов. В настоящее время заканчивается расчетный срок эксплуатации многих зданий и сооружений, возведенных в начале бурного развития сборного жилищного строительства. В нашей стране проблема использования отходов, образующихся при демонтаже, становится с каждым годом все более актуальной, что связано с увеличением количества сносимых зданий и сооружений, построенных на начальных этапах развития индустриального строительства. Кроме отходов, образующихся при сносе зданий и сооружений, имеются другие источники бетонного лома. Бетонный лом, полученный из различных источников, может существенно отличаться по составу и характеристикам. Так, бетонный лом из брака и отходов производства содержит цементный камень с более низкой степенью гидратации, практически не подверженный карбонизации и химической коррозии.




Рисунок 1. Схема источников бетонного лома

Возврат такого рода отходов в общий производственный (материальный) оборот в качестве вторичного сырья – неизбежная и прогрессирующая во всём мире тенденция использования потенциала вторичных ресурсов, а также повышение ресурсо- и энергосбережения. Одним из наиболее перспективных направлений утилизации лома бетонных конструкций считается его дробление и использование взамен щебня и песка, полученных на основе горных пород. Переработка строительных отходов осуществляется, в основном, механическим способом на дробильно-сортировочных установках. Энергозатраты при добыче природного щебня в 8 раз выше, чем при получении щебня из бетона, а себестоимость бетона, приготавливаемого на вторичном щебне, снижается на 25%.

Основной целью данной работы является исследование возможности использования бетонного лома сносимых зданий и сооружений, полученного путем механической переработки, в бетонных технологиях в качестве заполнителей. В испытании использованы следующие материалы: природные пески и гравий из фракций 0-5 мм, 5-10 мм и 10-20 мм; вторичные заполнители из бетонного лома той же фракции; портландцемент 400, вода. В процессе исследования было изготовлено пять серий образцов: 1) контрольный образец; 2) замена природного щебня ломаным бетоном (50%); 3) замена природного щебня (100%); 4) замена цемента (20%); 5) замена цемента (5%). Исследования проходили в три этапа. На первом этапе дробились бетонные образцы в стандартной щековой дробилке ШДП 9*12. Несмотря на то, что разработано производство различных видов оборудования, позволяющее перерабатывать железобетонные конструкции во вторичный щебень, объемы использования этого вида сырья в технологии бетона невелики. Это связано, прежде всего, с низкой прочностью продуктов дробления бетона в сравнении с прочностью крупного и мелкого заполнителя, полученного на основе природных материалов.

Причиной низких показателей качества заполнителей, полученных при дроблении бетона, является наличие во вторичном щебне значительного объема цементного камня. Анализ поверхности вторичного щебня показывает, что при дроблении бетона происходит сквозное разрушение материала. Несмотря на то, что прочность цементного камня, а также контактной зоны между цементным камнем и заполнителем в несколько раз

ниже прочности горных пород, трещины, образовавшиеся в цементном камне, не огибают зерна прочного щебня, а проходят через них. На втором – были изготовлены пять серий образцов, стандартных кубиков размером 100*100*100 мм, на третьем – испытывались эти образцы. По истечении 28 суток образцы испытывались на гидравлическом прессе ПГ-1-70. В результате проведённых экспериментов, были получены следующие данные по степени прочности на сжатие пяти образцов.

Полученные результаты даны в таблице №1.

Таблица №1

№	F	S	FxS	m	ρ	R, МПа
<i>1-серия образцов</i>						
1	368	100,9	37,1	2,478	2512	34,7
	353,9	101,5	35,9	2,522	2585	34,7
<i>2-серия образцов</i>						
2	340,7	103	35,1	2,430	2644	37
	422,7	102	43,1	2,462	2504	37
<i>3-серия образцов</i>						
3	396,5	101	40	2,356	2408	40
	433,1	102	44,2	2,380	2435	40
<i>4-серия образцов</i>						
4	219,2	101	22,1	2,402	2448	20,6
	222,4	101	22,4	2,426	2462	20,6
<i>5-серия образцов</i>						
5	366,7	100	36,7	2,436	2434	34,45
	371,1	101	37,5	2,400	2346	34,45

Данные исследований показывают, что добавки бетонного лома в бетон, с полным замещением природного щебня приводят к увеличению прочности цементного камня.

Выводы. Полученные предварительные результаты свидетельствуют о возможности применения вторичного заполнителя из бетонных отходов в устройстве щебеночных оснований под полы и фундаменты зданий, при производстве бетонных и железобетонных изделий.

Повторное применение вторичного заполнителя из бетонного лома является экологически и экономически целесообразным.

Список литературы

1. Гусев Б.В., Загурский В.А. Вторичное использование бетонов. М.: Стройиздат, 1988. 97 с.
2. Гусев Б.В., Кудрявцева В.Д. Дробление железобетонных изделий и вторичное использование бетона // Техника и технология силикатов. 2013. Т. 20. № 2. С. 25-28.
3. Егорочкина И.О., Кучеренко Д.Ю. Сравнительная оценка качества заполнителей из дробленого бетона // Новая наука: техника и технологии. 2017. № 3. С. 30-33.

4. Арсентьев В.А., Мармандян В.З., Добромыслов Д.Д. Современные технологические линии для строительного рециклинга // Строительные материалы. 2006. № 8. С. 64-66.
5. Курочка П.Н., Мирзалиев Р.Р. Свойства щебня из продуктов дробления вторичного бетона как инертного заполнителя бетонных смесей [Электронный ресурс] // Инженерный вестник Дона. 2012. №4 (часть 2).
6. Коровкин М.О., Шестернин А.И., Ерошкина Н.А. Использование дробленого бетонного лома в качестве заполнителя для самоуплотняющегося бетона [Электронный ресурс] // Инженерный вестник Дона. 2015. Т. 37. № 3. С. 85.
7. Трамбовецкий В.П. Повторное использование дробленого бетона // Бетон и железобетон. 2004. № 4. С. 24-26.

UDK 621.004.5

QURILISHDA KO‘TARMA MEKANIZMLARIDAN FOYDALANISH XAVFSIZLIGINI TA’MINLASHNING MUAMMOLARI

*Rayimkulov A. A., Saidov B. M.
Samarqand davlat arxitektura-qurilish instituti*

В статье рассмотрены вопросы безопасного использования грузоподъемных машин и механизмов на объектах строительства. Проведен анализ причин аварий и нарушения правил эксплуатации, используемых кранов в строительстве за рубежом и в нашей стране. На основе анализа причин аварий разработаны рекомендации по решению вопросов охраны труда в технологических картах, безопасной установки кранов (в привязке к возводимому объекту, установке их вблизи электрических сетей и земляных сооружений, определению границы опасных зон и др.) правильному складированию строительных материалов и конструкций и обеспечению безопасности погрузочно-разгрузочных работ и созданию единой базы паспортизации объектов строительства по республике.

The article deals with the safe use of hoisting machines and mechanisms at construction sites. The analysis of the causes of accidents and violations of the operating rules used cranes in construction abroad and in our country. Based on the analysis of the causes of accidents, recommendations were developed to address labor protection issues in technological maps, the safe installation of cranes (in relation to the facility being built, their installation near electrical networks and earthworks, determining the boundaries of hazardous areas, etc.) with the correct storage of building materials and structures and ensuring safety of loading and unloading operations and the creation of a unified database of certification of construction projects in the republic.

Kranlar va boshqa ko‘tarma mexanizmlar bilan milliard tonnalab yuklar siljiriladi, ular yordamida Respublikamizda millionlab kvadrat metrdagi turarjoy va boshqa obyektlar qurilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti

Sh.M.Mirziyoyevning Oliy majlisga murojaatnomasida aytilganidek joriy yilda “Qishloq joylarida - 17100 ta, shaharlarda – 17600 ta, jami 34700 ta yoki 2016 yilga nisbatan salkam 3 barobar ko‘p arzon va shinam uylar quriladi”, agar bunga sanoat korxonalari va inshootlari qurilishlarini qo‘shib hisoblasak, mamlakatimizda keng ko‘lamli qurilish-bunyodkorlik ishlari rejalashtirilgan [1]. O‘z-o‘zidan ko‘rinib turibdiki bunday obyektlarda qurilish-montaj ishlarini amalga oshirishda xavfsizlik masalalari, shu jumladan kranlar va ko‘tarma mexanizmlardan foydalanish davrida mehnat muhofazasini ta‘minlash masalasi o‘ta muhim va dolzarb masala hisoblanadi.

Qurilish ishlarini bajarishda jahonda sodir bo‘lgan avariylarning ma‘lumotlariga tayanib kranlarning avariyasiga, ishlab chiqarish fondlarining eskirganligi, texnologik tartibot (rejim)ning qoniqarsizligi, qurilish-montaj ishlarini bajarishda xavfsizlik talablarining bajarilmasligi asosiy sabab bo‘la oladi.

Yuqori darajadagi avariylar va jarohatlanishlarning sabablari sifatida ularga xizmat qiluvchi xodimlarning past malakadagi bilimlarga egaligi, yuk ko‘tarish texnikalaridan foydalanish qoidalari va mehnat muhofazasi talablarining qo‘pol ravishda buzilishi oqibatlaridir [2].

Shuning uchun ham, qurilish yo‘nalishidagi mutaxassislarni tayyorlash, ularni uzluksiz professional darajadagi bilim va ko‘nikmalar hosil qilish va qurilishda mehnat muhofazasini bilimlarini tekshirish, xususan kranlar va ko‘tarish mexanizmlari xavflilik darajasi yuqori bo‘lgan qurilish mashinalari sifatida tadqiq qilinib o‘rganilishi katta ahamiyatga ega. Bizning maqsadimiz qurilish-montaj ishlarida ko‘tarma kranlardan foydalanish xavfsizligini ta‘minlash orqali qurilish ishlab chiqarishida ish sharoitini yaratish va insonlar hayotini saqlab qolishga qaratilgan tadbirlar ishlab chiqish uchun tavsiyalar berishdan iborat.

Kranlar, ko‘tarma mexanizmlar va tashish texnikalaridan foydalanishda ishchilarga ta‘sir qiluvchi ishlab chiqarish xavflariga: mehnat sharoitini yaratilmaganligi, ishlab chiqarishda zararlari va xavfli omillari misol bo‘la oladi. Bular o‘z navbatida zararli moddalarning ta‘siri, ishlab chiqarish changi, shovqin va tebranishlar, jismoniy zo‘riqishlar, aqliy zo‘riqishlar, monoton mehnat qilish sharoiti, ish joyining yoritish tizimidagi kamchiliklari, elektromagnit va boshqa xildagi nurlanishlarga bo‘linadi [4].

Buyum va ashyolarni siljitganda, taxlaganda va tashishda balandlikdan tushib ketishi mumkin bo‘lgan xavflar ham bor bo‘lib mexanizmlar bilan bog‘liq faoliyat olib borayotgan ishchilar va xodimlarga ta‘sir etuvchi mehnat sharoitlarining omillari hisoblanib, ularni paydo bo‘lishiga quyidagilar sabab bo‘ladi: mashina va mexanizmlarning harakatlanuvchi qismlarining xavfi, qurilish maydonidagi balandlik sathlarining tez-tez o‘zgarib turishi, elektr tokining xavfi, to‘satdan yong‘in, portlash va avariylar sodir bo‘lishi va insonlarning harakatida xatoliklar,

kasbiy malakasining yetishmasligi, salomatligining yomonligi kabi omillarni keltirish mumkin.

Kranlar va mexanizmlarning qurilish maydonida ularga tegishli va ishchilarga doimo yashirin yoki ochiq ta'sir etuvchi xavfli zonalari mavjud bo'ladi. Doimiy ta'sir etuvchi xavfli zonalarga, elektr o'tkazuvchi simlarning izolyasiyalanmagan qismlariga yaqin joylar, to'siq bilan chegaralanmagan 1,3 m dan balandlikkka farq qiluvchi joylar, zararli moddalarning yo'l qo'ysa bo'ladigan chegaraviy miqdolaridan oshiq bo'lgan joylar kiradi.

Potensial (yashirin) xavfli ishlab chiqarish omillariga qurilayotgan bino yoki inshootlarga yaqin joylar, konstruksiyalarni montaji yoki demontaji olib borilayotgan bitta qamrov huddidagi bino qavati yoki yarusi, mashina yoki ko'taruvchi qurilma va ularning qismi, ishchi organlarining siljuvchi zonasi, ko'tarma kranlar bilan qurilish maydonida yuklarni siljitishdagi hududlari kiradi.

Kranlardan foydalanish borasidagi statistik ma'lumotlar [2] va jahon tajribasidan kelib chiqqan holda shu narsa ma'lumki, kranlar va ko'tarma mexanizmlar va avtotransportlardan foydalanishda avariylar va baxtsiz hodisalarning asosiy sabablari quyidagilardan iborat bo'ladi:

- kranlar va ko'tarma mexanizmlarini noto'g'ri tanlash va ularni binoga noto'g'ri bog'lash (o'rnatish);
- kranlar va ko'tarma mexanizmlarining xavfli zonalari chegarasini noto'g'ri aniqlanishi;
- kranlar va ko'tarma mexanizmlarini xavfli zonalarida mehnat xavfsizligini ta'minlashning yetarli emasligi;
- kerak paytida kranlarning xavfli zonasi chegarasini yo'qligi yoki chora tadbirlarning ishlab chiqilmasligi;
- kranlarni elektr tarmoqlari va qazilma inshootlari yonida o'rnatish qoidalariga rioya etilmasligi;
- qurilish maydonida materiallar, qurilmalar, buyumlar va jihozlarni taxlash qoidalarining buzilishi;
- ortish-tushirish ishlarini olib borish qoidalarining buzilishi.

Bir qarashdan yuqoridagi ko'rsatilgan sabablar yechimlarini ko'zlagan holda ishlab chiqarishning xavfli va zararli omillari ta'sirini oldini olish chora-tadbirlar yig'indisi insonlarni faoliyatlari talab qilingan me'yorlar va qoidalarga mos ravishda olib borilsagina insonlarning xavfsizligi ta'minlanadi, ya'ni

$$\Sigma M_{\text{и.ч.з.}}^{\text{хак}} > \Sigma M_{\text{и.ч.з.}}^{\text{талаб}},$$

bu yerda $\Sigma M_{\text{и.ч.з.}}^{\text{хак}}$ - –xavfli va zararli omillarni oldini olish va himoyalashning chora tadbirlari

amaldagi yig'indisi;

$\Sigma M_{\text{талаб}}^{\text{и.ч.з.}}$ - mehnat xavfsizligini ta'minlashning me'yoriy talablari chora tadbirlari

yig'indisi.

Albatta yuqoridagi shartni bajarish uchun kranlar, ko'tarish mexanizmlari va boshqa qurilmalarni ishlatishda xavfsiz mehnat sharoitlarini maxsus chora-tadbirlar tizimini yaratish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi "Sanoatgeokontekstnazorat" Davlat inspeksiyasi boshlig'ining 14.02.2006 yil № 32 buyrug'iga binoan tasdiqlangan "Ortish-tushirish ishlaridagi ishlarni xavfsiz bajarish QOIDALARI" me'yoriy hujjati, QMQ 3.01.02- 00 «Qurilishda xavfsizlik texnikasi». Qurilish me'yorlari va qoidalari. T. 2000 y., «Davlat sanitar nazorati to'g'risida» qonuni, QMQ 3.01.01-85 "Qurilish ishlab chiqarishini tashkil etish"; GOST 12.3.033-84 SSBT. "Qurilish mashinalari. Foydalanish davrida xavfsizlik talablari", GOST 12.4.059-89 SSBT. Qurilish. Inventar saqllovchi to'siqlar. Umumiy texnik shartlar, GOST 12.4.026-76* SSBT «Xabarlovchi ranglar va xavfsizlik belgilari» talablariga mos ravishda ish sharoitlarini yaratib berilishi kerak.

Kranlar, ko'tarma mexanizmlar va avtotransportlardan foydalanish xavfsizligini ta'minlashning kompleks masalalarni yechimi Ishlarni tashkil etish loyihasi (ITEL) va Ishlarni bajarish loyihalari (IBL) dagi mos keluvchi bo'limlaridagi ishlanmalar orqali ifodalanadi. Ammo Respublikamizdagi ko'pgina qurilish obyektlari texnologik hujjatlar bilan ta'minlanmanligi mehnat muhofazasi talablarini bajarilmasligiga sabab bo'lmoqda.

Yuqoridagi sabablarga tayanib, kranlar, ko'tarma mexanizmlar va avtotransportlardan foydalanish xavfsizligi fikrimizcha quyidagi asosiy vazifalardan iborat bo'ladi:

- 1.Kranni tanlash va uni binoga bog'lash.
- 2.Kran yoki ko'tarma mexanizm ishlayotgan paytida xavfli zonalari chegarasini aniqlash.
- 3.Kranlar va ko'tarma mexanizmlarning xavfli zonalarida xavfsizlikni ta'minlash.
- 4.Kran xavf tug'dirib ishlash paytida xavflarni chegaralash chora-tadbirlarini ishlab chiqish.
- 5.Kranlarni elektr tarmog'i va kotlovanlarga yaqin joylarda xavfsiz o'rnatish;
- 6.Materiallar qurilmalar va jihozlarni xavfsiz joylashtirish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish;
- 7.Ortish-tushirish ishlarini xavfsiz bajarish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish.

Yuqoridagi vazifalarning texnologik xaritalarda o'z yechimlarini topishi va respublikamizdagi barcha qurilish ob'yektlarini mehnat muhofazasi bo'yicha pasportlashtirish orqali yagona elektron bazasi yaratilsa, ular doimiy nazoratda bo'ladi, hamda ob'yektlardagi nafaqat kranlar, shuningdek va boshqa ko'tarma mexanizmlardan foydalanishda xavfsizligini ta'minlashning asosiy omillari bo'lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar

1. Sh.M.Mirziyoyev. 2020 yil 24 yanvardagi Oliy majlisga murojaatnomasi –Kun.uz.
- 2.Безопасность труда на объектах городского строительства и хозяйства при использовании кранов и подъемников. Учебно-методическое, практическое и справочное пособие. Москва. 2005 г.
3. QMQ 3.01.02- 00 Qurilishda xavfsizlik texnikasi. T. 2000 y.
4. O‘zbekiston Respublikasi “Sanoatgeokontexnazorat” Davlat inspeksiyasi boshlig‘ining 14.02.2006 yil № 32 buyrug‘iga binoan tasdiqlangan “Ortish-tushirish ishlaridagi ishlarni xavfsiz bajarish QOIDALARI”

УДК 691 : 327 : 666

БИНОЛАР ТАШҚИ ДЕВОРЛАРИНИНГ ЭНЕРГИЯ САМАРАДОРЛИГИ

Шукуров F.Ш., Кулмирзаев Ж.

Самарқанд давлат архитектура-қурилиш институти

В данной статье приведены результаты теоретических и экспериментальных натурных теплофизических исследований в моделях наружных стен с различными конструктивными решениями для повышения уровня тепловой защиты и энергоэффективности жилых и общественных зданий.

This article presents the results of theoretical and experimental full-scale thermo-physical studies in models of external walls with various structural solutions to increase the level of thermal protection and energy efficiency of residential and public buildings.

Ҳозирги даврда бутун дунёда табиий ёқилғи энергия захираларини тежаш, ер атмосферасида парник эффектини ҳосил қилувчи газларни (CO₂) камайтириш, атмосферани экологиясини асраш ва энергия самарадор бино ва иншоотлар қуриш долзарб масалалардан бири бўлиб қолмоқда. Бу масала Ўзбекистон республикаси президенти Ш. М. Мирзиёев томонидан ишлаб чиқилган “2017-2021 йиллар Ўзбекистонни ривожланиш ҳаракатлар стратегиясида” ҳам кўзда тутилган.

Иссиқлик энергиясини 50-60 % фойизи бино ва иншоотларни иситиш ва одамларнинг маиший эҳтиёжларини кондириш учун сарф бўлар экан. Биноларни иситиш учун сарф бўлаётган иссиқлик миқдорининг 40-50 фойизи ташқи деворлар орқали йўқолар экан. Шу сабабли биноларни ташқи деворларини турли конструктив ечимлар орқали, ҚМҚ 2.01.04-97* талабларига асосан, иссиқлик ҳимоясини яъни энергия самарадорлигини ошириш ҳамиша долзарб масалалардан бири бўлиб қолаверади. Шу сабабли ушбу мақолада иссиқлик физик жиҳатдан такомиллаштирилиб, турли конструктив ечимга эга, иссиқлик ҳимояси оширилган ташқи девор намуналарида ўтказилган назарий ва амалий иссиқлик физик тадқиқотлар натижалари келтирилган. Бунда маҳаллий материал


пенобетондан иборат кўп ковакли (24, 36, 40, 48, 60 ва 72 ковакли) кичик блокларни конструктив ечимлари ишлаб чиқилиб қуйма қолип ясалди ва қолиплар ёрдамида кичик блоклар ясалди. Блокларни умумий кўриниши 1-расмда келтирилган.



1-расм. Қирқ ковакли пенобетондан иборат кичик блокларни умумий кўриниши.

Кўп ковакли пенобетондан иборат ташқи деворларни назарий жиҳатдан аниқланган иссиқлик физик хусусиятлари қуйидаги жадвалда келтирилган:

Материал номи	Зичлиги $\gamma, \text{кг/м}^3$	Блокда коваклар сони, N дона	Иссиқлик ўтказувчанлик коэффициенти λ , $\text{Вт/м}^0\text{С}$	Иссиқлик ўзатиш қаршилиги R, $(\text{м}^2\text{С})/\text{Вт}$
Кўп ковакли пенобетондан иборат кичик блок	1000	йуқ	0.41	0.975
-//-	1000	12	0.366	1.09
-//-	1000	24	0.299	1.34
-//-	1000	36	0.266	1.50
-//-	1000	40	0,258	1,55
-//-	1000	48	0.245	1.63
-//-	1000	60	0.215	1.86
-//-	1000	72	0.176	2.267



2-Расм. Кўп ковакли пенобетондан иборат кичик блокларни иссиқлик узатиш қаршилигини коваклар сонига боғлиқлиги.

Назарий иссиқлик физик тадқиқотлар натижасида, биз пенобетондан иборат

кичик блокларни иссиқлик узатиш қаршилгини блокдаги кичик коваклар сонига боғлиқлигини аниқлашни қуйидаги эмпирик формула орқали ифодаладик.

$$R = R_{\text{я.п.}} + 0,015 N$$

Бу ерда, $R_{\text{я.п.}}$ - яхлит пенобетонни иссиқлик узатиш қаршилиги, (м²С)/Вт; N- пенобетондан иборат кичик блокдаги коваклар сони, дона.

Юқорида келтирилган назарий иссиқлик физик тадқиқотлар натижасидан қуйидагиларни хулоса қилиш мумкин:

Назарий тадқиқотлар натижасида аниқланган кўп ковакли кичик пенобетонни иссиқлик узатиш қаршилигидан ва эмпирик формула орқали аниқланган иссиқлик узатиш қаршилигини фарқи 10-15% дан ошмас экан.

Кўп ковакли пенобетондан иборат деворни термик иссиқлик узатиш қаршилиги, яхлит пенобетондан иборат деворни иссиқлик узатиш қаршилигига нисбатан 1.5-2.5 марта ва қалинлиги 1.5 ғишт яъни 38 см. бўлган деворнинг иссиқлик узатиш қаршилигидан 2-3 марта катта экан;

Демак биз тавсия этаётган 12, 24, 40, 48, 60 ва 72 ковакли пенобетондан иборат кичик блоклардан тикланган деворни иссиқлик узатиш қаршилиги, ҚМҚ 2.01.04-97* да келтирилган иссиқлик узатиш қаршилигини иссиқлик ҳимоясини иккинчи ва учинчи даража талабларига жавоб берар экан. Бундай ҳолат энергия самарадор биноларни лойиха қилиш ва қуришга кенг йул очиб беради.

Кўп ковакли Пенобетон блоклардан иборат девор намунаси “Бино ва иншоотлар” кафедраси лабораториясига 2017 йил ноябр ойида ўрнатилди. Ўрнатилган девор намунасида иссиқлик физик жиҳатдан амалий тажрибалар 2018 йил феврал ойида ўтказилди. Тажрибалар натижасида асосий иссиқлик-физик кўрсаткичлардан қуйидагилар аниқланди: 1. Кўп ковакли пенобетон блоклардан иборат девор қатламларидаги ҳарорат; 2.Тажриба ўтказилаётган хонадаги ҳарорат;3.Ташқи ҳаво ҳарорати; 4.Девор намунасида ўтаётган иссиқлик оқими (микдори); 5.Ташқи девор намунасини ташкил этган қатлам материалларини иссиқлик ўтказувчанлик коэффициенти.

Тадқиқотлар натижасидан маълум бўлдики кўп ковакли кичик пенобетондан иборат девор намунасида тажрибада аниқланган умумий иссиқлик узатишга қаршилиги $R_y = 2.92 \text{ (} \cdot \text{м}^2 \cdot ^\circ \text{С)} / \text{Вт}$, экан.

Демак қирқ ковакли кичик пенобетондан иборат девор намунасини иссиқлик узатиш қаршилиги $2.92 \text{ (} \text{м}^2 \cdot ^\circ \text{С)} / \text{Вт}$ бўлиб, ҚМҚ 2.01.04-97* да келтирилган иссиқлик ҳимоясини биринчи, иккинчи ва учинчи даража талабларига жавоб беради. Бундай блокларни амалиётда қўлланиши қурилаётган турар жой ва жамоат биноларини ташқи деворларини энергия самарадорлигини оширади.

Адабиётлар

1. Шукуров Ғ., Исломова Д. Ғ. Қурилиш физикаси. Дарслик, “Янги аср авлоди”. Тошкент 2018 й. 226 с.
2. Фокин К. Ф. Строительная теплотехника ограждающих частей здания. Москва. «Стройиздат», 1973 г. 286 с.
3. ҚМҚ 2.01.04-97* Қурилиш иссиқлик техникаси. Тошкент, 2011й.

УДК 534.8 : 624

ШАҲАРСОЗЛИҚДА ШОВҚИНГА ҚАРШИ АРХИТЕКТУРАВИЙ КОНСТРУКТИВ УСЛУБЛАР

*Шукуров Ғ., Шукуров А. Ғ., Исламова Д.Ғ.
Самарқанд давлат архитектура-қурилиш институти*

В данной статье приведены некоторые архитектурно-планировочные методы борьбы с шумом в градостроительстве. Показано одним из наиболее эффективных способов защиты жилой среды от транспортного шума, строительство домов-экранов вдоль транспортных магистралей. В качестве примера использован семиэтажный жилой дом построенный в г. Самарканде и определен эффективность снижения шума зданием, являющимся экраном для расчетной точки.

This article presents some architectural and planning methods of noise control in urban planning. Shown by one of the most effective ways to protect the living environment from traffic noise, the construction of screen houses along transport highways. As an example, we used a seven-story residential building built in Samarkand and determined the noise reduction efficiency of the building, which is a screen for the calculated point.

Шаҳарсозликда шаҳар кўча ва йўлларида ҳаракатланаётган транспорт воситалари асосий шовқин манбаи бўлиб ҳисобланади. Бундан ташқари шаҳар қурилишида темир йўл поездлари, ҳаво транспорти воситалари, трансформаторлар ва турар-жой бинолари тўпланган жойлардаги шовқин манбалари ҳам эътиборга олинishi лозим.

Йирик шаҳарларда кўча шовқини йилига ўртача 1 дБ га ортиб борар экан. Ўзбекистон ривожланган мамлакатлар каторига кириб борар экан, бу

кўрсаткич республикамизнинг катта шаҳарларида яқин 15-20 йил сақланиб қолади. Демак, Ўзбекистоннинг магистрал кўчаларида ҳам 2020-2030 йилларга келиб кўча шовқини 7-10 дБ га ошиши мумкин. Шу сабабли шаҳар ва яшаш массивларини лойиҳа қилишда, ҳамда шаҳар қурилишида шовқинга қарши кураш актуал масалалардан бири бўлиб қолаверади.

Агар барча транспорт воситаларидан чиқаётган шовқин сатҳини пасайтириш иложи бўлганда, шаҳар қурилишида шовқинга қарши кураш масаласи ҳал бўлган бўлар эди. Хорижий мамлакатлар олимларининг тадқиқотлари шуни кўрсатмоқдаки, ушбу масаланинг тўла-тўқис ечими яқин йиллар атрофида ҳал бўлмас экан.

Москва шаҳридаги “Шимолий Чертаново” яшаш массиви лойиҳаси ва қурилишида бу масалага бошқача ёндошилган. Бунда барча инженерлик иншоотлари, трансформатор подстанциялари ва автомобил йўлларининг бир қисми ер остига жойлаштирилган. Шу сабабли бу яшаш массивининг аҳолиси шаҳар шовқинидан деярлик ҳимоя қилинган [2].

Шаҳардаги барча шовқин манбаларини ҳисобга олган ҳолда, кутилаётган шовқин сатҳидан келиб чиққан тарзда архитектуравий-тарҳий ва қурилиш-акустикасининг услублари ёрдамида шовқинга қарши тадбирлар кўриш мумкин. Шовқинга қарши курашда қуйидаги тадбирлар қўлланилади:

1. Шовқин манбаининг ўзида; 2. Архитектуравий-тарҳий. Бунда аҳоли яшамайдиган бинолардан экран, шовқиндан ҳимояланган экран-бинолар, тўсиқ-экран, ихота дарахтлар ва бошқалардан тўсиқ сифатида фойдаланилади;

3. Қурилиш-акустикаси услуби ёрдамида. Бунда дераза ва ташқи тўсиқ конструкция сифатида товуш изоляцияси юқори бўлган материал ва конструкциялар қўлланилади.

Шаҳар қурилиши лойиҳасининг барча босқичларида яшаш массивлари ва яшаш биноларини шовқиндан ҳимоя қилишнинг чора-тадбирлари кўрилган бўлиши лозим. Демак, шаҳарнинг бош тарҳи лойиҳасининг бошланғич босқичида ва келажакдаги ривожланишини эътиборга олган ҳолда қуйидагиларни ҳисобга олиш лозим: аэропорт транспорт коммуникациялари; яшаш массивларини жойлаштириш; кўкаламзор ва ободонлаштириш; келажакда қурилиши кўзланган майдонлар; саноат корхоналари; маъмурий ва маиший хизмат кўрсатиш биноларини жойлаштириш; жамоат ва дам олиш - истироҳат боғларини яратиш ва бошқалар шулар жумласидандир. Буларнинг барчасини шаҳар қурилишида шундай табиий жойлаштириш лозимки, улар ўзининг таркибий гуруҳи, мақсадга мувофиқлиги, ҳажмий ва тарҳий ечимлари, бадиий-архитектуравий услублари билан шаҳарни шовқиндан самарали ҳимоя қилиш билан биргаликда меъёрий акустик муҳит яратиш учун хизмат қилсин. Бунинг учун шаҳар ва яшаш массивларини лойиҳа қилишда ишлатилиши ва мақсадга мувофиқлиги бўйича майдонларга ажратиб, чегаралаб чиқиш лозим:

Масалан: яшаш массиви, саноат райони, маиший-хизмат майдонлари ва ташқи транспорт.

Буларнинг ҳар бирида рухсат этилган шовқин сатҳи турличадир. Шу сабабли катта транспорт оқимида эга магистрал кўчалар яшаш массивларини кесиб ўтмаслиги керак. Шаҳарларда транзит юк поездларини тўхтовсиз ўтказиб юбориш учун айланма темир йўллар кўзда тутилган бўлиши лозим.

Янги темир йўл ва темир йўл бекатлари билан яшаш массивларини ҳимоя полосаси билан ажратиш керак. Масалан, биринчи ва иккинчи категорияли темир йўллар учун ҳимоя полосасини эни 200 метр, III ва IV категория учун 150 м ва бошқа темир йўлларда 100 м дан кам бўлмаслиги керак. Бу масофа четки темир йўл ўқидан бошлаб ҳисобланади. Агар акустик ҳисоблар натижасида асослаган бўлса, бу масофа 50 метрдан кам бўлмаслигига рухсат этилади.

Шовқиндан ҳимоя тадбирлари қўрилмаган яшаш массивларидан тезкор магистрал кўчанинг четигача бўлган масофа 100 м дан, шаҳарлараро магистрал кўчаларда 75 м дан, туманлараро магистрал кўчаларда 50 м дан ва бошқа кўчаларда 25 м дан кам бўлмаслиги керак. Бошқа ҳолатлар учун бу масофа ли равишда асосланган бўлиши лозим.

Яшаш массивларидаги биноларни транспорт ва бошқа шовқин манбаларидан ҳимоя қилиш учун энг самарали тадбир тўсиқ ва экранлар ҳисобланади.

Экранлар ёрдамида шовқин сатҳи пасайишининг аниқ ҳисоби мураккаб бўлганлиги сабабли, амалий услуб ёрдамида аниқлаш мақсадга мувофиқ ҳисобланади. Бу ҳисоб қуйидаги тартибда бажарилади.

Маълум масштабда шовқин манбаи жойлашган майдоннинг тарҳи ва кўндаланг қирқими чизилади. Шу чизмага экран ва шовқин аниқланаётган ҳисобий нуқта ҳам чизилади. Бу схема 1-расмда кўрсатилган.

Шовқин манбаи энг четки транспорт ҳаракати полосасида бўлиб, кўча с ҳидан 1 м баландда жойлашган деб олинади. 1-расмга асосан а, в ва с масофалар аниқланади. Бунда $\delta = (a+b)-c$. δ га боғлиқ ҳолда экран ёрдамида товуш сатҳининг пасайиши, $L_{\text{Аэкp}}$ аниқланади.

Қабул қилинган экран узунлигига боғлиқ ҳолда шу расмдан α_1 ва α_2 бурчак аниқланиб, товуш сатҳининг пасайиши $\Delta L_{\text{Аэкр}1}$ ва $\Delta L_{\text{Аэкр}2}$ лар (1,2 иловасидан) қабул қилинади. Иловадан $\Delta L_{\text{Аэкр}}\alpha_1$ ва $\Delta L_{\text{Аэкр}}\alpha_2$ катталикларни фарқида асосланган ҳолда тузатиш қабул қилинади. Бу тузатиш кўрсаткичи кичик бўлган товуш сатҳига қўшилади.


$$\Delta L_{\text{Аэкр}} = \Delta L_{\text{Аэкр}} \alpha_1 + L, \quad (1)$$

бу ерда $\Delta L_{\text{Аэкр}}$ - экран конструкцияси ёрдамида ҳисобий нуқтада товуш сатҳи пасайишининг самарадорлигини кўрсатади.

Мисол тариқасида, экран сифатида Самарқанд шаҳрида қурилган етти қаватли турар жой бинолари ортидаги ҳисобий нуқталарда шовқин сатҳининг самарали пасайишини аниқлаймиз. Ҳисобий нуқта бино ортида жойлашган

бўлиб, бу схема 2-расмда кўрсатилган. расмдан а, в ва с масофаларини аниқлаймиз. $a=42$, $b=50$ м ва $c=77$ м; бундан $\delta = (42+50)-77 = 15$ м. Қурилиш физикаси номли дарсликни(1) 30-иловасидан $L'_{\text{Аэкp}} = 24$ дБА, бунда $\delta > 6$ учун энг катта кўрсаткич қабул қилинади. $\alpha_1=40^\circ$ ва $\alpha_2= 70^\circ$ Шу иловадаги жадвалдан $\Delta L_{\text{Аэкp}} \alpha_1=2,7$ дБА, $\Delta L_{\text{А экp}} \alpha_2 =10,2$ дБА. Буларнинг фарқини аниқлаймиз. $\Delta L_{\text{А экp}} \alpha_2 - \Delta L_{\text{Аэкp}} \alpha_1 = 10,2-2,7 = 7,5$ дБА. (1)-иловадаги жадвалдан тузатма $L = 2,3$ дБА эканлигини аниқлаймиз. Экран самарадорлигини аниқлаймиз. $\Delta L_{\text{А экp}} = \Delta L_{\text{Аэкp}} \alpha_1 + L = 2,7+2,3= 5,0$ дБА.

Демак, ҳисобий нуқтада шовқин сатҳи 5,0 дБА га пасаяр экан.



1-расм. Бино ёрдамида товуш сатҳи пасайишини аниқлаш схемаси.

Агар ҳисобий нуқта бинонинг тенг иккига бўлиб ўтувчи геометрик ўқида ётса шовқин сатҳини самарали пасайиши 6,2 децибелга тенг бўлар экан.

Юқорида келтирилган назарий тадқиқотлардан қуйидагиларни хулоса қилиш мумкин:

- Транспорт магистраллари ёнида жойлашган яшаш массивларини шовқиндан ҳимоя қилишнинг энг самарали услуби бинолардан экран сифатида фойдаланишдир;

- Агар турар жой биносидан экран сифатида фойдаланилса, бинонинг асосий деразали қисми, ётоқхоналар ҳовли томонга қараган бўлиб, умумий хона ва бошқалар транспорт магистралли тарафга жойлаштириб, уларни шовқин изоляциясини кучайтурса мақсадга мувофиқ бўлади;

- Шаҳар қурилишида япроқ баргли ихота дарахтлар ёрдамида ҳам шовқин даражасини пасайтириш мумкин. Жумладан эни 10 метр бўлган кўкаламзорга экилган, баландлиги 5-8 метр бўлган япроқ баргли дарахтлар шовқин даражасини 4 дан 12 децибелгача пасайтириш мумкин экан[2]. Демак акустикани архитектуравий конструктив ва кўкаламзорлаштириш услублари биргаликда қўлланилса яшаш массивида шовқин даражасини 20 -25 децибелгача пасайтириш мумкин. Бундай ҳолат шаҳарларда меъёрий акустик муҳит яратилишига сабаб бўлади.

Адабиётлар

1. Шукуров Ғ. , Исламова Д. Ғ. Курилиш физикаси. Дарслик – Тошкент, “Янги аср авлади” 2018 й. 220 с.
2. Ковригин С. Д. Архитектурно строительная акустика. Москва, “Высшая школа» 1980 г.
3. ҚМҚ 2.01.08-98. Шовқиндан ҳимоя. Тошкент, 1998 й.
- 4.

ЭНЕРГИЯ САМАРАДОР ТАШҚИ ТЎСИҚ КОНСТРУКЦИЯЛАР ХАМЁНИНГИЗ ТЕЖАЛИШИНИНГ ГАРОВИДИР

*Носирова С.А., Рустамова Д.Б., Эгамова М.Т.
Самарқанд давлат архитектура-қурилиш институти*

В данной статье рассмотрены проблемы, связанные с энергоэффективными наружными ограждающими конструкциями зданий и их решениями, а также результаты исследования по снижению энергопотребления в зданиях.

This study examined the problems associated with energy-efficient building envelopes and their solutions, as well as studies to reduce energy consumption in buildings.

Самарқанд шахрида охири йилларда хусусий тадбиркорлар томонидан кўплаб кўп қаватли турар-жой бинолари, меҳмонхоналар, ресторанлар, хусусий клиникалар, боғчалар ва маъмурий бинолар қурилиб фойдаланишга топширилди. Эътиборли жиҳати бундай турар-жой ва жамоат биноларининг аксариятида чордоқдан унумли фойдаланилаётганига гувоҳ бўлмоқдамиз. Бошқача қилиб айтганда мансардали бинолар бугунги кунда урфга айланди. Ташқаридан қараганда бундай бинолар шаҳар кўркига кўрк қўшаётгани ҳамда одамларни завқлантираётгани рост гап.



1-расм. Мансардали кўп қаватли турар-жой биноси

Аммо, одамни афсуслантирган томони шундаки, қурилиб фойдаланишга топширилган кўплаб бундай турар жой ва жамоат

биноларидаги ташқи тўсиқ конструкцияларининг энергия самарадорлигига аниқроқ қилиб айтадиган бўлсак мансардли биноларнинг том конструкциясининг энергия самарадорлигига совуққонлик билан қаралганлигидир. Кузатишлар жараёнида мансардли биноларнинг том конструкциясида иссиқлик ҳимоя қатлами сифатида қалинлиги 5-10 см бўлган сомонли-лой сувоқдан ёки қалинлиги 2-5мм бўлган юзасида фольга ёпиштирилган ППИдан фойдаланилганлигига амин бўлганмиз. ҚМҚ 2.01.04-97*- Қурилиш иссиқлик техникаси ҳамда қурилиш физикасидан маълумки сомонли-лой сувоқ иссиқлик ҳимояловчи қурулиш materiali ҳисобланмайди, қолаверса унинг оғирилини инобатга олсак, уни кўтариб туруши учун том конструкцияларини кучайтириш талаб этилади, бу эса ортиқча сарф-харажатга олиб келади [1, 2].

Юқоридагиларни инобатга олган ҳолда ёзнинг иссиғидану-қишнинг совуғидан ҳимояловчи, уйда микроклимат шароитини яратувчи, енгил оғириликка эга энергия самарадор том конструкциясини яратиш кетма-кетлигини кўриб чиқамиз:

- биринчи навбатда томнинг юк кўтарувчи материал ёғочдан бўлса, уларга оловдан ҳамда ҳашаротлардан ҳимояловчи (огне-биозащита) суюқ қоричмалар суртиш зарур;

- стропилалар ўрнатиб бўлгандан сўнг, ички томондан стропилаларга перпендикуляр равишда тепадан пастга қараб буғдан ҳимояловчи (пороизоляция) мембраналар степлер ёрдамида стропилаларга қоқиб чиқилади. Иккинчи қатор мембраналарни юқори учи, биринчи қатор мембраналарни пастки учи устига (10-15см) кийдирилади ҳамда уларнинг орасига икки томонлама елим қоғоз (скотч) ёпиштирилиб бир-бири билан бириктирилади;

- кейинги қиладиган ишимиз иссиқлик сақловчи материалларни стропилалар орасида жойлаштириш ҳисобланади. Иссиқлик сақловчи материаллар хонада микроклимат шароитини яратишда асосий ролни ўйнайди. Иссиқлик сақловчи материал сифатида момиқ ватталардан (минватта) фойдаланиш энг мақбул ечимдир. Сабаби бундай материаллар ёнмайдиган материал қаторига кириб, енгил ҳамда иссиқлик ўтказувчанлик коэффиценти кичик, демак, $\lambda_0=0,035-0,04 \text{Вт/м}^\circ\text{С}$. Иссиқлик сақловчи қатлам қалинлиги иссиқлик-физик ҳисоблашлар натижасида аниқланади. Иссиқлик сақловчи материалларни шахмат шаклида жойлаштириш маъқул. Агар ёғоч стропила ўрнида металл прокатлардан фойдаланилган бўлса иссиқлик ҳимояловчи материалнинг пастги бир қатлами металл стропиланинг пастидан ўтиши лозим. Шу йўл орқали совуқлик кўприги ҳосил бўлишини олдини олган бўламиз;


- иссиқлик сақловчи материални ўрнатиб бўлгандан сўнг

ёғоч стропила устидан шамол-намдан ҳимояловчи мембрана ёғоч стропилаларга қоқиб чиқилади. Мембрана ёғоч стропилага перпендикуляр равишда пастдан тепага қараб степлер ёрдамида қоқилади. Иккинчи қатор мембрананинг пастки учи, биринчи мембрананинг юқори учи устига кийдирилади (10-15 см) ҳамда уларнинг орасига икки томонлама елим қоғоз (скотч) ёпиштирилиб бир-бири билан бириктирилади;

– сўнгра кесими 5х5см дан кичик бўлмаган ёғоч рейкаларни (контробрешетка) стропилаларнинг устидан уларга параллел равишда ўрнатамиз. Бундай рейкаларни ўрнатишдан асосий мақсад, сув ўтказмайдиган материал ва шамол –намдан ҳимояловчи (ветро-влага защитный) мембрана орасида шамоллатиш каналини ташкил қилишдир. Шу йўл орқали ёзнинг иссиқ даврида сув ўтказмайдиган қатлам (профнастил, металлочерепица ва ҳ.к.) орқали хонага иссиқ ҳаво оқимини камайтирган бўламиз;

– охириги ишимиз сув ўтказмайдиган қатламни ўрнатиш учун ёғоч стропилаларга перпендикуляр равишда ёғоч рейкалар қоқилади ҳамда унинг устидан сув ўтказмайдиган материал (профнастил, металлочерепица ва ҳ.к.) ўрнатилади.

Қуйидаги расмлар орқали энергия самарадор том конструкциясини



кўришингиз мумкин.

2-3-расмлар. Тавсия этилаётган энергия самарадор том конструкциясининг кўриниши (тузлиши)

Изоҳ ўрнида шуни таъкидлаш лозимки энергия самарадор том конструкциясида қўлланиладиган барча қурилиш материалларини маҳаллий қурилиш материаллари бозорлари ва дўконларидан топиш мумкин.

Фойдаланилган адабиётлар

1. С.М.Матъязов, С.А.Носирова, Х.Р.Джалилов, М.И.Диярова “Мансардли биноларда энергия самарадор том конструкцияларини қўллаш” мавзусидаги VIII-илмий-амалий конференциясининг материаллари. 2017 йил.
2. Шукуров Ғ.Ш., Байзаков А.А., Диярова М.И. “Мансардли турар-жой биноларни том

ёпмасини иссиқлик ҳимоясини ошириш”. “Архитектура ва қурилиш соҳаларида инновацион технологияларни қўллаш истикболлари” мавзусидаги халқаро илмий-техник конференция материаллари., Самарқанд.27-28 май 2016 й.

3. ҚМҚ 2.01.04-97*. Қурилиш иссиқлик техникаси. – Тошкент: 2011.

BINOLAR ISITISH TIZIMLARINI HISOBLASH VA LOYIHALASHDA KOMPYUTER DASTURLARINING TURLARI

Saydullayev S.R.

Jizzax politexnika instituti

Kompyuter dasturlari haqida ma’lumot. Bugungi kunda ko‘pgina avtomatlashtirilgan loyihalash sistemalari va dasturlari mavjud. Arxitektorlar uchun Allplan Arxitektura, AutoCAD, ArchiCAD, 3D-max loyihalash sistemalarida, konstruktorlar uchun LIRA, SCAD, Allplan, Konstruirovanie dasturlarida, muhandislik kommunikatsiyalari jixozlarini loyihalash va hisoblashda esa **Valtec, Instal-Therm HCR, Kan, Audytor C.O., Raucad, Herz, C.O., Potok va Epanet** dasturlari yordamida xisoblash ishlarini amalga oshirish mumkin.

Suv ta’minoti, shamollatish va isitish tizimlari mutaxassislari bu sohadagi rivojlanishda chetda qolmasliklari kerak. Ular ham boshqalar qatori kuchli avtomatlashtirilgan loyihalash tizimiga ega bo‘lishni hohlaydilar. Bunday mahsulotlar qatorida «**Nemechek**» (Germaniya) Konserni taklif qilayotgan Allklima dasturi ham mavjud.

Isitish tizimlarini loyihalashda har bir bosqich uchun kompleks yondashuvni talab etadi. Birinchi navbatda issiqlik ta’minotining aniq ko‘rsatkichlarini hisoblab chiqish zarur. Buning uchun binolar isitish tizimlarini hisoblash va loyihalashda qo‘llaniladigan kompyuter dasturlaridan foydalanish tavsiya etiladi.

Isitish tizimini hisoblash dastur ta’minotiga qo‘yiladigan talablar. Nima uchun mutaxassislar isitish tizimini loyihalashda kompyuter dasturidan foydalanishni tavsiya qiladi?

Dastur ta’minotining bunday ko‘rinishi tizimning xarakteristikalarini aniqlash uchun xizmat qiladi, xuddi shunday ba’zi holatlarda turli xil vaziyatlarni modellashtirish imkoniyatini yaratadi.

Isitish tizimini hisoblash dasturlari bajarishi kerak bo‘lgan bir qator talablar mavjud, ulardan eng asosiysi aniq tizim uchun hisoblashning to‘g‘ri usuli tanlangan bo‘lishi kerak. Chunki pol orqali isitish tizimining asosiy xarakteristikalarini havoni isituvchi muxandislik tizimlarnikiga moslashtirish mumkin emas. Dastur ta’minotining funksiyalarida har bir isitish tizimi turi uchun hisoblash tizimi yaratilgan bo‘lishi kerak.

Undan tashqari, isitish tizimini loyihalovchi dastur quyidagi xususiyatlarga ega bo‘lishi kerak:

- dastur interfeysi intuitiv ravishda tushuniladigan bo‘lishi kerak. Birinchi navbatda bu talab yuqori malakaga ega bo‘lmagan mutaxassislarga mo‘ljallangan va bepul tarqatiladigan dasturlarga ta’luqli. Har bir

foydalanuvchi dasturning imkoniyatlarini mustaqil ravishda bimalol o'zlashtira olishi kerak;

- ma'lumotlar bazasi yaratilganligi. Bu ma'lumotlarga quvur materiali xarakteristikalar, radiatorlar turlari, isitish qazonlari turlari va hokozolar kiradi;
- natijalarning sodda ko'rinishda olinishi.

Natijalar ikkita – jadval va grafik ko'rinishlarda bo'lishi kerak. Har bir dastur isitish tizimi sxemasini yaratish uchun natijalarni tayyor loyiha ko'rinishida vizuallashtirish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak. Maxsus Kompyuter dasturlari yordamida olingan hisob natijalari yaratiladigan isitish tizimi to'g'risidagi to'liq ma'lumotlar bo'lishi kerak. Ularga gidravlik hisobi, harorat hisobi, quvurlarni joylashtirish tartibi sxemasi va isitish uskunalarning o'rnatilish joylari kiradi.

Isitish tizimlari dasturlari tahlili. Isitish ta'minoti uchun dastur tanlash uning ishlash sharoitini aniqlashdan boshlanadi. Ba'zi holatlarda tanlangan uchastkalarda gidravlik hisobni bajarish etarli bo'ladi. Ammo murakkab isitish tizimlarini loyihalash uchun maxsus isitishni yasaydigan dasturlar talab qilinadi.

Ishlash sharoitini aniqlanilgandan keyin dastur ta'minotini to'g'ri tanlash lozim. Isitish tizimini loyihalovchi ayrim shartli bepul dasturlar foydalanishda vaqtinchalik cheklangan bo'ladi. Muddati tugagandan keyin bajaradigan ishi qisman yoki to'liq cheklanadi.

Hisoblashlarning mosligini ta'minlash uchun bir nechta dasturlardan foydalanish talab etiladi. Ularning qatoriga quyidagi majmualar kiradi:

- **Valtec PRG 3.1.3 dasturi** - Uning asosiy funksiyasida barcha turdagi qurilish materiallarining turlari, xususiyatlari va xarakteristikalar haqidagi ma'lumotlar bilan ta'minlashdan iborat. Undan tashqari suv ta'minoti, oqava suvlar tizimi ko'rsatkichlarini hisoblashni amalga oshiradi.

- **Valtec CO dasturi**-Bu dastur isitish tizimini loyihalashda tengi yo'q dastur hisoblanadi. Uning yordamida binoda issiqlik yo'qotilishini hisoblash mumkin, natijada issiqlik ta'minoti tizimida jixozlarni joylashtirishning optimal quvvati aniqlanadi.

Issiqlik texnikasi va gidravlik hisoblash VALTEC.PRG.3.1.3dasturi.

VALTEC.PRG-dasturi ochiq foydalanish huquqiga ega bo'lib, suvli isitish tizimradiator yordamida, zamin orqali issiqlik berish va devor orqali isitishni, binonalarining issiqlik miqdoriy talabini, sovuq va issiq suvning kerakli sarfxarajatlarini, kanalizatsiya drenajlarini hisoblab chiqish va ob'ektning ichki issiqlik va suv ta'minoti tarmoqlari uchun gidravlik hisoblarni olish imkonini beradi. Bundan tashqari, foydalanuvchi o'zi tomonidan yaratgan hisobiy materiallarini to'plashni ta'minlaydi. Foydalanuvchilarga qulay interfeys tufayli dasturni ta'minlash va dizayn muhandisining malakasiga ega bo'lish shart emas. Dastur muhandislik tizimlari (moslik sertifikatini) loyihalash va o'rnatish bilan bog'liq bo'lgan bir qancha davlatlardagi normativ hujjatlari talablariga javob beradi.

Issiqlik tizimlarini loyihalash bo'yicha VALTEC C.O.3.8. dasturi.

VALTEC C.O. - Polsha kompaniyasi SANKOM Sp. tomonidan ishlab chiqilgan VALTEC uskunalari va jixozlaridan foydalangan holda, radiatorli isitish tizimi va yerdan polli isitish tizimlarini loyihalash, o'rnatish bo'yicha dizayn va grafik dasturlariga moslashtirilgan. Audytor C.O-3.8.ning so'nggi versiyasiga asoslangan. Programma issiqlik tizimlarini loyihalash va tartibga solish, gidravlik va termal hisoblarni ishlab chiqarish imkonini beradi.

Instal-Therm HCR dasturi. Bu xususiy uylarni isitish tizimini loyihalash dasturi kengaytirilgan funksiyalarga ega, uning interfeysi foydalanuvchiga tushinarli qilib yaratilgan. Nafaqat issiqlik ta'minoti, balki suv ta'minoti va shamollatish tizimlarini loyihalovchi qo'shimcha modullarining mavjudligi dasturning imkoniyatlarini kengaytiradi.

Dastur ta'minoti bilan ishlash uchun dastlab boshlang'ich ma'lumotlarni kiritish kerak bo'ladi. Buning uchun aksonometrik joylashtirish yoki proektsiyadan foydalanish mumkin. Boshlang'ich ma'lumotlar kiritilgandan keyin hisoblanayotgan ko'rsatkich tanlanadi. Ushbu kompyuter dasturi xususiy uylarning isitish tizimini loyihalashda tizimning aniq xarakteristikasini hisoblab berishi yoki kompleks loyihalashni amalga oshirishi mumkin:

- Tizimning ma'lum uchastkasida quvurning optimal diametrini aniqlash. O'rnatilgan radiator va isitish qozonini e'tiborga olgan holda magistralda bosimni stabilashtirish;
- Berkituvchi armaturalarni tanlash-mufta, troyniklar (uchtaliklar), fasonli vaulovchi qisimlar. Isitish tizimlarini loyihalovchi barcha dasturlar quvur materialiga bog'liq bo'lgan ushbu funksiyalarga ega bo'lishlari kerak.
- Gidravlik hisob;
- Reduktor va bosim reduktorlari xarakteristikalarini hisoblash;
- Magistral uchastkalarida oqimlar sirkulyatsiyasi ko'rsatkichlarini modellashtirish, boshqarish elementlarni tanlash;

Isitish tizimini loyihalash uchun dasturga zamonaviy talablar kiritilgan bo'lishi lozim, xususan ShNK va QMQ talablarini o'z ichiga olishi zarur.

Rossiya mutaxassislari tomonidan yaratilgan «Potok» dastur kompleksi alohida qiziqish uyg'otadi. U isitish ta'minoti tizimining asosiy ko'rsatkichlarini hisoblashda katta imkoniyatga ega. Ammo bu dasturning isitishni hisoblashda o'ziga xosligi uning universalligida.

Bu dastur ta'minoti bir quvurli, ikki quvurli, turli tizimlarni modellashtirish va ishchi sxemalarini yaratishga mo'ljallangan. Pol orqali suvli isitishni loyihalash funksiyasi katta ahamiyatga ega. Maxsus dasturlardan farqli ravishda "Potok" dasturi hisoblash ishlarini amalga oshirishda haqiqatdan ham universal hisoblanadi. Unga bir nechta ishlab chiqaruvchi kompaniyalarning muhandislik jixozlari, materiallar, quvurlar va issiqlik ta'minoti qisimlari ko'rsatkichlari ma'lumotlari kiritilgan. Issiqlik ta'minoti tizimini yasashda dasturdan foydalanishning afzalliklari quyidagicha:

- isitish tizimining barcha turlarini hisoblash uchun uskunalarning

mavjudligi;

- olingan natijalarning keyingi o'rinda qayta ishlash uchun AutoCad dasturiga moslashtirilganligi yoki Word formatida saqlab olinishi;

- isitish sarfini hisoblash har bir kvartira uchun, avtonom isitish tizimi uchun qisman va to'liq moliyalashtirish sxemasini hisoblash imkoniyati mavjudligi;

- ko'p qo'shimcha funksiyalarga ega. Bu dasturda issiqlik tarmog'ida antifriz yordamida ishlaydigan isitish tizimini yaratish mumkin. Dastur ta'minoti uning tarkibi va ekspluatitsiyada foydalanish sifatini ham e'tiborga oladi.

Herz C.O.dasturi. Ushbu dastur hozirgi davrda isitish sxemasini yaratishda eng qulay bo'lgan kompyuter dasturi hisoblanadi. Bu dasturning boshqa dasturlardan asosiy farqi uning grafik interfeysida. Bunda issiqlik ta'minoti jixozlarini joylashtirish bilan bir qatorda sovitish tizimlarining hisobini ham bajarishni amalga oshirish imkoni mavjud. Hususiy uylarda isitish tizimlarini loyihalash, jixozlarni joylashtirish quvurlarni o'rnatish va diametr o'lchamlarini tanlashda ushbu dasturdan foydalanib yuqori darajadagi aniqlikda gidravlik hisob ko'rsatkichlariga ega bo'linadi. Buning uchun dastlab dastur menyusini aniq hisoblashlarga moslashtirib olish lozim. Yaxshisi ma'lumotlar bazasini yaratuvchining saytidan ko'chirib olgan ma'qul. Dastur o'rnatilganidan va boshlang'ich ma'lumotlar kiritilganidan so'ng dastur yordamidaxar qanday binolarning issiqlik ta'minoti tizimini quyidagi kriteriyalar bo'yicha hisoblashni bajaradi:

- quvurning optimal diametrlarini tanlash;
- o'rnatilgan uskunalarga bog'liq ravishda suv sarfini aniqlash;
- tizimning uchastkalarida bosimning maksimal va minimal yo'qotilishi;
- magistralning ma'sulyatli joylariga o'rnatilgan bosim rostlagich sozlamalarini hisoblash;

Bunday dasturlardan isitish tizimlarini loyihalashda foydalanish asnosida ko'p yo'lga qo'yiladigan xatoliklardan qutilish imkonini beradi. Buning uchun dasturga xatoliklarni tashxis qiladigan tizim kiritilgan va tizim xatolikni avtomatik ravishda loyihaga tuzatish kiritadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. U. S. Bobomurodov, S. R. Saydullayev, M. M. Xajimatova "Kompyuter dasturi asosida muxandislik kommunikatsiya tarmoqlarini hisoblash" o'quv qo'llanma Jizzax 2019 yil.
2. Katalog produksii firmi «Gers-Armaturen», 2007. Rekomendatsii. Sxemnie resheniya. Vnutri domovaya kotelnaya.
3. Zaysev O. N., Lyubarets A. P. "Proektirovanie sistem vodyanogo otopleniya" Vena - Kiev - Odessa 2008

УДК:38.3

БИНОНИНГ ИССИҚЛИК ҲИМОЯСИ ДАРАЖАСИ ТАЛАБЛАРИ АСОСИДА ПОЙДЕВОР КОНСТРУКЦИЯЛАРИНИ ТЕПЛОФИЗИК ҲИСОБЛАШ

Сирожиддинов.Ш.Н., Хайдаров Ш.Р.

Самарқанд давлат архитектура-қурилиш институти

Достаточно часто фундаменты совмещают со стенами подвалов. Их надежная эксплуатация может быть обеспечена только при наличии теплоизоляции наружных конструкций, соприкасающихся с грунтом. Необходимость утепления обусловлена тем, что потери тепла через подземную часть здания в некоторых случаях составляют до 20% от общих тепловых потерь. При наличии отапливаемого подвального помещения, теплоизоляция защитит стены подвала от промерзания, поможет предотвратить образование конденсата, появление сырости и развитие плесени.

Walls of basement often functions as foundation. They can be used freely, only if outer constructions' bound, which is connected with ground, is protected with heat isolation. Underground outer constructions is protected with heat isolation. The main cause of this is that amount of heat which is lost by underground outer constructions includes up to 20% of whole amount of heat which is lost by building. When basement is heated, heat isolation layer protects walls of basement from freezing. Condensate helps to avoid wet and mold.

Ҳозирги кунда Ўзбекистонда амалда қўлланилаётган ҚМҚ 2.01.04-97* "Қурилиш иссиқлик техникаси"да бинолар ва хоналарни иссиқлик ҳимояси бўйича уч даражага бўлинган. Бунда биноларнинг иссиқлик ҳимояси даражасига ва қурилиш жойининг градус-сутка кўрсаткичига боғлиқ ҳолда ташқи деворлар, чордоқсиз томлар ва чордоқ ёпмалари каби ташқи тўсиқ конструкциялар учун иссиқлик узатишга қаршилиқнинг талаб этилган қиймати белгиланган.

Иссиқлик ҳимояси бўйича биринчи даражали биноларнинг ташқи тўсиқ конструкцияларига минимал санитария-гигиена талаблари қўйилган. Бундай бинолар ташқи тўсиқ конструкциялари учун белгиланган иссиқлик узатишга қаршилиқнинг меъёрий қийматлари конструкциянинг иссиқлик инерциясини ҳисобга олган ҳолда (1) формула ёрдамида аниқланадиган R_0^{tp} нинг қийматларидан унча катта фарқ қилмайди:

$$R_0^{tp} = \frac{(t_b - t_n) \cdot n}{\Delta t^H \cdot \alpha_b}, \text{ м}^2 \cdot ^\circ\text{C}/\text{Вт} \quad (1)$$

бу ерда t_b - хона ички ҳавосининг ҳисобий температураси, $^\circ\text{C}$, хонанинг вазифасига боғлиқ ҳолда норматив хужжатлардан олинади; t_n - ташқи ҳавонинг ҳисобий температураси, $^\circ\text{C}$, тўсиқ конструкция иссиқлик инерцияси D нинг қийматига боғлиқ ҳолда қабул қилинади; $\Delta t^H = t_b - t_n$ - хонадаги ички ҳаво ва девор ички сиртининг температуралари орасидаги фарқ. меъёрланган, $^\circ\text{C}$; α_b - девор ички сиртининг иссиқлик бериш

коэффциенти, $(\text{Вт}/\text{м}^2 \cdot ^\circ\text{C})$; n - тўсиқ конструкция ташқи сиртининг ташқи ҳавога нисбатан ҳолатини ҳисобга олувчи коэффицент.

Иссиқлик ҳимояси бўйича иккинчи даражали биноларнинг ташқи тўсиқ конструкциялари учун белгиланган $R_0^{\text{ТР}}$ нинг қийматлари иссиқлик ҳимояси бўйича биринчи даражали биноларнинг ташқи тўсиқ конструкциялари учун белгиланган қийматлардан сезиларли даражада фарқ қилади. Масалан, ташқи деворлар учун белгиланган $R_0^{\text{ТР}}$ нинг қийматлари биноларнинг вазифаси ва градус-сутка кўрсаткичларига боғлиқ ҳолда 1,6-2,3 марта катта қилиб белгилаёган. Иссиқлик ҳимояси бўйича учинчи даражали биноларнинг ташқи тўсиқ конструкциялари учун белгиланган $R_0^{\text{ТР}}$ нинг қийматлари бундан ҳам кўпроқ фарқ қилади.

ҚМҚ 2.01.04-97* да, бинонинг энергия тежамкорлигини таъминлаш мақсадида, ташқи тўсиқ конструкцияларнинг иссиқлик узатишга қаршилиги R_0 нафақат санитария-гигиена талаблари асосида белгиланган $R_0^{\text{ТР}}$ дан кичик бўлмаслиги, балки ҳеч бўлмаганда иссиқлик ҳимояси бўйича биринчи даражали бинолар учун белгиланган қийматдан ҳам кичик бўлмаслиги талаб қилинади.

Давлат ва маҳаллий бюджет маблағлари ҳисобидан амалга ошириладиган турар-жой, даволаш-профилактика, болалар муассасалари, мактаблар, лицейлар, коллежлар, интернатлар бинолари қурилишида, реконструкция қилишда ва капитал таъмирлашда уларнинг иссиқлик ҳимояси бўйича даражасини иккинчи даража қилиб белгилаш зарурлиги талаб қилинади. Бюджетдан ташқари маблағлар асосида барпо этиладиган, реконструкция қилинадиган ва капитал таъмирланадиган турар-жой, жамоат ва саноат бинолари учун лойиҳа топшириғига биноан иссиқлик ҳимояси даражасини иккинчи ёки учинчи даража қабул қилиш тавсия этилади.

Биноларнинг иссиқлик ҳимоялаш даражаси лойиҳа топшириғида белгиланади. Бинонинг иссиқлик ҳимояси даражасини биринчи даражадан юқори қилиб лойиҳалаганда, унинг айрим тўсиқ конструкциялари учун $R_0^{\text{ТР}}$ нинг қийматини биринчи даража бўйича қабул қилишга рухсат этилади. Лекин бунда бошқа конструкция ёки бир нечта тўсиқ конструкцияларнинг термик қаршилигини, албатта, ошириш зарур. Бундан ташқари, барча ташқи тўсиқ конструкциялар орқали йўқотиладиган иссиқликнинг умумий миқдори иссиқлик ҳимояси даражаси учун қабул қилинган $R_0^{\text{ТР}}$ бўйича ҳисобланган миқдордан ошмаслиги керак.

Қурилиш жойи учун иситиш мавсумининг градус-суткани кўрсаткичини қуйидаги формула ёрдамида аниқланади:

$$D_d = (t_b \cdot t_{\text{от.пер}}) \cdot Z_{\text{от.пер}}; \quad (2)$$

бу ерда t_b - хона ички ҳавонинг ҳисобий температураси. $^\circ\text{C}$; $t_{\text{от.пер}}$ ва $Z_{\text{от.пер}}$ мос равишда, ташқи ҳаво температураси $\leq 10^\circ\text{C}$ бўлган даврдаги ўртача температура, $^\circ\text{C}$ да. ва унинг давом этиш даври, суткада; D_d кўрсаткичнинг қийматига ва бинонинг иссиқдан ҳимоя даражасига боғлиқ ҳолда ташқи

тўсиқ конструкция учун ҚМҚ 2.01.04-97*дан иссиқлик узатишга қаршилиқнинг талаб этилган қиймати R_0^{TP} аниқланади. Лойиҳаланаётган янги конструкция учун қуйидаги формула ёрдамида аниқланган иссиқлик узатишга қаршилиқнинг қиймати R_0 юқорида аниқланган қиймат билан таққосланади. Агар $R_0 \geq R_0^{TP}$ шарт бажарилса, бино қабул қилинган иссиқлик ҳимояси даражасига мувофиқ равишда энергия тежамкор ҳисобланади.

$$R_0 = \frac{1}{\alpha_B} + \sum \frac{\delta_1}{\lambda_1} + \frac{1}{\alpha_H}, \text{ м}^2 \cdot \text{°C/Вт} \quad (3)$$

$$R_0 = \frac{1}{\alpha_B} + R_K^{Pr} + \frac{1}{\alpha_H}, \text{ м}^2 \cdot \text{°C/Вт} \quad (4)$$

бу ерда δ_1 – алоҳида қатламларнинг қалинлиги; λ_1 – шу алоҳида қатламлар материалларининг иссиқлик ўтказувчанлиқ коэффиценти, Вт/(м² · °C); α_H – девор ташқи сиртининг иссиқлик бериш коэффиценти, Вт/(м² · °C); R_K^{Pr} – ташқи тўсиқ конструкциянинг келтирилган термик қаршилиги, м² · °C/Вт.

Биоларнинг ташқи тўсиқ конструкцияларига энергия тежамкорлик нуқтаи назаридан қўйиладиган талаблар кучайтирилганлиги муносабати билан ҳозирги кунда уларнинг иссиқлик узатишга қаршилигини ошириш муаммоси долзарб бўлиб бормоқда. Бу масалани ҳал қилиш учун, яъни ташқи тўсиқ конструкцияларнинг иссиқлик узатишга қаршилигини канчага ошириш кераклигини аниқлаш учун, унинг иссиқлик узатишга умумий қаршилигининг ҳақиқий қиймати R_0^{Φ} ҳақида маълумот керак бўлади. Бундай маълумотни аниқлаш учун қуйидаги усуллардан фойдаланилади.

1) Қурилаётган мавжуд ташқи тўсиқ конструкциянинг таркибига кирган материаллар ҳақида аниқ маълумотлар бўлган ҳолларда, конструкция учун узатишга умумий қаршилиқнинг ҳақиқий қиймати R_0^{Φ} сифатида (3) ёки (4) формулалар ёрдамида иссиқлик узатишга қаршилиқнинг ҳисобий қиймати R_0 аниқланади.

2) Конструкция учун иссиқлик узатишга умумий қаршилиқнинг ҳақиқий қиймати R_0^{Φ} аниқланади. Бу ишни температураларни экспериментал ўлчашлар натижасида иккита усулда амалга ошириш мумкин.

Биринчи усул. Қўшимча иссиқлик изоляцияси ўрнатилиши керак бўлган конструкция сиртидаги маълум нуқталарда, уларга ўрнатилган термодатчиклар ёрдамида бир неча сутка давомида ички ва ташқи ҳаво ҳамда конструкция ички сиртининг температуралари ўлчанади. Олинган натижалар асосида ташқи тўсиқ конструкциянинг иссиқлик узатишга қаршилиги R_0^{Φ} қуйидаги формула ёрдамида аниқланади:

$$R_0^{\Phi} = \frac{t_B - t_H}{(t_B - \tau_B) \cdot \alpha_B}, \text{ м}^2 \cdot \text{°C/Вт} \quad (5)$$

бу ерда t_b – хона ичкп хавосининг ўлчашлар давридаги ўртача температураси, °C; t_n – ташқи хавонинг ўлчашлар давридаги ўртача температураси, °C; τ_b – девор ички сиртининг ўлчашлар давридаги ўртача температураси, °C; α_b - девор ички сиртиниинг иссиқлик бериш коэффиценти, Вт/(м² · °C);

Иккинчи усул. Бунда бир неча сутка давомида ички ва ташқи хавонинг температуралари билан биргаликда конструкция орқали ўтаётган иссиқлик оқимининг қиймати q_ϕ ҳам ўлчанади. Олинган натижалар асосида ташқи тўсиқ конструкциянинг иссиқлик узатишга қаршилиги R_0^ϕ қуйидаги формула ёрдамида аниқланади:

$$R_0^\phi = \frac{t_b - t_n}{q_\phi}, \text{ м}^2 \cdot \text{°C/Вт} \quad (6)$$

бу ерда t_b – хона ички хавосининг ўлчашлар давридаги ўртача температураси, °C; t_n – ташқи хавонинг ўлчашлар давридаги ўртача температураси, °C; q_ϕ – ҳисобий давр учун ўлчанган иссиқлик оқимининг ўртача зичлиги, Вт/м²; унинг қиймати қуйидаги формула ёрдамида ҳисобланади:

$$q_\phi = q \cdot \frac{\tau_n - \tau_b}{\tau_n - \tau_{b,п}}, \text{ Вт/м}^2 \quad (7)$$

бу ерда q – иссиқлик оқимини ўлчашларнинг ҳисобий даври бўйича ўртача ҳақиқий зичлиги, Вт/м²; τ_n – конструкция ташқи сиртининг ўлчашлар давридаги ўртача температураси, °C; τ_b ва $\tau_{b,п}$ – тўсиқ конструкция ички сиртининг тепломер яқинидаги ва бевосита унинг тагидаги температуралари, °C.

Шундан сўнг, таъмирланадиган ташқи тўсиқ конструкциянинг иссиқлик узатишга қаршилиги R_0 нинг қиймати энергия тежамкорлик бўйича талаб этилган қиймат $R_0^{тр}$ га тенг ёки ундан катта бўлиши шартидан келиб чиққан ҳолда, конструкция учун қўшимча иссиқлик узатишга қаршилиги $\Delta R_{доб}$ нинг қиймати аниқланади:

$$\Delta R_{доб} = R_0^{тр} - R_0^\phi, \text{ м}^2 \cdot \text{°C/Вт} \quad (8)$$

Энергия тежамкорликни таъмирлаш қўшимча ўрнатиладиган иссиқлик изоляцияси қатламининг қалинлиги қуйидаги формула ёрдамида аниқланади:

$$\delta = \Delta R_{доб} \cdot \lambda, \text{ м}, \quad (9)$$

бу ерда λ – қўшимча иссиқлик изоляцияси сифатида қўлланиладиган материалнинг иссиқлик ўтказувчанлик коэффиценти, Вт/(м² · °C) унинг қиймати хонанинг намлик режимига боғлиқ ҳолда аниқланадиган эксплуатация шароити - **А** ёки **Б** га мувофиқ равишда қабул қилинади.

Ташқи тўсиқ конструкцияларнинг иссиқлик узатишга қаршилиги R_0 қуйидаги формула ёрдамида аниқланади:

$$R_0 = \frac{1}{\alpha_b} + R_k + \frac{1}{\alpha_n} \quad (10)$$

бу ерда α_b – тўсиқ конструкция ички сиртининг иссиқлик бериш

коэффициенти. ҚМҚ 2.01.04-97* даги маълумотлар асосида 4-иловадан аниқланади; α_n – тўсиқ конструкция ташқи сиртининг иссиқлик бериш коэффициенти. ҚМҚ 2.01.04-97* даги маълумотлар асосида 5-иловадан аниқланади; R_K – тўсиқ конструкциянинг термик қаршилиги, бир жинсли қатламлардан иборат кўп қатламли ташқи тўсиқ конструкциянинг термик қаршилиги барча қатламлар термик қаршиликларининг йиғиндисига тенг, яъни қуйидаги формула ёрдамида аниқланади:

$$R_K = \frac{\delta_1}{\lambda_1} + \frac{\delta_2}{\lambda_2} + \dots \frac{\delta_n}{\lambda_n}, \quad (11)$$

бу ерда $\delta_1, \delta_2, \dots \delta_n$ – алоҳида қатламларнинг қалинлиги, м; $\lambda_1, \lambda_2, \dots \lambda_n$ – шу қатламлар материалларининг иссиқлик ўтказувчанлик коэффициенти. Вт/(м² °С).

Мисол. Самарқанд шаҳрида қурилатган турар-жой биноси ертўла деворини донадор пеностеклодан қилинадиган иссиқлик изоляция қатламининг қалинлигини ҳисоблаш. Ертўла девори қалинлиги 300мм бўлган монолит темирбетон пойдевордан иборат. Турар-жой бинолари қурилишига мўлжалланган донадор пеностеклонинг энергия тежамкорлик талабларига мувофиқлигини текшириш зарур. Масалани юқорида баён қилинган алгоритм бўйича ечамиз.

1) Қурилиш жойи – Самарқанд шаҳри.

2) Бинонинг вазифаси – турар-жой биноси.

3) ҚМҚ 2.01.04-97*даги 1-иловадан хона ички ҳавосининг ҳисобий температураси t_b аниқлаймиз: $t_b = 20^\circ\text{C}$

4) ҚМҚ 2.01.04-97*даги 9-иловадан Самарқанд шаҳрининг ташқи ҳаво температураси $t \leq 8^\circ\text{C}$ ва $t \leq 12^\circ\text{C}$ бўлган даврлар учун мос равишда ўртача температура $t_{\text{от. пер}}$ нинг қиймати ва шу даврларнинг давомийлиги (суткада) $Z_{\text{от. пер}}$ ҳақидаги маълумотларини ёзиб оламиз:

- $t \leq 8^\circ\text{C}$ бўлган давр учун ўртача температура $t_{\text{от. пер}} = +3,1^\circ\text{C}$, давомийлиги 133 сутка;
- $t \leq 12^\circ\text{C}$ бўлган давр учун ўртача температура $t_{\text{от. пер}} = +4,8^\circ\text{C}$, давомийлиги 172 суткани ташкил қилади.

Мазкур қийматлар асосида $t \leq 10^\circ\text{C}$ бўлган давр учун ўртача температуранинг қиймати ва шу даврнинг давомийлиги $Z_{\text{от. пер}}$ аниқлаб оламиз:

$$t_{\text{от пер}} = \frac{3,1+4,8}{2} = 3,95^\circ\text{C} \text{ ва } Z_{\text{от пер}} = \frac{133+172}{2} = 152,5 \approx 153 \text{ суткага тенг.}$$

5) (2) формуладан фойдаланиб Самарқанд шаҳри учун иситиш мавсумининг градус-сутка (ИМГС) кўрсаткичини аниқлаймиз:

$$D_d = (t_b - t_{\text{от пер}}) Z_{\text{от пер}} = (20 - 3,95) * 153 = 2455 \text{ градус-суткага тенг.}$$

6) Турар-жой биноси ертўласи деворининг иссиқлик узатишга талаб этилган қаршилиги R_0 нинг қийматини иссиқлик ҳимоясининг иккинчи даражасига мувофиқ бўлиши шартидан келиб чиққан ҳолда, қуйидаги формула ёрдамида аниқлаймиз:

$$R_0^{\text{TP}} = \alpha \cdot D_d + b \quad (12)$$

Одамларнинг доимий ёки вақтинча яшашлари учун мўлжалланган квартира типидagi уйлар, ётоқхоналар, меҳмонхоналар ва қариялар интернатлари деворлари учун коэффициент $\alpha=0,00035$ ва $b=1,4$ га тенг.

$$R_0^{\text{TP}} = \alpha \cdot D_d + b = 0,00035 \cdot 2455 + 1,4 = 2,26 \text{ м}^2\text{°C/Вт}$$

Ташқи тўсиқ конструкцияларнинг иссиқлик узатишга қаршилиги R_0 (10) формула ёрдамида аниқланади:

$$R_0 = \frac{1}{\alpha_{\text{в}}} + R_{\text{к}} + \frac{1}{\alpha_{\text{н}}}$$

бу ерда $\alpha_{\text{в}} = 8,7 \text{ Вт/(м}^2\text{°C)}$; $\alpha_{\text{н}} = 23 \text{ Вт/(м}^2\text{°C)}$;

Донадор пеностекло ерда намланган ҳолатда бўлиши мумкин. Намланган ҳолатдаги донадор пеностеклонинг иссиқлик ўтказувчанлик коэффициентини аниқлашнинг 2 усули мавжуд.

1. *Тажриба*. Қурилиш материалларни ишлаш шароитларида иссиқлик ўтказувчанлик коэффициентини ҳисобий қийматлари аниқлаш КМҚ 2.01.04-97* "Қурилиш иссиқлик техникаси"да келтирилган.

2. *Ҳисоблаш*. Қурилиш материалларни иссиқлик ўтказувчанлик коэффициентини ҳажмий намлигига боғлиқлиги куйидаги эмпирик формула ёрдамида аниқланади:

$$\lambda_{\text{влаж}} = \lambda_{\text{сух}} + \Delta\lambda \cdot \omega \quad (13)$$

бу ерда $\lambda_{\text{сух}}$ – қуруқ материални иссиқлик ўтказувчанлик коэффициентини; $\Delta\lambda$ – ҳажмий намлиги ҳар бир фоизга катталашганда материални иссиқлик ўтказувчанлик коэффициентини ўсиши; ω – ҳажмий намлиги, %.

Салбий температурали ноорганик материалларда $\Delta\lambda$ қийматининг каттали $3,5 \cdot 10^{-3} \text{ Вт/(м}^2\text{°C)}$ га тенг қилиб олинади.

Донадор пеностеклонинг намлиги унинг ташқи сиртининг намланиши ҳисобига ўз ҳажмининг 2,5 % дан ошмайди.

Тўкилган қуруқ ҳолдаги донадор пеностеклонинг иссиқлик ўтказувчанлик коэффициентини $0,048 \text{ Вт/(м}^2\text{°C)}$ ни ташкил қилади.

Шундай қилиб, намланган иссиқлик изоляция қатламининг иссиқлик ўтказувчанлик коэффициентининг қийматини куйидагича аниқлаймиз:

$$\lambda_{\text{влаж}} = \lambda_{\text{сух}} + \Delta\lambda \cdot \omega = 0,048 + 3,5 \cdot 10^{-3} \cdot 2,5 = 0,057 \text{ Вт/(м}^2 \cdot \text{°C)}$$

Ташқи тўсиқ конструкцияларнинг иссиқлик узатишга умумий қаршилиги R_0 куйидаги формула ёрдамида аниқланади:

$$R_0 = \frac{1}{\alpha_{\text{в}}} + \frac{\delta_1}{\lambda_1} + \frac{\delta_2}{\lambda_2} + \frac{\delta_3}{\lambda_3} + \frac{\delta_4}{\lambda_4} + \frac{1}{\alpha_{\text{н}}}$$

Таклиф қилинаётган конструкциядаги қатламлар

№	Материалнинг номи	Зичлиги кг/м ³	Иссиқлик ўтказувчанлик коэффициенти, Вт/(м ² °C)	Қалинлиги, м
1	Монолит темирбетон	2500	2.176	0.300
2	Гидроизоляция	-	-	-
3	Донадор пеностекло	150	0.057	X
4	Текист шифер	1800	0.35	0,02

Иссиқлик узатишга қаршилиқнинг қиймати R_0 юқорида аниқланган $R_0^{тр}$ қиймат билан таққосланади. Агар $R_0 \geq R_0^{тр}$ шарт бажарилса, бино қабул қилинган иссиқлик ҳимояси даражасига мувофиқ равишда энергия тежамкор ҳисобланади.

$$\frac{1}{8,7} + \frac{0,300}{2,176} + \frac{X}{0,057} + \frac{0,02}{0,35} + \frac{1}{23} = 2,26$$

$$X/0,057 + 0,115 + 0,138 + 0,571 + 0,043 = 2,26$$

Тенгламадан донадор пеностеклонинг қалинлигини топамиз $X=0,08$ м.

Шундай қилиб, иссиқлик изоляция қатлами ертўла девори учуи донадор пеностекло билан қилинса, унинг қалинлигини минимал қиймати 80мм га тенг бўлар экан.

Адабиётлар

1. ҚМҚ 2.01.04-97* - «Қурилиш иссиқлик техникаси». Тошкент: 2011 й.
2. Шипачева Е.В. Проектирование энергоэффективных гражданских зданий в условиях сухого жаркого климата. Учебное пособие - ТТЙМИ. 2008 й.
3. В.С. Беляев, Л.П. Хохлова Проектирование энергоэкономичных и энергоактивных гражданских зданий: Учебное пособие. М.: Высшая школа. 1991. - 255с.
4. Бадьин Г. М. Строительство и реконструкция малоэтажного энергоэффективного дома. - СПб.: БХВ-Петербург. 2011. - 432 с.:
5. «Энергия тежамкор биноларнинг конструкциялари» фанидан маърузалар курси СамДАҚИ: 2015й.-2526.
6. Сирожиддинов Ш.Н. Бинонинг ер ости қисмидаи иссиқликни йўқолишини сақлаш усулини яратиш. Магистр академик даражасини олиш учун ёзилган диссертация. СамДАҚИ: 2017й.-726.

УДК 004.94 : 69

OBJECT MONITORING BY USING BIM TECHNOLOGY

Ержуманова У.С. Дубинин А.А. Казахская

The use of drones in construction is a new technology, and its potential is very large. Together with 3D printing and robots, this will revolutionize the architectural and construction industry.

Already today, architectural and construction firms can use quadrocopters to collect geodetic information about the territory, to control work and create marketing materials. Drones equipped with high-definition cameras, infrared scanners and thermal sensors allow you to collect important data that may affect the project at the design stage.



Key words: BIM technologies, three-dimensional model, UAV (unmanned aerial vehicles).

«Brasfield & Gorrie» - one of the most private construction companies, uses the

3D model obtained with the help of drones to compare the actual performance of excavation work on a construction site with planned targets. According to this year's Goldman Sachs report, the construction sector will have the largest use of drones in the near future. We observed a similar trend when we analyzed user data in the DroneDeploy system when preparing the report “Use of drones in industry and commerce,” - in the construction industry, the use of drones grew most rapidly.



This did not surprise many. Commercial and custom drone models today can easily fly around the construction area and quickly demonstrate the progress of construction on high-resolution maps and on three-dimensional models, which is a very effective solution compared to traditional methods.

However, despite frequent discussions about the benefits of using drones in the construction industry, there are not many real stories from construction companies that actually use drones.

Therefore, we are pleased to bring to your attention a story from «Brasfield & Gorrie», one of the largest private players in the US construction industry, about the use of drones, in this case, to obtain a height map for the construction of the hospital and its comparison with the construction plan to evaluate the performance of work.

Drones at Brasfield & Gorrie

Brasfield & Gorrie began to use drones for observation several years ago, but were forced to temporarily stop due to the need to obtain permission in accordance with the new regulations issued by the Federal Aviation Administration (FAA) on December 15, 2015. Today, the company works with drones in the Virtual Design and Construction (VDC) group, in which 24 employees are engaged in optimizing construction processes by creating a digital model of the progress of construction work.

Hunter Cole, the coordinator of visual design, describes the group's activities in this way: "we participate in almost all of the company's projects that require three-dimensional modeling."

Each regional office is equipped with DJI Inspire equipment. Whether it's aerial photography (photo or video), the creation of detailed 3D models using photogrammetry, drones allow you to quickly, safely and inexpensively collect information at all stages of construction.

Earthworks at the hospital construction site.

During the construction of the hospital on a site measuring 61 acres (24.4 hectares), the local branch of the construction company contacted the VDC group. The subcontractor announced the completion of preparatory excavation work, but the department manager was sure that the results of his work did not correspond to the planned documentation. Therefore, he requested the help of the VDC group to clarify the scope of work performed. Group coordinator Jesse Creech and field engineer Charles Curtis told us about the future.

"We were asked to find out the difference between the current level of the construction site and the one that was planned," said Charles Curtis.

Given the size of the construction site, drones were the best choice, as measurement of the vertical profile by traditional methods is a very lengthy and costly process.


Circling the pad.

VDC Group hired a local drone service provider Dronebase to fly around the site with the assistance of a licensed pilot. Dronebase circled the site using the Phantom 3 Pro model and the DroneDeploy mobile app for flight planning and automation. Given the size of the site, it took several flights to complete. All the work took about an hour.



Because it was supposed to use the resulting map for comparative analysis, it was important that when superimposed on existing drawings it exactly coincided with them. To ensure accuracy, Brasfield & Gorrie used ground control points (GCP) (learn more about GCP and map accuracy).

After flying around the Brasfield & Gorrie construction site, the images were uploaded to the DroneDeploy cloud platform, which on the same day presented them as an ortho-mosaic map, a vertical profile map and a 3D model.



Orthomosaic card



Comparison of the plan and the actual state of the construction site

Having received the card from DroneDeploy, Jesse then had to translate it into the same format in which the planned drawings were made, striving for maximum accuracy (i.e., so that the geographical marks coincided on both maps).

Entering data on ground control points, he was convinced that the map was precisely aligned (it is possible when using DroneDeploy's Premier plan). Jesse then exported the 3D model as a point set to third-party software. And from there I transferred the model to the required coordinate system, which was used when creating the drawings (now this can be done using

DroneDeploy, just by typing the 4-digit EPSG code, but at that time the “VDC” team did it through third-party software).



When both models were properly aligned, Jesse was able to compare them. The result was a heat map showing the results of earthworks and their deviations from the plan: the areas marked in green coincide with the plan, blue - too low, pink - too high.

Heat map comparing the vertical profile: zones marked in green coincide with the plan, blue - too low, pink - too high.

On Jesse's heat-map you can clearly see what was done by the subcontractor.

Based on the results of the comparison, it became clear that it was necessary to withdraw additional volumes of soil to achieve the required performance for earthworks.

Faster data collection leads to higher returns

Using drones, VDC was able to evaluate the results of excavation work much faster than if traditional methods were used, without losing accuracy.

According to field engineer Charles, such work would have previously required more than 1,000 test shots.

“Usually we would use automated total stations to compose a grid of elevation points. I would have to use at least a 50 x 50 grid for such a site. With an area of 61 acres, you would need to take more than 1000 individual shots with different settings. Combining this with regular work, we would spend many weeks and seriously get out of schedule. This 1000 shots will not let us know about all the heaps of worked land or ditches, so to maintain accuracy we


would have to examine all the contours of the unexpected parts, which will significantly increase the number of shots,” says Charles.

And even if 1000 shots sound like a lot, the drone easily captures much, much more data, which allows you to create a much more accurate model of the vertical profile of the site.

“Getting a lot of points, representing the whole site, in a couple of hours using the drone is a huge advantage for the budget and schedule,” Jesse said.

The speed of data analysis is in principle comparable to the speed using other methods, but Charles is confident that the process will improve over time. “We learned a lot through this process, and I feel that in the future we will be able to increase accuracy and significantly reduce the processing and analysis of data,” he said.

In general, this example illustrated the enormous time and resource savings that Brasfield & Gorrie can provide with topographic surveys made by drones. “The speed with which the drone can fly around and shoot detailed images is very time-saving. According to my feelings, we spent three times less on this than if we did it manually” Charles said.



Jesse put it this way:

“Having spent a little time and money, we were able to find out the result of earthwork and draw conclusions, which in other cases can be a very expensive and lengthy process. In this case, the return on investment is very high.”

We see that drones have been used in all areas of the construction industry for several years, mainly for control and supervision.

Over the past 12 months, a technology has been developed to create consumer drones taking into account the wishes of specialists, which led to the emergence of the so-called consumer-professional sector of the market.

This approach is a combination of sophisticated technology and expensive high-end hardware and software for easily manageable consumer drones, offering an

affordable, efficient and commercially viable solution. This allowed us to make the use of UAVs with their wide range of capabilities more accessible for builders and small and medium-sized businesses.



Tips and best ways to use drones in the construction industry

Have you considered introducing drones in your construction business? The Brasfield & Gorrie VDC group can give you some suggestions:

- Think about your task in advance. There are no two identical construction sites, as well as the same difficulties with them. The worst thing you can do is come to the site without a specific flight plan;
- Set goals for yourself. Have an idea of what you will do with the information before collecting it, as this will allow you to choose the level of detail needed to complete the task;
- Ensure compliance with the requirements of the Federal Aviation Administration (FAA). Be prepared to refuse the customer if the execution of the order involves a violation of safety regulations or legislation;
- Enlist the help of real pilots. Brasfield & Gorrie hired a licensed pilot to be able to use drones for commercial purposes;
- Carefully research the market before buying drones - technology is moving fast.

Litirature

1. <https://dronomania.ru/professionalnye/drony-v-kontrole-xoda-stroitelstva-obektov.html>
2. <https://lakhtacenter.livejournal.com/369956.html>

УПРАВЛЕНИЯ ТЕПЛОФИЗИЧЕСКИМИ СВОЙСТВАМИ МНОГОКОМПОНЕНТНЫХ СТРОИТЕЛЬНЫХ МАТЕРИАЛОВ

Алиазаров А.Х., Наманганский инженерно – строительный институт,

Мадгазиев Х.М.И. Каримов номидаги ТДТУ Қўқон филиали

В статье рассмотрено теплофизические свойства строительных

материалов и изделий на их основе при гелиотепловой обработке.

Теплофизические свойства многокомпонентных материалов зависят от многих факторов и в первую очередь от объёмной массы, поровой структуры, влажности и режима гелиотеплохимической обработки.

Поэтому, управляя строением и структурными характеристиками, можно создавать эффективные материалы с улучшенными теплофизическими характеристиками [1].

Ограждающие конструкции, в частности материалы из золоцементных смесей на основе золошлаковых отходов ТЭС представляю собой мелкопористый материал, в котором сцепление зерен между собой осуществляется только в местах точечных контактов. В мелкозернистых многокомпонентных изделиях, благодаря малому размеру межзерновых пор, конвективный теплообмен сводится к минимуму, поэтому в таком материале логично ожидать оптимальное сочетание прочностных и теплофизических свойств.

Так как повышение температуры структурообразующей среды при гелиотеплохимическом воздействии ускоряет процесс твердения золоцементного изделия, то коэффициенты тепло-массопереноса будут зависеть и от температурного режима [2].

Теплопроводность структурообразующего золоцементного материала зависит от физико-химической структуры, плотности твёрдой фазы, влагосодержания и внутреннего давления парогазовой среды и составляет - 0,28... 0,32 Вт/м. ос.

При этом теплопроводность твердых фаз, в связи с фазовыми и структурными преобразованиями, происходящими в золоцементном изделии, при гидратации цемента, со временем увеличивается [3].

Перенос тепла внутри пор осуществляется конвекцией и теплопроводностью среды, заполняющие поры путём излучения. Влияние лучистого переноса тепла с развитием реакции гидратации и появлением контракционных пор, диаметр которых значительно меньше 2 мм, резко снижается, и им можно пренебречь. Теплопроводность заполняющей среды с течением времени из-за стока воды на гидратацию и преобразования в порах будет уменьшаться. Следовательно, на формирование величины коэффициента теплопроводности основополагающее влияние будут иметь теплопроводность твердеющего скелета и заполняющей среды и конвективная составляющая, а также перенос тепла за счёт перемещения масс.

Во время структурообразования при гелиотеплохимической обработке изменяется коэффициент теплопроводности, температуропроводности и теплоёмкости. В частности он будет зависеть от размера фракции ($S_{уд}$) заполнителя, марки цемента (m), водоцементного отношения (B/C), модифицированно-пластифицирующих добавок (МПД), влияющего на состав и количество заполняющей среды в порах и от температуры воды затворения


и воздух нагретых в гелиотеплогенерирующих агрегатах [4, 5, 6].

Удельная теплоёмкость структурообразующего З.Ц.К (золоцементная композиция) находятся в пределах 830 -870 ВТ/(кг.⁰К), т.е. удельная теплоёмкость является величиной слабочувствительной к структурным изменениям материала, наибольшие её изменения определяются в основном стоком влаги на реакцию гидратации, а ввиду того, что на свободную воду приходится не более 7...8 % от объемной массы композиционного изделия, то и эти изменения можно считать незначительным. Результаты исследований за динамикой коэффициента теплопроводности λ приведён на рис. 1.

В качестве исходных данных для получения значений коэффициента теплопроводности λ выбраны основные факторы эксперимента и их граничные значения осуществлены на основе априорной экспериментальной информации.

Установлено, что тенденция изменения λ при рассматриваемых режимах имеет одинаковый характер: незначительный рост значений λ сменяется значительным его падением, а затем увеличением и стабилизацией. Диапазон изменения теплопроводности при различных режимах гелиотеплохимической обработки почти тот же, что указывает в основном на влияния состава и марки мелкозернистого композиционного изделия полиструктурного строения.

Температура твердения композиционного изделия оказывает влияние на периоды наступления минимума λ и выход коэффициента на постоянное значение: при- $t_{\max}$ минимум и стадия стабилизация λ наступает быстрее. При низких температурах - $T_{\text{ест}}$ стадия стабилизации λ наступает позднее и кривая изменение теплопроводности имеет более пологий характер и медленнее выходит на стадию стабилизации. А при структурообразовании золоцементных композиционных изделий в естественных условиях понижение и рост значений λ растянуто во времени.



Если сравнить ход кривых интенсивности тепловыделения q_3 и коэффициентов теплопроводности определяется интересная закономерность что периоды поступления минимума λ и максимума q_3 совпадают, что является следствием структурообразования полиструктурного мелкозернистого композиционного материалов при гелиотеплохимической обработке; влияние же температуры сказывается в ускорении или замедлении этих процессов.

На рис. 1 показана зависимость между интенсивностью тепловыделения q_3 , теплопроводностью λ и скоростью изменения тепловыделения $\partial q_3 / \partial \tau$ структурообразующего композиционного изделия. Анализ и сопоставление результатов дали мне предложить интересную взаимосвязь заключающейся в следующем: что поступление абсолютного минимума значений $\partial q_3 / \partial \tau$ совпадает с началом периода стабилизации значений коэффициента теплопроводности, а абсолютному максимуму тепловыделения q_3 соответствует абсолютный минимум значения λ . Это означает о том, что если известен ход кривых q_3 , то, вычислив производную $\partial q_3 / \partial \tau$, можно построить для данного режима гелиотеплохимической обработки прогнозную зависимость коэффициента теплопроводности в процессе структурообразования высоконаполненных золоцементных композиционных материалов полиструктурного строения.

Таким образом, регулирования теплофизических свойств композиционных изделий путём гелиотеплохимического воздействия до и в период структурообразования возможно регулированием поровой структуры,

влажность, дисперсности основного слагаемого вещества, режима температурного воздействия, от вида и количества модифицированнопластифицирующих добавок.

Литература

1. А.Х.Алиазаров. Энергоэффективная теплотехнология получения золоцементных композиционных материалов: монография .Москва : РУСАЙНС, 2019.-168 с
2. А.Х.Алиазаров . Энерго и ресурсосберегающая технология получения строительных материалов и изделий методом гелиотеплохимической обработки: монография .Москва :РУСАЙНС, 2017.-138 с
3. Alinazarova M., Gulyamov A.G., Alinazarov A.Kh. Control Over the Thermal Propertis of Fine Composite Materials in Solar Thermochemical Treatment. Applied Solar Energy, vol.38, No 3, Allerton Press, Ins / New York 2002. p.p. 75-78
4. Алиазаров А.Х., Гулямов А.Г. Свойства золоцементных композиций при механохимической активации //Проблемы механики, 2002. - Вып. 5. – С. 48 -
5. Алиазаров А.Х., Гулямов А.Г. Формирование свойств золоцементных композиций полиструктурного строения //Гелиотехника, 2003. - Вып. 1. – С. 86 – 88.
6. Алиазаров А.Х., Алиазарова М., Рахмонов Ш. Особенности управление теплофизическими свойствами золоцементных композиционных строительных материалов при гелиотепловой обработке. ФарПИ илимий техника журнали, №2 Фарғона-2012 йил

АВТОМОБИЛ ЙЎЛЛАРИДА ПОЛИМЕРАСФАЛТ ҚОРИШМАЛАРГА ҚЎЙИЛАДИГАН ТАЛАБЛАР

Товбоев Б.Х.

Жиззах политехника институти

В статье представлена информация о полимерно-асфальтовой смеси, используемой на автомобильных дорогах, и ее требованиях, а также об используемых полимерно-битумных связующих.

The article provides information on the polymer-asphalt mixture used on roads, and its requirements, as well as on the polymer -bitumen binders used.

Автомобил йўллари Республика иқтисодиётининг асосий қон томирлари ҳисобланади. Ҳеч бир тармоқ автомобил йўлларисиз ўз фаолиятини давом этира олмайди. Биз учун бугунги кундаги асосий устувор масала бу дунё бозорига олиб чиқадиган, мамлакатимизни хорижий ривожланган мамлакатлар билан боғлайдиган транспорт коридорларини барпо этишдир. Республикамизда замонавий автомобил йўллари тармоғини ривожлантириш ва унда ҳаракатнинг қулайлигини таъминлаш энг муҳим масалалардан бири ҳисобланади.

Автомобил йўлларини қанчалик текис ва равон бўлиши унга ишлатиладиган асфалтбетон қоришмаларининг сифатига боғлиқ. Ҳозирги кунда дунёнинг кўпгина мамлакатларида полимерасфалтбетон қоришмалар ишлаб чиқарилаяпти ва автомобил йўлларига ётқизилаяпти.

Полимерасфалтбетон қоришмалар — маъдан материалларнинг

(чақилган тош(шағал) ва қумнинг маъдан кукун билан) полимер битум билан муаян нисбатларда мақбул танланган ҳамда иссиқ ҳолда аралаштирилган қоришма. Автомобил йўлларида ишлатилаётган полимерасфалтбетон қоришма ва полимерасфалтбетонларни турлари, хиллари ва уларга бўлган талаблар ГОСТ 9128-2013 бўйича, синаш усуллари эса ГОСТ 12801-98 бўйича аниқланади. Полимерасфалтбетон қоришмалар ва полимерасфалтбетонларни маъдан ташкил қилувчиларнинг турига боғлиқ равишда чақиқтошли ва қумли турларга ажратилади.

Қоришма ва полимерасфалтбетонлар минерал қисмининг таркибига кўра майдадонали ва қумли турларга бўлинади.

Полимерасфалтбетонлар таркибидаги чақиқтош миқдориغا қараб қуйидаги типларга бўлинади:

- юқоризич таркибида чақиқтош миқдори 50% дан 65 % гача;
- зич типлари ўз навбатида:
- А таркибида чақиқтош миқдори 50% дан 60 % гача;
- Б таркибида чақиқтош миқдори 40% дан 50 % гача;
- В таркибида чақиқтош миқдори 30% дан 40 % гача.

Қумли полимерасфалтбетонлар Г ва Д типларга бўлинади.

Қоришма ва полимерасфалтбетонлар физик-механик хоссаларининг кўрсаткичларига кўра 1-жадвалда кўрсатилган маркалари мавжуд.

1-жадвал

Қоришма ва полимерасфалтбетонларни тури ва типлари	Маркалари
юқоризич	I
зич типлар:	
А	I
Б, Г	I
В, Д	II

Полимерасфалтбетон қоришмалар олиш учун уларга ПБВ 300, ПБВ 200, ПБВ 130, ПБВ 90, ПБВ 60, ПБВ 40 маркали полимер-битумли боғловчилар қўшилади. Полимерасфалтбетон қоришмаларини температурасига талаблар 2-жадвалда келтирилган.

2-жадвал

Полимер-битумли боғловчи (ПБВ)лар 25 °С да игнанинг ботиш чуқурлиги 0,1 мм	Қоришма температураси полимер-битумли боғловчи (ПБВ)ни кўрсатичига боғлиқ ҳолда
40-150	от 150 до 160
151 и более	» 140 » 150

Полимерасфалтбетон қоришмаларни 0⁰С, 20⁰С ва 50⁰С сиқилишга мустаҳкамлиги, сувга бардошлилиги, сув шимувчанлиги, ғовокдорлиги ва бошқа физик-механик хоссалари ГОСТ 12801 бўйича аниқланади.

Демак, полимерасфалтбетонларга бўлган талаблардан кўриниб

турибдики, улар ҳам асфалт қоришма ва асфалтбетон каби хусусиятларга эга. Уларнинг механик хусусиятлари, яъни эластиклик чегараси ҳам жуда мустаҳкам бўлиб, эгилиш ва деформацияга яхши ишлаб, транспорт воситаларининг бир текисда ҳаракатланишини таъминлайди, ҳамда йўл қуриламаларининг тезда бузилиб кетмаслиги жиҳатидан қулай бўлиб, транспорт ҳаракати натижасида ҳосил бўлувчи тебранма кучлари сўндириш қобилиятига эга.

Фойдаланилган адабиётлар

З.Х.Саидов, Т.Ж.Амиров, Х.З.Ғуломова. “Автомобиль йўллари: материаллар, қопламалар, сақлаш ва таъмирлаш”. Ўқув қўлланма. Тошкент. 2010 йил.

ГОСТ 9128-2013 “Смеси асфальтобетонные, полимерасфальтобетонные, асфальтобетон, полимерасфальтобетонные для автомобильных дорог и аэродромов”. Технические условия.

1. ГОСТ 12801-98 “Смеси асфальтобетонные дорожные и аэродромные, дегтебетонные дорожные, асфальтобетон и дегтебетон”. Методы испытаний.

АСФАЛТБЕТОН ҚОПЛАМАЛАРИНИ ИҚЛИМ ОМИЛЛАРИ ТАЪСИРИДА ИШЛАШ ХУСУСИЯТЛАРИ

Товбоев Б.Х., Облақулов Д.А.ў.

Жиззах политехника институти талабаси

В статье представлены характеристики асфальтобетона в летний, осенний, зимний и весенний сезоны работающие свойство и дефекты появляющиеся в результате каторые связаны с ним.

This article describes the properties of asphalt concrete in relation to temperature, performance characteristics in summer, autumn, winter and spring, and the resulting defects.

Ўзбекистон иқлим шароити, автомобил йўлларида асфалтбетон қопламаларни қуриш ва улардан фойдаланишда ўзига хос хусусиятларини ШНҚ 2.05.02-07 ва ҚМҚ 3.06.03-96 талабларига мувофиқ ёндоқишни талаб этади. Чунки, асфалтбетон қопламага қуёш нури, юқори ҳарорат, шамол, ёмғир, қор ва ҳароратнинг 0°C орқали ўтадиган кунлари салбий таъсир кўрсатади. Бу энг аввало, асфалтбетон қопламанинг юқори қатламида намоён бўладиган кислород таъсирида органик боғловчининг кимёвий таркибининг, қовушқоқлиги ва мўртлигини ўзгаришига олиб келади.

Бундай қопламалардан фойдаланишнинг кўп йиллик тажрибаси шуни кўрсатадики, баъзи ҳолларда улар лойиҳада белгиланган хизмат муддатига етиб бормайди, чунки қуруқ иссиқ иқлим шароитида деформация таъсирида ўзгаришлари яхши ўрганилмаганлиги ва маҳаллий иқлимдан келиб чиққан

ҳолда алоҳида ёндошилмаганлигидир. Шунингдек, асфалтбетондаги органик боғловчи ва минерал тўлдиргичларнинг чизиқли ҳарорат кенгайиш коэффиценти қопламани бузилишига олиб келувчи омил ҳисобланади.

Асфалтбетоннинг хоссаси ҳарорат билан боғлиқ бўлгани учун асфалтбетон қоплама ишини йилнинг тўрт даври бўйича кўриб чиқамиз.

Ёз даврида ҳарорат 40°C (баъзи вақтда 50°C) кўтарилиши ҳисобига қоплама юзаси 60°C - 70°C кўтарилади, ГОСТ 22245-90 га биноан ёпишқоқ, битумнинг юмшаш ҳарорати 33°C - 52°C га етади, натижада асфалтбетон юмшайди ва унинг мустаҳкамлиги 50°C да талаб қилинган 20°C га нисбатан 3-4 марта камаяди. Юқори ҳароратда юмшаган ва пластик ҳолатга келган асфалтбетонда деформация пайдо бўлади. Автомобил ғилдираги ҳаракатида горизонтал куч таъсирида асфалтбетонда сурилиш вужудга келиб, қопламада деформация пайдо бўлади. Асфалтбетон деформацияни тўлдириш имкониятига эга. Натижада узоқ муддат ва кўп марта автомобиль ғилдираги ҳаракати таъсирида қопламада бўйлама из ва кўндаланг тўлқин вужудга келади. Горизонтал куч тик куч миқдори $0,6\text{--}0,8\text{ МПа}$ ни ташкил қилиши мумкин.

Қоплама ҳолати ёпишқоқ-пластик бўлиб, ҳарорати 60°C - 70°C гача кўтарилади, қоплама юмшаб, бўйлама ва кўндаланг тўлқинлар ҳосил бўлади, сурилишга барқарорлик камаяди. Қоплама ҳолати эластик-пластик бўлиб, тўшама асосининг мустаҳкамлиги камаяди. Юпқа қатламли қопламада ёриқлар, бўртиш ҳосил бўлиб, майда зарралар ажралиб бузила бошлайди. Қоплама юзасидаги ҳарорат 70°C ва ундан юқорига кўтарилиб кетиши натижасида йўлда ботиқ излар, сурилишлар ҳосил бўлади.

Куз даврида тезда юқори ҳароратдан салбийга ўтиш натижасида асфалтбетонда чўзилувчан кучланиш вужудга келади, ҳароратни ўзгариш ҳисобига қопламада ёриқлар пайдо бўлади. Ёриқлар асфалтбетонни деформация қобилятини камайтиради. 0°C да муз эриб намлик ҳисобига асфалтбетонда киришиш вужудга келади, қайсики ҳароратни камайиши ва деформация ҳисобига ёриқ пайдо бўлади. Бундан ташқари, асфалтбетондаги қолдиқ, ғоваклик сув билан тўлиб барча майда ёриқларга киради. Бу сув қоплама юзасидаги энергияни камайтиради ва деформация натижасида янги юзани ташкил этади. Сув қатлами ҳаракат қилиб ғовакликларга кириб боради, минерал материалларни бир-биридан ажратади ва битум қатлами кўчиб чиқади. Ғоваклик кўпайиши ҳаво ва сувни циркуляциясини тезлаштиради. Бу эса, физик хоссасини ва битумни кимёвий хоссасини ҳарорат, ёруғлик, ҳаво ва сув таъсирида ўзгаришини тезлаштиради, қачонки, зичлик асфалтбетон қопламани физик-механик хоссаси ва хизмат муддатини оширишга имконият яратади. Натижада, асфалтбетон тузилишидаги боғлиқликни бўшаштиради ва автомобиль ғилдираги таъсирида қопламани бузилишини енгиллаштиради. Шунинг учун, кузда асфалтбетон қоплама юзасида бузилишни кузатиш мумкин, бир хил пайтда буни коррозия деб ҳам аталади.

Қиш даврида асфалтбетон қопламани ишлаши тезда ўзгаради. Қалинлик бўйича совиш даражаси ва ҳарорат натижасида деформацияни содир бўлиши асосан иссиқлик, физик тавсифи ва асфалтбетонни қатламига боғлиқ. Қоплама қанчалик қалин бўлса ва иссиқлик ўтказувчанлиги кам бўлса, унда ҳарорат шунча юқори бўлади ва ҳарорат кучланиши кам бўлади. Агар қоплама қалин бўлса, совиш аста-секинлик билан чуқурлашиб боради ва ҳар қайси қатлам чегарасида кучланиш сўнишига улгуради, қоплама катта қалинликда ҳарорат кучланиши тезда ўсади.

Қишки ҳарорат -10°C бўлганда асфалтбетон катта қаттиқликка эришади. Бу эластик модули ўзгаришини ифодалайди, қайсики қоплама ишини ёмонлашишига олиб келади. Қопламанинг чизикли кенгайиши одатда бетон, чақиқ тошли ва бошқа тур асосларга нисбатан 3-марта кўп (асфалтбетон тури А-0,00002, қумли тур Г-0,00003, цементбетон-0,001, салбий ҳароратда кўндаланг кенгайиш коэффициент 0,10 га тенг). Асфалтбетон ғовакларида сув музлаши натижасида, унинг босими ғовак деворига босим бериш ҳисобига катта кучланиш беради. Бу эса, эриганда майда ёриқларни тўлдиради, кейинчалик музлайди ва бузилиш жараёнини тезлаштиради.

Баҳор даврида асфалтбетон қопламанинг ишлаши қийинлашади, чунки тўшама асосининг мустаҳкамлиги камаяди, қаттиқлиги ва совуққа чидамлилиги қисман ўзгаради ҳамда асос сув эриши натижасида намланиши мумкин. Автомобил ғилдираги ҳаракати таъсирида ёриқлар, юпқа қатламли қопламада бузилиш вақт ўтиши билан содир бўлади. Вақт ўтиши ва ҳаракат жадаллигини ўсиши билан ёриқлар сони ортади, ёриқлар кўпайиб боради ва қопламани бузилишга олиб келади. Баҳорда қоплама узок муддатда сувга тўйиниши ва ҳароратнинг ўзгариши унинг тузилишида ўзаро алоқани сусайтиради, натижада бузилиш содир бўлади.

Баҳор даврида асфалтбетон қоплама етарли даражада мустаҳкам, сувга ва совуққа бардош бўлиши керак. Асфалтбетон қопламанинг йилнинг ҳар хил даврида ҳар хил шароитда ишлаши қурувчилардан асфалтбетон қоришма таркибини белгилаш, йўлга ётқизиш ва зичлашда иқлим шароитдан келиб чиқиб катта эътибор беришни талаб қилади.

Демак, иссиқ иқлим шароитида асфалтбетоннинг узок муддатга хизмат қилишини таъминлаш учун қуйидаги масалалар ечимини топиш ишлаб чиқаришни самарадорлигини оширади:

- маҳаллий иқлим шароити органик боғловчиларга алоҳида талаб қўйади, чунки, иссиқ иқлим шароитида ҳамма маркадаги битумларни ишлатиш мумкин эмас. Бундай шароитларда фақатгина юмшаш ҳарорати ёзнинг юқори ҳароратидан паст бўлмаган битумлардан фойдаланиш, яъни органик боғловчининг полимерлар билан модификацияланган турларидан фойдаланиш мумкин;

- асфалтбетонни силжишга бардошлилиги кўп ҳолларда минерал тўлдиргичларни гранулометриқ таркибини танланишига ва

уларнинг шаклига боғлиқ. Чақиқ тошнинг миқдори мустаҳкам каркас ҳосил қилиш учун етарли бўлгандагина қопламанинг силжишга бардошлигига эришилади. Кубсимон шаклли чақиқ тошларни ишлаб чиқаришни йўлга қўйиш ва таркибда фойдаланишни жадаллаштириш лозим;

- асфалтбетонга ва битумга қўйилган техник шартлар ва синов усуллари маҳаллий иқлим шароитини ҳисобга олиб қайта ишлаш ва хорижий стандартлар билан мутаносибликка келтиришда тажрибани ўрганиш мақсадга мувофиқ;

- асфалтбетон ва битум ишлаб чиқаришда кўпроқ фаол қўшимчалар ишлатишни йўлга қўйиш керак;

- қоришмалар таркибини лойиҳалаш, ишлаб чиқариш ва ундан қопламалар куриш ҳамда фойдаланиш босқичларида сифат назоратига катта эътибор бериш лозим.

Фойдаланилган адабиётлар

З.Х.Саидов, Т.Ж.Амиров, Х.З.Ғуломова. “Автомобил йўллари: материаллар, қопламалар, сақлаш ва таъмирлаш”. Ўқув қўлланма. Тошкент. 2010 йил.

ГОСТ 9128-2013 “Смеси асфальтобетонные, полимерасфальтобетонные, асфальтобетон, полимерасфальтобетонные для автомобильных дорог и аэродромов”. Технические условия.

ГОСТ 22245-90 “Битумы нефтяные дорожные вязкие”. Технические условия.

УДК 677 7/9.007

АВТОМОБИЛЛАРНИНГ ҲАРАКАТ ХАВФСИЗЛИГИНИ ТЎҚНАШУВ ЖАРАЁНИ ОРҚАЛИ БАҲОЛАШ

Уралбоев А.У.

Самарқанд давлат архитектура-қурилиш институти

В этой статье приведены результаты разработки методических рекомендаций и их применения в производстве в целях усовершенствования экологической безопасности движения автомобильного транспорта.

Working out (Elaboration) of methodical recommendations and the application of their results in production to increase the traffic security in Transport Parks.

Автомобилларнинг эксплуатацион хусусиятлар кўрсаткичлари транспорт оқимининг хавфсиз ҳаракатланишида иштирок этувчи барча қўйидаги ҳайдовчининг маҳорати, йўлнинг ҳолати, атроф – муҳит ва бошқа таъсир қилувчи омиллар орқали баҳоланади.

Шу ўринда автомобилнинг асосий эксплуатацион хусусиятларнинг йўл ҳаракат хавфсизлигини таъминлашда, тортиш динамикаси алоҳида ўрин тутди. Бизга маълумки тортиш динамикаси - автомобил двигателининг турлари, қуввати, белгиланган чегара тезлигида тезланиш олиш вақтини билдиради.

Йўл транспорт ҳодисаларининг олдини олиш учун автомобилнинг актив ҳамда пасив хавфсизлигини таъминлаш зарур бўлади. Актив хавфсизликни таъминлашда автомобилнинг турғунлиги ва бошқарувчанлиги, тортиш, тезлик ва тормоз хусусиятлари, конструкция элементларининг ишончлилиги муҳим роль уйнаса, пасив хавфсизлик таъминотида автомобильнинг айрим механизм, узеллари ва қисмларининг техник талабларга жавоб бера олиш ёки бера олмаслиги эътиборга олинади.

Суст хавфсизликни аниқлаш синовлари махсус полигон ёки стадионларда ўтказилади. Полигон шароитида автомобил қуйидагича синалади: ўзаро қарама – қарши тўқнашув ён томонидан ёки орқадан урилиши, ағдарилиб тушуши:

Аксарият енгил автомобилларнинг пасив хавфсизлиги орқадан тўқнашув ҳосил қилиш йўли билан амалга оширилади. Синов 30-35 км/соат тезликда ўтказилади, бак эса 90% ёнилғи билан тулдирилади.

Автомобиль кузовини зарба кучига синашда пружинали катапульталар яхши самара беради. Катапульта бўйлаб ҳаракатланувчи лебёдка пружинани чўзиб, унинг зўриққан ҳолати пневматик ишга тушуриш механизми орқали тўхтатилади.

Синалаётган объект массаси 2200 кг ни ташкил этади. Ишга тушуриш турткисидан бошлаб тўқнашгунча тезлик 50 км/соатга етади.

Автомобилларни пасив хавфсизликка синаш усуллари фақат турли хил зарбалар ҳосил қилиш билан чегараланиб қолмасдан балки махсус манекенлар иштирокида ҳайдовчи ёки йўловчиларга етказиладиган жароҳат имитация йўли билан аниқланади.

Лекин, санаб ўтилган усулларнинг ўзига хос камчиликлари хали бор.

Масалан, ҳар бир синов операциясини бажариш учун автомобилнинг натурал наъмунаси керак бўлади. Бу тадбирлар эса катта миқдордаги сарф-харажатлар билан боғлиқ.

Иккинчидан тажрибани такроран ўтказиш имконияти чегараланган бўлади, бу эса натижаларни маълум хатоликка олиб келиши мумкин. Учинчидан, ҳаракатдаги автомобилни ва тўсиқ орасидаги зарба қилиш жараёни тўлиқ бошқарилмайди. Қолаверса автомобилларнинг тўсиқларга урилиш ва уни енгиб ўтиш хусусиятини тўлиқ намоён этиш имконияти чегаралангандир.

Йўл транспорт ҳодисасини таҳлил қилишда бошқа аналитик усуллардан ҳам фойдаланилади.

Жумладан, автомобил йўл сатҳидан отилиб кетганда унинг тезлиги қўйидаги муносабатлар орқали аниқланади:

$$v = \frac{K_1 S}{\sqrt{S^n - h}} \quad (1)$$

Бу ерда: $K_1=7,97$ (2,2) тезликнинг ўзгариш коэффиценти.

N - йўл сатҳлари орасидаги фарқ.

N - бўйлама қиялик миқдори, м/м

S- босиб ўтилган масофа

Бу усулнинг асосий камчилиги ўлчов параметрлари ва таркибий қийматларнинг кўплиги билан таснифланади ҳамда амалий жиҳатдан фойдаланиш ноқулай.

Автомобил тормозланиш пайти босиб ўтган тормоз йўли узунлиги қўйидагича аниқланади.

$$S_t = \frac{t_2 v^2}{3,6} + \frac{K_2 V^2}{254 (\varphi \cos \alpha \div i)} M \quad (2)$$

Бу ерда: V-автомобилнинг бошланғич тезлиги км/соат

φ -тишлашиш коэффициенти: α -йўлнинг қиялик бурчаги:

T₂-тормоз узатмасининг таъсир қилиш вақти:

K₂-тормознинг эффиктив ишлаш коэффициенти.

Бу усул фақат соф тормозланиш учун яроқли бўлиб, тормоз жараёнида рўй берадиган зарба ёки тўқнашув параметрларини ҳисобга олмайди.

Автомобилнинг ҳаракатига ёки таянч тортишиш хусусиятига қаршилик кўрсатувчи муҳит сифатида асосан йўл ва ҳаво қаршиликлари йиғиндиси қабул қилинган. Хусусий ҳолда аэродинамик қаршилик қўйидагича топилади.

$$P_w = \frac{K_w * F_a * V_a^2}{13} \quad (3)$$

Бу ерда: K_w-ҳавонинг қаршилик коэффициенти, F- юза,

$$K_w = C_x * \rho / 2, \quad \frac{H * C^2}{M^4} \quad (4)$$

Бу ерда: C_x- айрилик коэффициент ρ - ҳавонинг зичлиги

$$\rho = \frac{h}{[21.2(273 + T)]} \quad (5)$$

Бу ерда: h – синов устунинг баландлиги

T – ҳаво даражаси, градус

Лекин, шу пайтгача бажарилган тадқиқот ишларида автомобиль бир қадар зич ёки етарлича қаттиқ муҳит билан учрашганда унга кўрсатиладиган қаршилик параметрларининг эксплуатация кўрсаткичларига таъсири ҳисобга олинмаган.

Шундай қилиб, автомобилларни ҳавфсизликка синашнинг экспериментал ва назарий усуллари бир-бири билан мантиқий боғланмаган.


Транспорт воситаларининг ўзаро тўқнашуви ёки тўсиқларга урилиш жараёнини тадқиқ этиш умумий эксплуатация хусусиятлар занжирида асосий ўринни эгаллаш ва автомобиль ҳавфсизлигини таъминлашдаги кўрсаткич ва ўлчагичларни антик баҳолаш зарур.

Статистик маълумотлардан яхши маълумки йўлларда содир этилаётган йўл-транспорт ҳодисаларининг аксарият ҳолатлари тўқнашув туфайли бўлаётганлиги қайд этилган. Тўқнашув натижасида транспорт воситаларининг техник шикастланиши, йўловчи ва ҳайдовчининг кучли зарб натижасида жисмоний шикаст олиши катта моддий зарарларнинг ошиб

кетишига олиб келмоқда. Транспорт воситаларининг тўқнашув натижасида содир этиладиган ЙТХларини олдини олиш ва зарар миқдорини камайтириш учун зарбани қабул қилувчи буферларга ўзгартишлар киритиш талаб этилади.

Ушбу ҳолатларни бартараф этиш мақсадида транспорт воситаларнинг тўқнашув жараёнида зарбадан муҳофаза этувчи қурилмани ишлаб чиқаришга тадбиқ этиш таклиф этилади. Бу қурилма қўйидаги қисмдан ташкил топган.

1. Муҳофаза этувчи камерали хаво тўлдирилган резина
2. Цилиндр. Цилиндр ички қисмида зарба кучини сўндирувчи поршен гурухи.
3. Поршен гурухи олдинги ҳолатини тикловчи пружина
4. Элементларни бириктирувчи метал лист.



Расм.1-втулкани ушлаб тургич хомут; 2-труба-втулка; 3- цилиндрсимон пружина; 4-резина подложка; 5-конуссимон пружина; 6-конуссимон пружинани ушлаб турувчи шпилка; 7-конуссимон пружинани учи жойлашган чуқурча; 8-буфер; 9-пружинага босим берувчи поршень; 10-поршеннинг пружина билан контакт юзаси; 11-конуссимон пружина ўтувчи резина.

Хулоса урнида шуни айтиш мумкинки, бу қурилма соддалиги ва оддийлиги билан ҳамда хавфсизликни таъминлашда юқори аниқлиги билан афзалдир. Ушбу қурилма транспортнинг жиддий техник шикастланиши, ўлим ва жароҳатланишлар олдини олиш ва моддий зарар кўришини камайтирди.

Адабиётлар

1. Азизов Қ.Х Ҳаракат хавфсизлигини ташкил этиш асослари Тошкент 2009 й.
2. Солиев Э.А, Қулмухаммедов Ж.Р, Адиллов О.К Йўл ҳаракати қоидалари ва биринчи тиббий ёрдам. Жиззах 2015 йил.
3. Х.Маматов Автомобиллар 2 - қисми Тошкент 1998 йил.
4. Э.З. Файзуллаев Транспорт воситаларини тузулиши ва назарияси Тошкент 2010 йил.
5. Аширбеков И.А. Машиналар ишончлилиги ва техник сервис Тошкент – 2017

УДК 656.1

МАГИСТРАЛ ЙЎЛЛАРДА ШОВҚИН МУҲОФАЗАСИ БЎЙИЧА НОРМАТИВ-ТЕХНИК ҲУЖЖАТЛАРНИ ТАҲЛИЛИ

А. У. Уралбаев (СамДАҚИ) , 3.Т.

Махамадалиев (Ўзбекистон Республикаси Ички Ишлар Вазирлиги академияси),

О.К.Адилов (Жиззах Политехника институти)

В этой статье приведена разработка методических рекомендаций и применения их результатов в производство в целях усовершенствования во время эксплуатация безопасности дорожного движения и перевозки автомобильного транспорта.

Ключевые слова: автомобиль, безопасность движения, дорожное движение, знаки дорожного движения, опасный участок.

This paper provides designing methodical recommendations and using there results to improve traffic safety in transport.

Key words: car, traffic safety, traffic, traffic signs, dangerous site

Ўзбекистон Республикасини мустақилликка эришганидан сўнг ижтимоий-иқтисодий ва сиёсий ўзгаришлар ҳаётга изчил жорий этила бошлади. Республикани бозор иқтисодиётига ўтиб бориши, хусусий мулкчиликни ва автомобил саноатини вужудга келиши, чет эллар билан тенг ҳуқуқли иқтисодий алоқаларни йўлга қўйилиши, фуқороларнинг моддий фаровонлигини ортиб бориши табиий равишда автомобил йўлларида ва шаҳар кўчаларида ҳаракат микдорини ортиб кетишига олиб келаяпти.

Статистика маълумотларига кўра Ўзбекистон Республикасида 1.09.07 йилда 1604406 нафар автомобиль рўйхатга олинган бўлса, шулардан 276720 нафари юридик ва 1327686 нафари эса жисмоний шахсларга тегишли экан.

Самарқанд автомобиль заводида Исузу, Асакада Шевролет оиласига мансуб бўлган ва динамик жиҳатидан аввалги автомобилларга қараганда юқори бўлган ҳар хил турдаги автомобилларни(автобус, юк ва енгил автомобиллар, махсуслаштирилган автомобиллар) ишлаб чиқарилишини йўлга қўйилиши, аҳолини моддий фаровонлик даражасини ошириб бориши ҳайдовчиларни тайёрлаш мактаблари сонини кескин равишда ортиб кетишига олиб келди. Бундай жараёнлар эса ўз навбатида ҳайдовчилар сафига минглаб янги ва ёш ҳайдовчиларни қўшилишига олиб келаяпти.

Бир пайтлар Республика бўйича ҳар 1000 нафар аҳолига 35 нафар енгил автомобил тўғри келган бўлса, бугунги кунда бу кўрсаткич янада ортиб бораёти. Ҳозирда Тошкент шаҳри ва вилоятининг ўзида ҳар 1000 нафар аҳолига 100 нафардан кўп енгил автомобил тўғри келаяпти.

Ишлаб чиқариш, транспорт ва муҳандислик коммуникация инфратузилмасининг республика иқтисодиёти тармоқлари ва ҳудудларини истиқболда ривожлантириш дастурлари билан боғлиқ ҳолда илдам ривожланишини таъминлаш мақсадида Ўзбекистон Республикаси Президентининг қарорида: "...транспортда юк ташишни ташкиллаштириш ва бошқариш тизимини янада такомиллаштириш, халқаро талаб ва стандартларга жавоб берадиган, кўп мақсадли замонавий самарадор транспорт-транзит инфратузилмасини яратиш, ҳар хил транспорт турлари – автомобиль, темир йўл ва авиация транспорти томонидан транспорт хизмати

кўрсатишда туташликни таъминлаш, Ангрен шаҳридаги ва Навоий шаҳри аэропорти негизидаги логистика интермодаль марказларининг моддий-техника базасини мустаҳкамлаш ва фаолият юритиш самарадорлигини ошириш, халқаро транспорт коммуникацияларига қисқа йўллар билан чиқишни ва транзит юк ташиш кўпайишини, минтақавий ҳамда дунё бозорларига чиқишни кенгайтиришни, экспорт салоҳиятидан фойдаланиш самарадорлигини ошириш ва миллий маҳсулотларни сотиш бозорларини кенгайтиришни таъминлайдиган янги транспорт йўлакларини шакллантириш” устувор йўналишлари борлигини эътиборга олиб Жиззах шаҳарда ҳам муҳим аҳамиятга эга бўлган логистика интермодаль марказ ташкил этилиши кераклигини такидлаб ўтди[1].

Лекин, транспорт воситалари миқдори ошиб бориши билан боғлиқ бўлган турли ҳодисалар миқдори ҳам ошиб бормоқда, айниқса транспорт воситалари конструкциясига оид шовқин даражаси.

Жаҳон миқёсида транспорт воситалари тараққиёти йилдан-йилга тобора ривожланиб, йирик шаҳарлардаги шовқин миқдори меъёрадаги 10-12 децибалдан ошиб кетаётганлиги ниҳоятда ташвишлидир. Дарҳақиқат, олимлар таъкидлаганидек, шовқин ҳозирги замон офати ва техника тараққиётининг энг нохуш ва зарарли маҳсулидир.

Ишлаб чиқариш ривожланган мамлакатларда транспорт воситалари шу қадар кўпайиб кетганки, сўнгги йилларда (2007 — 2017) олиб борилган статистикага кўра дунёда ҳар 1000 кишига тўғри келадиган автомобиллар сони Монако (908), АҚШ (802), Лихтенштейн (796), Исландия (746), Малта (743), Люксембург (739), Австралия (730), Қатар (724), Янги Зеландия (718), Бруней (696) тўғри келади. [35]. Ўзбекистонда деярли ҳар бир хонадонда ўртача ҳисобда 1-2 та транспорт воситаси бор.[3]. Статик маълумотларга кўра, 2016 йил ер юзидда 1 миллиарддан ортиқ автомобил мавжуд. Жаҳон автомобил саноатининг ўсиши Хитой ва АҚШ каби мамлакатларда янги автомобилларни сотиш ҳажмининг ошиши билан давом этмоқда. 2050 йилга бориб 2,5 миллиардга яқин автомобил рўйхатдан ўтиши кутилмоқда[4]. Бу эса улардан чиқаётган заҳарли газлар, кўтарилаётган шовқин миқдори ошиши ва инсон саломатлигига катта зарар етказди.

Товуш механик энергиянинг материя бўйлаб тўлқинлар ёрдамида тарқалишидир. Ҳар қандай тебраниш тўлқинлари атроф-муҳитнинг бирор қисмидан ўтар экан, ундаги маълум бир заррачаларни тебратади. Бу тебранишлар, албатта, бир заррачадан иккинчисига ўтиб, ҳавода узунасига кетган тўлқинлар ҳосил қилади. Бизнинг эшитув аъзоларимиз шуларни товуш сифатида қабул қилади. Илмий маълумотларга кўра, одам қулоғи умуман 16 дан 20000 гертцгача бўлган турли товуш сигналларини қабул қилиш имкониятига эга. У секундига бир марта тебраниши 2 гертц частотадаги тебранишни қабул қила олади. Бундан ортиғи инсон организмига фақат салбий таъсир кўрсатади. Уй-жойлар серкатнов кўчага қаратиб қурилганида деразалардан ичкарига кирадиган шовқин даражаси 6000

детцибаллгача этиши мумкин. Бу ўз навбатида шаҳар кўчалари ва серкатнов йўллар атрофидаги уйларда яшайдиган аҳоли саломатлигига салбий таъсир кўрсатади[4].

Автомобил транспорти шовқинига қарши кураш бўйича илмий тадқиқотлар ўтган асримизнинг 70-йилларидан бошланди. Автомобил ишлаб чиқариш фаолиятининг кучли ривожланганлиги, унинг одамлар орасида оммолашганлиги билан аҳоли зич жойлашган ҳудудларда, шаҳарларда автомобил шовқинининг салбий таъсири ўз-ўзидан пайдо бўла бошлади. Шовқиндан сақланиш ва унга қарши кураш бўйича давлат стандартлари ва норматив техник ҳужжатлар ишлаб чиқилди. Автомобил йўллари ва кўприкларини лойиҳалашда, бино иншоотларни қуришда, шаҳарсозлик ишларида бу стандартларига амал қилинди.

В бассейне развито интенсивное орошаемое земледелие, и поэтому как сама река Кашкадарья, так и ее притоки практически полностью разбираются на орошение. Собственных водных ресурсов, формирующихся в бассейне не хватает и в Кашкадарьинскую область подается вода из рек Амударьи и Зеравшана по Каршинскому магистральному каналу (КМК) и регулируется Талимарджанским водохранилищем. На долю переброски стока воды из реки Амударьи приходится до 80% потребляемой воды. Поверхностные воды, поступающие с горных территорий в основном удовлетворительного качества.

Гидрологический режим нижних участков рек изменился под влиянием хозяйственной деятельности. Качество воды реки Кашкадарья ухудшается от истока вниз по течению. Годовое значение индекса загрязнения вод в створе пос. Чимкурбан, начиная с 1997 года, соответствует II классу чистых вод, за исключением 2000 и 2006 гг., когда оно соответствовало III классу умеренно загрязненных вод.

Произошедшие в Узбекистане климатические изменения, связанные, прежде всего, с ростом температуры воздуха привели к уменьшению вклада талой составляющей и увеличению дождевой на процесс формирования речных вод бассейна рек Кашкадарья, о чем свидетельствуют гистограммы (рис.3, таблица 1).

Подземные воды. Подземные воды составляют существенную часть водных ресурсов Кашкадарьинской области и играют важную роль в питьевом и сельскохозяйственном водоснабжении, в том числе орошении и обводнении пастбищ. Подземные воды бассейна рек Кашкадарья, формируются за счет осадков, фильтрации из водоемов, речных русел бассейна рек Кашкадарья, каналов и орошаемых территорий. Существует хорошая налаженный мониторинг наблюдения за состоянием подземных вод бассейна рек Кашкадарья(рис.6).




Рисунок 6. Изменение условий формирования стока рек Кашкадарья из-за климатических изменений по данным гидропоста Чиракчи (Источник отчет НИИИВП и УзГидромет по мегапроекту)

В бассейне Кашкадарьи для обеспечения водой орошаемых земель построены Чимкурганское водохранилище на р. Кашкадарье в 1961 г., Камашинское и Пачкамарское на р. Гузардарье, на реках Акдарье и Яккабагдарье.

Из-за отсутствия гидравлической связи между рекой Гузардарья и Пачкамарским водохранилищем в ней в балансовых уравнениях их участия не принимаются во внимание. Среднегодовое стока Кашкадарьи составляет 1,41 км³. Из-за интенсивного забора воды на орошение после выхода ее из гор не все реки бассейна Кашкадарьи имеют постоянный транзитный сток. Среднегодовые изменения стока рек бассейна Кашкадарьи представлены на рис. 2-5. Вода прибывает в реку в основном в начале лета, а для аккумуляции весенне-зимних расходов построены в русле Кашкадарьи Чимкурганское водохранилище, на Гузардарье – Пачкамарское, а также Камашинское водохранилища. Общая емкость этих водохранилищ 800 млн. м³. Вместе с этим орошаемая площадь области составляет 505 тыс. га земель. А потребность воды в области составляет 6,6 км³/год, в т.ч. для ирригации 5,4 км³/год, для питьевого водоснабжения 139 млн. м³/год, промышленности более 380 млн м³/год.

Тем не менее бассейн р.Кашкадарья является основным источником пресной воды Кашкадарьинской области. Вместе с этим изменение климата резко сократили объемы ледников (рис.25) в бассейне р.Кашкадарья, что привело существенному сокращению стока воды в вегетационные периоды сельскохозяйственных культур, а на р.Амударья в связи со строительством на реке крупных водохранилищных сооружений для выработки электрической энергии ухудшились условия водозабора в Кашкадарьинскую область.

Выводы. Осуществлен прогноз формирования ресурсов речных вод, установлено негативное тенденция –сокращение объем формирующихся речных вод бассейна р.Кашкадарья, в связи с этим возникает острая необходимость создание моделей, в том числе математических и компьютерных для осуществления оперативного анализа и принятия эффективных мер по управлению использованием водных ресурсов р.Кашкадарья.

Список литературы

1. Авакян А.Б., Широков В.М. Комплексное использование и охрана водных ресурсов. –М.: Наука, 1990. – 243 с.
2. Булавко А.Г. Водный баланс речных водосборов. –Л.: Гидрометеиздат, 1971. -304 с.
3. Духовный В.А. Интегрированное управление водными ресурсами, Опыт и уроки

Центральной Азии -навстречу 4му Всемирному водному форуму -Ташкент, 2005, с. 97.

4. Кучкарова Д.Х. Методы управления использованием водных ресурсов бассейнах малых рек//ТДиссертация на соискание ученой степени (PhD) доктора наук.

СПОРТ МАКТАБЛАРИ СУВ ТАЪМИНОТИ КОМПЛЕКС ТИЗИМЛАРИ ТАҲЛИЛИ

Мусаев Ш.М, Хажиматова М.М. (ЖизПИ)

Circular water supply systems are widely used in the design and construction of swimming pools in sports schools. When using swimming pools, the correct choice of water supply and sanitation systems is important to ensure normal sanitary, hygienic, and technological regimes. In Uzbekistan, two types of water supply systems are used for swimming in swimming pools: for domestic needs of novice swimmers and maintenance personnel, the other is for technological processes.

The function of the process water supply system is to supply sufficient drinking water to the pool and purify the water used in the pool. The water used in the bath is filtered and disinfected at the wastewater treatment plant and recycled to the pools for reuse.

Системы обратного водоснабжения широко используются при проектировании и строительстве бассейнов в спортивных школах. При использовании плавательных бассейнов правильный выбор систем водоснабжения и канализации важен для обеспечения нормальных санитарно-гигиенических и технологических режимов. В Узбекистане для плавания используются два типа систем водоснабжения в бассейнах: для бытовых нужд начинающих пловцов и обслуживающего персонала; другой служит для технологических процессов.

Функция системы водоснабжения технологических процессов состоит в том, чтобы подавать достаточное количество питьевой воды в бассейн и очищать воду, используемую в бассейне. Вода, используемая в ванне, фильтруется и дезинфицируется на очистных сооружениях и повторно направляется в бассейны для повторного использования.

Спорт мактаблари сув таъминоти ва канализация тизимларини лойиҳалаш. Спорт мактабларининг совуқ сув таъминоти тизими одатда умумлаштирилган бўлиб хўжалик-ичимлик ва ёнғин ўчириш учун хизмат қилади. Ички ёнғин ўчириш учун КМК 2.04.01-98 нинг 6.1 бандига асосан бир оқимли сув сарфи 2,6 л/сек бўлган ёнғин кранлари лойиҳа қилинади. Ички водопровод тармоғи битта киришдан иборат сувни юқоридан тарқатувчи шахобчали тасвирга эга бўлади. Лойиҳа бўйича совуқ сувни санитар-техник жиҳозлар ва технологик ускуналарга узатиш кўзда тутилади. Сув таъминоти тармоғи диаметри 15-50 мм 3262-80-бўлган рухланган газ сув ўтказувчи пўлат қувурлар ва диаметри 15-50 мм 18599-83 PN (0,6МПА) бўлган босимли полипропилен қувурлардан лойиҳа қилинади.

Иссиқ сув таъминоти одатда мактабнинг маҳаллий қозонхонасидан таъминланади. Тупроқнинг чўкувчанлигини ҳисобга олган ҳолда 0.00 белгидан чуқурда ётқизилган қувурлар махсус каналда жойлаштирилади ва назорат қудуғи ўрнатилади.

Сув сарфини ҳисобга олиш водопроводнинг бинога кириш қисмида ўрнатилган сув ўлчаш тугуни орқали амалга оширилади.

Аксарият ҳолларда спорт мактаблари таркибида ўқув спорт машғулотларини ўтказиш учун ёпиқ сузиш сув бассейнлари лойиҳа қилинади. Ўқув спорт мақсадлари учун мўлжалланган сузиш бассейнлари узунлиги 12,5м ва эни эса сузиш йўлакчалари сонига боғлиқ равишда қабул қилинади. Сузиш йўлакчалари сони одатда 4,6 ва 8 тани ва ҳар бир йўлакча эни 2-2,5м ни ташкил қилади. 1соат давомида сузиш бассейнидан фойдаланувчилар сонини қуйидаги ифода орқали топиш мумкин:

$$N_{\sigma} = 60F/f \cdot t \quad (1)$$

Бу ерда F-бассейндаги сув юзасининг майдони, м²; f-1 кишига тўғри келадиган меъёрий сув юзаси майдони, м² (ўқув машғулотлари учун f=5-10) t-фойдаланувчининг бассейнда бўлиш вақти, (ўқув машғулотларида t=10-20).

Бассейн юзасининг майдонини қуйидаги формула орқали ҳисоблаш мумкин:

$$F = \frac{N \cdot P \cdot m \cdot f \cdot t}{6000 \cdot T} \quad (2)$$

Бу ерда N-фойдаланувчилар умумий сони, киши;

P-ўқув машғулотларида бассейннинг ишлатилиш фоизи;

m-ҳафта давомида бир кишининг бассейнга келиш сони;

T-бир кеча-кундуз давомида бассейннинг ишлатилиш давомийлиги, соат

Сунъий сузиш сув бассейнларини лойиҳалаш ва қуришда санитария-гигиеник нуқтаи назаридан асосий эътибор тизимни юқори сифатли сув билан таъминлашга қаратилади. Сув сифатининг пасайиши бассейндан фойдаланувчиларнинг касалланишига олиб келиши мумкин.

Одатда сув бассейнларини таъминлашда ичимлик суви ишлатилади ва сувнинг сифати «Ичимлик суви» талабига жавоб бериши керак. Шунинг учун ҳам сузиш бассейнларида сувнинг ранги 5 градусдан, таркибидаги муаллақ заррачалар миқдори эса 1 мг/л дан ошмаслиги керак.

Бассейнда ўрнатиладиган санитар техник жихозлар сони фойдаланувчилар сонидан келиб чиққан ҳолда ҳар 3та фойдаланувчига битта душ сеткаси ва ҳар 30та фойдаланувчига битта унитаз лойиҳа қилинади.

Бассейннинг техник талаби учун сув сарфи унда қабул қилинган технологик тизимга асосан ҳисобланади.

Сузиш бассейнларини лойиҳалаш ва қуришда бассейнга сувни узатиш қуйидаги иккита кўринишда амалга оширилади:


- 1.Тўғридан-тўғри
2. Айланма

Тўғридан-тўғри сув таъминоти тизимида бассейндаги сув даврий равишда тўлигинча алмаштирилади ёки бассейнга сув тўхтовсиз тушиб туради ва ифлосланган сув оқизиш орқали канализация тармоғига чиқазилади. Мазкур тизим сувдан самарали фойдаланиш бўйича қўйилган талабга жавоб бермайди ва иқтисодий нуқтаи-назаридан анча қимматга тушади.

Айланма сув таъминоти тизимида ишлатилган сув махсус иншоотда тозалангандан сўнг қайтадан бассейнга юборилади. Мазкур тизим бугунги кунда сузиш бассейнларида кенг қўламда қўлланилиб келинмоқда ва сувнинг юқори санитар-гигиеник сифатини таъминлашга хизмат қилаёпти.

Спорт мактаблари иссиқ сув таъминоти ва сув иситгич қурилмалари таҳлили. Сигимли сув иситгичларни танлашда берилганлар сифатида сувни иситиш учун иссиқлик ҳисобли сарфи, Вт, тўйинган парнинг ишчи босими, Мпа, иситилаётган сувнинг бошланғич ва охириги ҳарорати, С қабул қилинади ва шу параметрлар асосида змеевикнинг иситиш юзаси аникланади. Олинган натижалар бўйича сув иситгич маркаси танланади (1-жадвал).

Махаллий казон агрегатдан бассейн ваннаси сувини иситиш учун икки ва тўрт киришли парсувли тезкор сув иситгичлар қўлланилади. 2-расмда икки киришли парсувли тезкор сув иситгичнинг қурилиш тасвири ва 2-жадвалда эса парсувли тезкор сув иситгичнинг техник тавсифномаси келтирилган




1-расм. Сигимли парсувли сув иситгич тасвири

1-змеевик; 2-корпус; 3-иссиқ сувни чиқазиш патрубкиси; 4-химоя клапани; 5-совуқ сувни киритиш патрубкиси; 6-парни юбориш; 7-конденсатни чиқазиш.

1-жадвал

СТД типигадаги сигимлипарсувли горизонталь сув иситгичларнинг техник тавсифи

Белгиси	Сигими, л	Змеевикни иситиш юзаси, м ²	D	L	d	Сувсизмас саси, кг
№1 (СТД 3068)	1000	1,3	912	2270	50	436
№1,6 (СТД 3069)	1600	2,06	912	3380	50	579
№2,5 (СТД 3070)	2500	3,16	1212	3030	50	716
№4 (СТД 3071)	4000	4,87	1212	4430	80	1000




2-расм. Икки киришли парсувли тезкор сув иситгичнинг қурилиш тасвири
2-жадвал

Парсувли тезкор сув иситгичларнинг техник тавсифи

Белгиси	Иситиш юзасининг майдони, м ²	D	L	l	d	Массаси, кг
Икки киришли сув иситгичлар						
ПП 2-6-II	6,3	325	2550	1100	108	390
ПП 9-7- II	9,5	325	3550	2000	108	485
ПП 11-2-II	11,4	426	2575	1100	159	600
ПП 17-7- II	17,2	426	3575	2000	159	730
ПП 24-7- II	24,4	480	3630	2000	159	915
Тўрт киришли сув иситгичлар						
ПП 2 - 9-7- IV	9,5	325	3550	2000	108	485
ПП 2-17-7- IV	17,2	426	3575	2000	108	730

Марказий иссиқ сув таъминоти тизимида бассейннинг иссиқ сув тизими бевосита тармоқдан сувни олиш принципи бўйича ишлаши мумкин ёки система ҳарорати 65⁰-70⁰ С бўлган иссиқ сувни йиғиш махсус сиғими билан жихозланиши мумкин. Марказий иссиқ сув таъминоти тизимида бассейн ваннаси суви тезкор секцияли сув иситгичлар ёрдамида иситилади.


Сузиш сув бассейнларининг инженерлик тизимлари. Сузиш сув бассейнлари бир бири билан ўзаро узвий боғланган ва белгиланган технологик режимни таъминлаш учун хизмат қилувчи муҳандислик иншоотлари ва қурилмалари ҳисобланади. Сузиш сув бассейнларининг ўлчам ва шакли бассейннинг вазифасига ва фойдаланиш турига боғлиқ равишда танланади (3 - расмга қаранг).



3 - расм. Сузиш сув бассейнлари бўйлама қирқимининг схемалари.

а - ўқув - спорт бассейнлари; б - соғломлаштириш бассейнлари; в - болалар бассейнлари.

“Ёпиқ занжирли айланма сув таъминоти тизими” йўлга қўйилган бундай сузиш сув бассейнларидан сувдан бўшатилмаган ҳолда 1...2 ой мобайнида узлуксиз фойдаланиш мумкин. 4 - расмда “ёпиқ занжирли айланма сув таъминоти тизими” жорий этилган сузиш сув бассейнининг схемаси кўрсатилган.



4- расм. “Ёпиқ занжирли айланма сув таъминоти тизими” жорий этилган сузиш сув бассейнининг ишлаш схемаси.

1 - сув билан таъминлаш манбаи; 2 - сув сарфини ўлчаш узели; 3 - хўжалик ва маиший эҳтиёжлар учун узатиладиган совуқ ва иссиқ сув тармоқлари; 4 - сув иситиш қурилмаси; 5 - сузиш сув бассейни ваннаси; 6 - сувни зарарсизлантириш қурилмаси; 7 - коагулятор қурилмаси; 8 - сеткали (турли) фильтр қурилмаси; 9 – сувларни аралаштириш қурилмаси; 10 - донадор қатламли фильтр қурилмаси; 11- циркуляцион насос агрегати.

Сузиш сув бассейнларида сув режимининг асосий параметрлари қуйидагилар ҳисобланади:

1. Ваннада қулай сув алмашинувини таъминловчи циркуляцион сув сарфи ($Q_{\text{ц}}$);
2. Ваннадан фойдаланилганда йўқотиладиган сувнинг сарфини тўлдириш учун узатиладиган қўшимча сув миқдори.

Циркуляцион сув сарфи сув таъминоти тизими фаолиятини таъминловчи асосий параметр сифатида бир неча факторларга боғлиқ бўлгани учун унинг миқдорини ҳисоблаш масаласи ҳозирги кунга қадар кўпгина тортишувларга сабаб бўлиб келмоқда.

Бир қатор давлатларда бассейнга узатиладиган циркуляцион сувнинг миқдорини ҳисоблашда “бир чўмилувчига тўғри келувчи нисбий сув сарфи” катталигидан фойдаланилади. Лекин, нисбий сув сарфи турли давлатларда турлича белгиланган. Масалан: Францияда бир кишига - $3,0 \text{ м}^3$, Германияда - $2,0 \text{ м}^3$, АҚШда - $0,2 \text{ м}^3$ қабул қилинган.

Сузиш сув ваннасидан фойдаланиш режимлари, яъни санитария - гигиена шартлари бўйича узатиладиган циркуляцион сувнинг миқдори қуйидаги формула билан ҳисобланиши мумкин:

$$Q_{\text{и}}^{\text{I}} = \frac{F \times \tau}{f \times \alpha} \text{м}^3 \text{соат} \quad (3)$$

Формулада: F - вананинг сув сирти юзаси, м^2 ; τ - сузиш сув бассейнидан бир кеча - кундузда фойдаланиш даври (10...16) соат; f - бир чўмилувчига тўғри келадиган меъёрий сув юзаси (2... 10) м^2 ; α - бассейндан фойдаланиш режимини ҳисобга олувчи коэффициент.

Узатиладиган циркуляцион сув билан бассейн сувининг самарали гидравлик аралашини таъминлаш шартлари бўйича қуйидаги формуладан фойдаланиш мумкин.

$$Q_{\text{и}}^{\text{II}} = \frac{209 \times V_{\text{в}} \times d_0 \times \kappa}{b^2 + 6.9 \times d_0 \times b} \quad (4)$$

Формулада: $V_{\text{в}}$ -сузиш бассейнида сувнинг ҳажми, м^3 ; d_0 -циркуляцион сувни узатувчи тармоқ қувуридаги тешиқлар ўлчами (0,025;0,05 м); κ - сувнинг тезлик коэффициенти (бассейн деворидаги тирқишлардан чиқаётган сувнинг тезлиги 0,8; 1,0; 1,5; 2,0 м/с бўлганда, мос равишда 0,9; 1,1; 1,6; 1,8 га тенг); b - сузиш сув бассейни эни ўлчамининг ҳисобий қиймати, м, b қ(0,5...0,75)В;

Циркуляцион сувни узатувчи тармоқ қувуридаги тешиқлар сони қуйидаги формула билан аниқланиши лозим

$$n_{\text{и}} = \frac{0,155 \times Q_{\text{и}}}{b \times d_0} \quad (5)$$

Чўмилиш ваннасида сув режимини таъминлаш шартлари бўйича циркуляцион сувнинг миқдори қуйидаги формула билан ҳисобланади:

$$Q_{\text{и}}^{\text{III}} = \frac{V_{\text{в}} \times H_0^{0,23} \times \nu_{\phi}^{0,17} \times p^{0,12}}{18,43} = \frac{V_{\text{в}}}{T} \quad (6)$$

Формулада: H_0 - сув манбаида сувнинг тиниқлик кўрсаткичи, градус;

ν_{ϕ} - сувларни тозалашда филтрлаш тезлиги, $\text{м}^3 \text{ғм}^2 \times \text{соат}$;

p - чўмилишнинг муайян тури бўйича бассейндан бир кеча - кундузда фойдаланиш кўрсаткичи, бир чўмилувчи учун-0,1...2,0 киши $\cdot$ м³.

Сузиш сув бассейнларидан фойдаланилганда сувнинг буғланиши ҳамда чўмилувчилар ҳисобига маълум миқдорда йўқотиладиган сувнинг миқдори янги таҳрирдаги қурилиш меъёрлари ва қоидалари тавсияларига кўра - 10% дан ошмайди, яъни

$$Q_{\text{кўш}} \leq (0,05 \dots 0,10)\% \quad (7)$$

Қўшимча сув миқдори манбадан олиниб, фильтр қурилмалари орқали сузиш ваннасига узатилади. Сузиш сув бассейнларини лойиҳалашда тегишли коммуникацияларни ётқизиш ва муҳандислик жиҳозларини ўрнатиш ишлари қабул қилинган меъморий ва муҳандислик ечимларига, ҳамда техникавий эстетика принципларига амал қилинган ҳолда бажарилиши лозим.

Сузиш сув бассейнлари учун қабул қилинадиган иситиш тизимлари бассейннинг йўлакчалари ҳамда полларни қиздириш (иситиш) учун ҳам хизмат қилиши лозим. Айрим ҳолларда ҳавони кондициялаш (мўтадиллаштириш, маромлаш) қурилмаларидан ҳам фойдаланиш тавсия этилади. Сузиш сув бассейнлари жойлашган бино учун ҳавонинг зарурий “иссиқлик - намлик режимлари” ни таъминлашга алоҳида эътибор қаратилди.

Сузиш сув бассейнлари мажмуасининг вентиляция тизимлари, электр энергияси билан таъминлаш ва ёритиш тизимлари махсус ҳисоблашлар асосида танланади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. «Сув ва сувдан фойдаланиш тўғрисида» ги Ўзбекистон Республикаси қонуни. Тошкент, 1993
2. «Табиатни муҳофаза қилиш тўғрисида» ги Ўзбекистон Республикаси қонуни. Тошкент, 1992
3. Кедров В.С., Рудский Г.Г. Водоснабжение и водоотведение плавательных бассейнов.- М.: Стройиздат, 1991
4. КМК 2.04.02-97. Қурилиш меъёрлари ва қоидалари. Сув таъминоти. Ташқи тармоқлар ва иншоотлар. Архитектура ва қурилиш соҳаси бўйича Ўзбекистон Республикаси давлат қўмитаси. Тошкент, 1997.

МЕТОДИКА РАСЧЕТА ГИДРАВЛИЧЕСКОГО УДАРА В НАПОРНЫХ ТРУБОПРОВОДАХ СИСТЕМ ВОДОСНАБЖЕНИЯ И КАНАЛИЗАЦИИ

Негматов М.К., Нишонов Ф.Х., Султанов С.С.

(Наманганский инженерно-строительный институт)

Представлены результаты исследований по разработке методики расчета гидравлических ударов, происходящих в магистральных водоводах с учетом потерь напора на трение, трассировки сетей и характеристики регулирующего органа. Результаты исследований позволяют правильно выбрать способы и средства защиты магистральных водоводов от гидравлических ударов.

This paper presents the research of methods for calculating hydraulic hammer occurring in main water pipeline taking into account friction head losses, network tracing and characteristics of the regulatory. The results of research allow to choose the right methods and means of protection of main pipelines from water hammer effects.

Ключевые слова: Системы водоснабжения и водоотведения, гидравлический удар, напорные трубопроводы, моделирование гидравлического удара.

Системы водоснабжения и канализации являются одной из важнейших отраслей городского хозяйства, основными задачами которых состоят в обеспечении всех потребителей питьевой водой необходимого качества, в требуемом количестве, под определенным напором и с достаточной степенью надежности, а также поддерживать санитарную безопасность населения при отводе сточных вод, их очистке и обеззараживании образующихся осадков.

При проектировании, реконструкции и строительстве указанных систем необходимо проводить расчет изменения давления и скорости воды в трубопроводах при гидравлическом ударе, который часто является одной из основных причин аварий при эксплуатации трубопроводных сетей. Причины возникновения гидравлического удара могут быть разными: быстрое закрытие или открытие запорных и регулирующих устройств; внезапное отключение от энергии электродвигателей насосных агрегатов; выпуск воздуха через гидранты при заполнении трубопроводов водой; пуск насосного агрегата при открытой задвижке на нагнетательной линии. Особенно отчетливо гидравлический удар проявляется при резком закрытии задвижки в конце трубопровода. Увеличение давления при этом может оказаться весьма значительными и привести к серьезным авариям в системе. Теоретические и экспериментальные исследования гидравлического удара в трубах впервые были выполнены проф. Н.Е. Жуковским, который в работе «О гидравлическом ударе в водопроводных трубах», вышедшей более ста лет назад доказал, что гидравлический удар является быстропротекающим волновым процессом. Характер этого процесса зависит от сжимаемости жидкости и упругости стенок трубопровода и состоит из колебаний давления [1].

Согласно требованиям действующих в Республике Узбекистан строительных норм и правил КМК 2.04.03-96 «Канализация. Наружные сети и сооружения» как расчет, так и подбор противоударных мер и средств надлежит производить по КМК 2.04.02-97 «Водоснабжение. Наружные сети и сооружения». Но выбор средств защиты от гидравлических ударов для напорных трубопроводов представляют особую сложность.

Для защиты трубопроводов от гидравлических ударов решающее значение имеют совершенные методы расчета и надежная конструкция

противоударных устройств, а также правильная их эксплуатация. Метод расчета должен позволять получить достаточно точные значения ударных давлений на протяжении всего трубопровода.

В Наманганском инженерно-строительном институте проведены исследования по разработке методики расчета гидравлических ударов, происходящих в магистральных водоводах с учетом потерь напора на трение, трассировки сетей и характеристики регулирующего органа. Результаты исследований позволяют правильно выбрать способы и средства защиты магистральных водоводов от гидравлических ударов, что в свою очередь повышают надежность работы систем водоснабжения и канализации.

Исследования проводились аналитическими методами с последующей экспериментальной проверкой на опытах, описанных в технической литературе. Проведя анализ различных переходных процессов в напорных трубопроводах при гидравлических ударах, определялись основные требования к математическим моделям, использующимся в расчетах. В свою очередь математические модели сформулированы с использованием теории неустановившегося движения жидкости в напорных трубопроводах. Проверка точности расчетных данных осуществлялась по сравнению с известными опытными данными, полученными различными исследователями.

В основном рассматривались линейные трубопроводы, оборудованные на одном их конце регулирующим органом (насосом или задвижкой), а на другом конце регулирующим резервуаром [2,3]. На основе метода характеристик создан алгоритм расчета гидравлических ударов в горизонтальных водоводах, включая случаи гидравлического удара, сопровождающегося понижением давления ниже атмосферного. Используя метод характеристик разработан алгоритм расчета различных случаев гидравлического удара в водоводах со сложным рельефом местности, где существует возможность разрыва сплошности потока в нескольких точках [4,5]. По результатам расчёта можно построить диаграммы изменения напора в характерных точках на протяжении всего времени процесса гидравлического удара, вызванного остановкой, пуском насосного агрегата, срабатыванием обратного клапана или закрытием задвижки.

Разработанные нами методики позволяют не только установить параметры неустановившегося движения в трубопроводе при ударе, но и определить необходимые, достаточные и эффективные в каждом конкретном случае меры по защите трубопровода от последствий гидравлического удара.

Разработанные программы расчета неустановившегося движения воды при гидравлическом ударе в напорных трубопроводах использовались при расчете параметров гидравлического удара и определении необходимых и эффективных противоударных средств на магистральных водоводах в городах Намангане и Фергане, а также в учебном процессе Наманганском

инженерно-строительном институте при выполнении студентами курсовых и дипломных работ, а также магистерских диссертаций.

Использованная литература

1. Жуковский Н.Е. О гидравлическом ударе в водопроводных трубах. М., Гостехиздат. 1899.
2. Свидетельство об официальной регистрации программы для ЭВМ. № DGU 07154. Моделирование гидравлического удара в прямой длинной трубе. Мадалиев Э.У., Негматов М.К., Мадалиев М.Э., Иброхимов А.Р. 04.09.2019. Ташкент, 2019.
3. Свидетельство об официальной регистрации программы для ЭВМ. № DGU 06386. Шифрование и дешифрование информации путём произвольного местообмена в программе Visual ++. Ирискулов Ф.С., Негматов М.К., Негматов У.М. 15.05.2019. Ташкент, 2019.
4. Свидетельство об официальной регистрации программы для ЭВМ. № DGU 05696. Математическая модель действия гидравлического удара смеси жидкостей в трубопроводе. Жовлиев У.Т., Нишонов Ф.Х., Нишонов Х.Х., Худайкулов С.И. 27.09.2018. Ташкент, 2018.
5. Патент Республики Узбекистан № IAP 2013 0362. Поршневой гидротаран. Урушев А.Э., Салиев Б.К., Худайкулов С.И., Нишонов Ф.Х. 04.09.2013.

УДК 628.158.28

СУВ ТАШЛОВЧИ ВА СУВ ЧИҚАРУВЧИ ИНШООТЛАР ТУРЛАРИ ВА УЛАРНИ ҚЎЛЛАНИШ СОҲАЛАРИ

Б.М.Норқулов., Б.М.Саидов(СамДАҚИ)

Водохранилища ГЭС часто поднимают уровень водохранилища в результате поверхностных течений, протекающих в зону водосбора. Когда водохранилище заполнено до нормального уровня, избыток воды сбрасывается в нижний бассейн плотины или, при наличии благоприятных условий, в нижний бассейн через дренажные сооружения. Дренаж часто проводится при ускоренном уровне воды в резервуаре, в некоторых случаях он также проводится на нормальном уровне. В данной статье приводятся рекомендации по проектированию водоемов в зависимости от типа дренажа и дренажных сооружений


HPP reservoirs often raise the reservoir level as a result of surface currents flowing into the catchment area. When the reservoir is filled to a normal level, excess water is discharged into the lower basin of the dam or, in the presence of favorable conditions, into the lower basin through drainage facilities. Drainage is often carried out at an accelerated level of water in the tank, in some cases it is also carried out at a normal level. This article provides recommendations on the design of reservoirs depending on the type of drainage and drainage facilities.

Калит сузлар: қайир, затворсиз, тиргак девор, қувурли туннеллар, қувурли-минорали, комбинациялашган.

Тадқиқот мақсади: Сувга бўлган эҳтиёжнинг ошиши муносабати билан кўплаб сув тўплаш иншоотларини барпо этилишини талаб қилмоқда.


Бу иншоотлар эксплуатацияси даврида уларнинг пастки бьефларига оқиб тушаётган сув оқими иншоотнинг турғунлигига сезиларли даражада талофат етказиши кузатилмоқда. Шу сабабали сув ташловчи ва сув чиқарувчи иншоотларни қурилиши аввало унинг мос равишда турини танлаш бугунги кунда ўта долзарб масала ҳисобланади ҳамда илмий мақоланинг асосий мақсадини ташкил қилади.

Тадқиқот натижалари ва таҳлиллар: Ўзани тўсиш ва устидан сув ўтказмайдиган тўғонга нисбатан сув ташловчи иншоот тўғон танаси ичида, тўғон танасидан чеккадаги қирғоқда, ёки қайирда жойлашган турларга бўлинади (1-расм, а, б, в). Сув ташлаш тури ҳар хил вариантларни техник-иқтисодий натижалари асосида танланади.



1-расм. а, б ва в-очиқ сув ташлагич, мос равишда тезоқар, кўп погонили шаршара ва консолли шаршара.


Улар бош (кириш) қисмининг жойлашувига кўра юза ва чуқур сув ташлагичлар бўлиши мумкин. Кўндаланг кесимининг конструкцияси бўйича сув ташловчи иншоотлар очиқ, ёпиқ ва комбинациялашган (очиқ ва ёпиқ конструкцияларнинг бирикуви) кўринишида бўлади. Агар кириш тирқиши юзада жойлашган бўлса, юза сув ташлагичлар деб аталади (1-расм, а, б, в). Чуқур сув ташлагичларда бу тирқиш сувнинг эркин сатҳидан пастда жойлашади (2-расм, а, б, в), сув ташлагичнинг ўтказувчи қисми кўп ҳолларда қувурли ёки туннелли кўринишида бўлади. Агар тирқиш бевосита тубда жойлашган бўлса, унда сув ташлагични тубдаги деб аталади (2-расм, в).



2-расм. а, б ва в-мос равишда юза, чуқур ва туб ҳамда затворлар билан бошқариладиган ёпиқ сув ташлагичлар.

Очиқ сув ташлагичлар кўндаланг кесими туташмаган, ёпиқ эса туташган бўлади. Комбинациялашган туташган ва туташмаган кесимли участкаларга эга, яъни очиқ ва ёпиқ конструкцияларнинг бириквидир. Очиқ

сув ташлагичлар сув ташловчи каналлар кўринишида бўлиб, уларнинг чегарасида бьефлар орасидаги сатхлар фарқи тезоқар, кўп поғонали шаршара, консолли шаршара орқали туташтирилади (1-расм, а,б,в). Ёпик сув ташлагичлар юза ва чуқур (шунингдек туб) иншоотлар кўринишида бўлади (2-расм, а,б,в). Юза сув ташлагичларга кувурли, туннелли ва шахтали иншоотлар киради (3-расм). Чуқур сув ташлагичлар босимли, босимсиз ва кувурли ва туннелли ярим босимли режимларда ишлайди.



3-расм. Босимсиз туннелли шахтали сув ташлагич.

Кириш (бош) қисмининг конструкцияси бўйича очик сув ташлагичлар фронтал, хандакли (траншеяли), полигонал, елпиғичсимон ва бошқалар; ёпик сув ташлагичлар эса - хандакли, шахтали, чўмичли ва бошқа кўринишларда бўлади. Бошқариш шароитлари бўйича сув ташлагичлар *бошқариладиган* (затворлар билан) ва *бошқарилмайдиган* (затворсиз, автоматик) турларга бўлинади.

Сув чиқаргичлар кўп белгилари бўйича ёпик сув ташлагичларга ўхшаш. Уларни ҳар доим табиий грунтларда жойлаштирилади. Юқори бьефда сув сатҳи ўзгариши кичик бўлса, очик ростлагични қўллаш мумкин. Кўп ҳолларда юқори бьефдаги сатҳ ўзгариши сезиларли бўлса ёпик сув чиқаргичлар ўрнатилади. Сув чиқаргичлар босимли ва босимсиз режимда ишлаши мумкин.

Конструкцияси бўйича сув чиқаргичлар кувурли, туннелли ва комбинациялашган (кувурли ва туннелли белгилар бирикмаси) турларга бўлинади.

Ростловчи затворлар жойлашиши бўйича сув чиқаргичлар қуйидагича фаркланади:


1) сув чиқарувчи тракт бошланишидаги затворлар билан (асосан кувурли сув чиқаргичлар учун), бу ҳолатда одатда қуйи қисмида затворлар камераси, юқорисида эса туташтирувчи механизмли эстакадага эга затворларни бошқарувчи минора ўрнатилади; айрим ҳолларда минора ўрнида пастки бьеф томонидан ёки юқори қияликда (ёнбағирда) ётқизилган махсус нишаб галерея бўйлаб кириш мумкин бўлган алоҳида хона кўзда тутилади;

2) сув ташлаш тарктининг ўрта қисмидаги затворлар билан; затворларни бундай жойлаштириш бошқарадиган минора ўрнатиб ёки ўрнатмасдан қувурли ҳамда туннелли сув чиқаргичларда мумкин;

3) сув чиқаргич тарктининг охирида затвор билан; затворларни бундай жойлаштириш босимли режимда ишлайдиган сув чиқаргичлар учун, ҳамда галерея ичидаги босимли қувурли туннеллар ва қувурли сув чиқаргичлар учун характерлидир.

Сув ташлаш ва сув чиқариш иншоотларининг турлари ва қўлланиши жойлари:

1) Қирғоқда жойлашган очик сув ташловчи иншоотлар. Қирғоқда жойлашган очик сув ташлаш трактини тўғоннинг ён томонидаги қирғоқларда ва водийнинг ёнбағирларида жойлаштирилади. Шу сабабли улар қирғоқда жойлашган сув ташлагичлар деб ном олган (4-расм, а). Сув ташлаш трактидан сув гидроузелнинг пастки бьефга ташланади, қулай топографик шароитларда эса қўшни очик сув ҳавзасига ёки жойнинг паст участкаларига чиқариш мумкин. Очик сув ташлагичларнинг ўзига хос хусусияти шундаки, уларнинг кириш қисмлари баланд сатҳларда жойлашади.




4-расм. Юза сув ташлаш трактининг трассаси: а-тўғри чизиқли; б-бурилиш бурчаги билан; в-трассада эгри чизиқни планда белгилаш.

2) Фронтал сув ташлагичлар Фронтал сув ташлагичлар водосливи планда келувчи канал ўқиға перпендикуляр жойлаштирилади ва сув иншоотга перпендикуляр кириб келади (5-расм). Бу ҳолда тўғон тепаси билан водослив устини кўприк билан бирлаштирилади. Сув ташлаш тракти ўқи (планда) ернинг топографияси ва геологиясини ҳисобга олган ҳолда белгиланади, у планда ва бўйлама кесимларда тўғон тепасидан ўтадиган йўл билан боғланган бўлиши керак. Келувчи канал бошланиши тўғон танасидан 75...100 м масофада жойлаштирилади, кетувчи каналнинг чиқиш қисми тўғон пастки қиялик охиридан камида 100...150 м масофада бўлиши керак.

3) Келувчи канал водосливга сувни равон келишини таъминлайди. Планда у эгри чизиқли кўринишда ва узунлигибўйича ўзгарувчан кенгликка эгадир. Катта чуқурликларда канал туби горизонтал, кичик чуқурликларда эса сувнинг янада равон келишини таъминлаш учун канал туби тескари нишабли қилиб ўрнатилади. Қояли грунтларда канал тубига ва қияликларига

химоя қопламалари ўрнатилмайди, қоямас грунтларда уларнинг водосливга кириш зоналарида қопламалар ўрнатилади. Келувчи канал кўндаланг кесими трапеция шаклида, қоямас грунтларда уларнинг қияликлари 1.2...2.5, қояли грунтларда 0,5 қабул қилинади.



5-расм. Қирғоқда жойлашган очик фронтал сув ташлагич: 1-келувчи канал; 2-водослив кўринишидаги бош қисм; 3-ташлама канал; 4-туташтирувчи иншоот (тезоқар); 5-кетувчи канал; 6-грунтли тўғон; 7-дарё ўзани

Фойдаланилган адабиётлар

1. Чугаев Р.Р. Гидротехнические сооружения. 4.2 Водосливные плотины. -М.: Высшая школа, 1978, 352 с.
2. Рассказов Л.Н., Орехов В.Г., Анисинкин Н.А. и др. Гидротехнические сооружения, Часть II Учебник для вузов. - Москва: Издательство Ассоциации строительных вузов, 2008. - 576 с.
3. Бозоров Д.Р. Каримов Р.М. Хидиров С.К. Гидравлика II (Махсус курс), Тошкент, ТИҚХММИ, 2018, 401 б.;
4. Иванов В.М. Совершенствование теории и методов расчета гидродинамических воздействий за водосбросными сооружениями. Диссертация на соискание уч. ст. доктора технических наук» по специальности 05.09.23- Гидротехническое строительство, Барнаул, 2004, с. 398;
5. Леви И.И. Движение речных потоков в нижних бьефах гидротехнических сооружений. - М., - Л.: Госэнергоиздат, 1955, 256с.
6. Розанов Н.П. Гидротехнические сооружения. -М.: Стройиздат, 1978, 647 с.

УДК:621.22

СУВ ТАЪМИНОТИ ТИЗИМЛАРИДА ҚЎЛЛАНИЛАДИГАН ҚУВУРЛАРДА БОСИМ КАМАЙИШИНИ АНИҚЛАШ ФОРМУЛАЛАРИ

Б.М.Норқулов, Д.О.Таджиева, Х.Артиқбоев(СамДАҚИ)

В этой статье представлен анализ для снижения локальных и продольных потерь давления, которые влияют на перепад давления в трубах, используемых в системе водоснабжения. Одной из самых сложных задач при проектировании системы водоснабжения является анализ

гидравлических формул для определения перепада давления в системе, гидравлических расчетов.

This article presents an analysis to reduce local and longitudinal pressure losses that affect the pressure drop in the pipes used in the water supply system. One of the most difficult tasks in designing a water supply system is the analysis of hydraulic formulas to determine the pressure drop in the system, hydraulic calculations.

Калим сўзлар: жумрак, гидравлик ва маҳаллий қаршилик, эквивалент, коэффициент, турбулент, модел, эксперимент.

Тадқиқот мақсади: Сув таъминоти тизими бугунги кундаги асосий муаммоларидан бири, аҳолини тоза ичимлик суви билан таъминлашда сув таъминоти тизимидаги сувнинг босимини етарлича бошқариш ва етарлича босим оститда етказиб бериш ҳамда унинг узлуксизлигини таъминлаш асосий вазифалардан бири бўлиб қолмоқда. Тизимдаги босимнинг камайиш ҳисоблари қувурнинг турига боғлиқ равишда гидравлик ҳисобларини юритишда сув таъминоти тизимларида қўлланиладиган қувурларда босим камайишини аниқлаш формулаларини қўллаш бугунги кунда ўта долзарб масала ҳисобланади ва илмий мақоланинг асосий мақсадини ташкил қилади.

Тадқиқот методи: Ушбу масалани ижобий ечимини олиш учун ҳозирда эксплуатация қилинаётган сув таъминоти тизимлари ва аҳолини ичимлик суви билан таъминлашда, қурилиш ишлари олиб борилаётган объектларда ташланаётган қувурларни босимини камишини аниқлашда олиб борилган ҳисоблар таҳили мақоланинг тадқиқот методи ҳисобланади

Тадқиқот натижалари ва таҳлиллари: Бизга маълумки, қувурларда босим камайиши одатда икки турга ажратилади:

1) Узунлик бўйича (ишқаланиш кучига) йўқолиш оқим узунлиги бўйича ҳаракат ҳисобига вужудга келади ва унинг узунлигига ҳамда қувурнинг турига боғлиқ бўлади. Қувурларда босим йўқолиши қувур турига ва унда ҳаракатланаётган суюқликнинг ҳаракат тартибига боғлиқ равишда Рейнолдс сонига мувофиқ босим йўқолишини аниқлаш формулалари ўзгариб боради.

Қиска масофадаги қувурларни йўқолаётган босимини Дарси-Вейсбах формуласи орқали аниқлаб оламиз.

$$h = \lambda \frac{l}{d} \frac{v^2}{2g}$$

Катта босимли сув қувурларида узунлик бўйича йўқолаётган босимни қуйидаги формуладан аниқлаймиз:

$$h = \frac{Q^2}{K^2} l$$

Бу ерда: K - сарф модули бўлиб, доиравий қувурлар учун қуйидагича

$$K^2 = C^2 \omega^2 R$$

бу ерда

$$C = \sqrt{\frac{8g}{\lambda}} = f\left(\frac{R}{\Delta}\right)$$

бу ерда: асосий ҳисобланган λ - гидравлик қаршилик коэффицентини аниқлашда суюқликнинг ҳаракат тартибига мос ўзгариб бориши орқали аниқланади ва қуйидаги 1-жадвалдан олинади.

1-жадвал

№	Ҳаракат тартиби	Формулаи номланиши	Формула
1.	Re=2500-7000	Бланзус тенгламаси	$\lambda = \frac{0,3164}{\sqrt[4]{Re}}$
2.	Re=2500–4000	Мительман тенгламаси	$\lambda = \frac{0,08}{\sqrt[3]{Re}}$
3.	Re=2500 – 5000	Ибадулов ва Шишенколар тенгламаси	$\lambda = \frac{0,075}{\sqrt[3]{Re}}$
4.	Re= $\leq 3 \cdot 10^6$	Канаков тенгламаси	$\lambda = \frac{1}{(0,8 \lg Re + 1,5)^2}$
5.	2320<Re<5000	Альтшуль тенгламаси	$\lambda = 0,11 \left(\frac{K\epsilon}{d} + \frac{68}{Re} \right)^{0,25}$
6.	Re>50000	Шифринсон тенгламаси	$\lambda = 0,11 \left(\frac{K\epsilon}{d} \right)^{0,25}$
7.	Силлик қувурлар учун	Шевелев тенгламаси	$\lambda = \frac{0,25}{Re^{0,226}}$
8.	Ишланган пулат ва чуян қувурлар учун	Шевелев тенгламаси	$\lambda = \frac{0,021}{d^{0,3}}$
9.	агар суюқлик тезлиги V<1,2 м/с бўлса	Шевелев тенгламаси	$\lambda = \left(\frac{1,5 \cdot 10^{-6}}{d} + \frac{1}{Re} \right)^{0,3}$
10.	Барча турбулент оқимлар учун	Колбррук ва Уайт тенгламаси	$\frac{1}{\sqrt{\lambda}} = -2 \lg \left(\frac{K\epsilon}{3,7d} + \frac{2,51}{Re \sqrt{\lambda}} \right)$

Юқорида келтирилган гидравлик қаршилик коэффиценти орқали узунлик бўйича қувурда йўқолаётган босимни аниқлашда, қувур турига ва унда ҳаракатланаётган суюқликнинг ҳароратига боғлиқ равишда амлага оширилади.

2) Маҳаллий йўқолган босим Дарси-Вейсбах ифодаси орқали топилади.

$$h_m = \xi_m \frac{v^2}{2g}$$

Бу ифодадан йўқолган босимни аниқлаш учун, одатда, қувурда ўрнатилган маҳаллий қаршиликдан кейин оқаётган суюқликнинг ўртача тезлиги v_2 дан фойдаланилади, яъни биз маҳаллий қаршиликдан олдин суюқликни оқиб келаётган тезлигини v_1 десак, v_2 - қаршиликдан кейинги

тезлиги бўлади. Маҳаллий қаршиликлардаги коэффицентлар ζ тезлик ϑ_2 га нисбатан берилган бўлади. Айрим вақтларда қаршилик коэффиценти ζ ни $(\vartheta_1^2/2g)$ босимга нисбатан, яъни маҳаллий қаршиликдан олдинги ҳаракат қилаётган суюқликни тезлиги ϑ_1 га нисбатан олинган бўлади. Шунинг учун, эслатиш китобидан фойдаланганда тезликни маҳаллий қаршиликдан олдин ёки кейин олганига эътибор бериш керак. ϑ_1 ва ϑ_2 тезликлар орқали маҳаллий қаршиликдаги йўқолган босим қуйидагича ҳисобланади:

$$h_m = \xi_1 \frac{\vartheta_1^2}{2g} = \xi_2 \frac{\vartheta_2^2}{2g} \pi r^2$$

$$\frac{\xi_1}{\xi_2} = \frac{\vartheta_1^2}{\vartheta_2^2} = \frac{\omega_2^2}{\omega_1^2}$$

бунда ω_1 ва ω_2 -қиркимларнинг маҳаллий қаршиликдан олдин ва ундан кейин олинган юзалари, m^2 .

Айрим ҳолларда маҳаллий қаршиликдаги йўқолган босимни ўрнига эквивалент бўлган қувур узунлиги l_3 бўйича топилган босим билан аниқланади. Эквивалент узунлик l_3 деб шундай қувурни узунлигига айтиладики, ундаги ҳаракат қилаётган суюқликни l_3 йўл бўйича йўқолган босим қувурда ўрнатилган маҳаллий қаршиликда, шу суюқлик сарф билан ўтганда, топилган йўқолган босимини тенглигига айтилади, яъни

$$h_m = \lambda \frac{l_3}{d} \frac{\vartheta^2}{2g} = \xi \frac{\vartheta^2}{2g} \text{ бунда } \xi = \lambda \frac{l_3}{d}$$

Бу формула Ж.Вейсбах формуласи деб юритилади. Бу ерда шуни эслатиб ўтишимиз жойизки, ҳар бир маҳаллий қаршиликларнинг ўз коэффиценти ξ бўлади. Агар сув таъминоти тизимидаги қувурларнинг бирор-бир бўлаги бир неча маҳаллий қаршиликлар, масалан, кириш (қувурга), бурилиш, жуўмак, чиқиш (қувурдан) мавжуд бўлади у ҳолда маҳаллий қаршилик коэффицентлари йиғиндиси қуйидаги формула орқали аниқлаб олинади.

$$\xi_m = \xi_{\text{кириш}} + \xi_{\text{бурилиш}} + \xi_{\text{жўмак}} + \xi_{\text{чиқиш}}$$

у ҳолда маҳаллий йўқотилган босим:

$$h_m = \xi \frac{\vartheta^2}{2g} = (\xi_{\text{кириш}} + \xi_{\text{бурилиш}} + \xi_{\text{жўмак}} + \xi_{\text{чиқиш}}) \frac{\vartheta^2}{2g}$$

Маҳаллий қаршиликларда уларнинг кириш (қувурга), бурилиш, жўмак, чиқиш (қувурдан) мавжуд бўлиб, улардаги маҳаллий қаршиликлари учун қуйидаги 2-жадвал орқали олинади.[1,2]

2-жадвал

№	Маҳаллий қаршиликлар номи	Маҳаллий қаршиликлар коэффициенти																								
1.	Кириш (ўткир қиррали қувурларда)	$\xi_{\text{кириш}} = 0.50$																								
2.	Кириш (синик қиррали қувурларда)	$\xi_{\text{кириш}} = 0.20 \div 0.25$																								
3.	Кириш (силлиқланган қувурларда)	$\xi_{\text{кириш}} = 0.05 \div 0.10$																								
4.	Тирсак (доиравий қувурларда) $R_T \geq 2D \quad R_T = (3 \div 7)D$	$\xi_T = 0.50$ $\xi_T = 0.30$																								
5.	Жумрак ($\alpha = 30^0$)	$\xi_{\text{жумрак}} = 5,0 \div 7,0$																								
6.	Жумрак (Вентил)	$\xi_{\text{жумрак}} = 1,0 \div 3,0$																								
7.	Жумрак (Задвижка) $h = D \quad h = D/2$	$\xi_{\text{жумрак}} = 1$ $\xi_{\text{жумрак}} = 2$																								
8.	Сурувчи қувурдаги сим тур	$\xi_{\text{сим.тур}} = 5,0 \div 7,0$																								
9.	Бирдан кенгайиш $h_{\text{б.к}} = \xi_{\text{б.к}} \frac{v^2}{2g}$	$\xi_{\text{б.к}} = \left(\frac{D^2}{d^2} - 1.0 \right)^2$																								
10.	Бирдан торайиш $h_{\text{б.т}} = \xi_{\text{б.т}} \frac{v^2}{2g}$ $\xi_{\text{б.т}} = f\left(\frac{\omega}{\Omega}\right)$	<table><tr><td>$\frac{\omega}{\Omega}$</td><td>0.1</td><td>0.2</td><td>0.3</td><td>0.4</td><td>0.5</td></tr><tr><td>$\xi_{\text{б.т}}$</td><td>0.47</td><td>0.42</td><td>0.38</td><td>0.34</td><td>0.3</td></tr><tr><td>$\frac{\omega}{\Omega}$</td><td>0.6</td><td>0.7</td><td>0.8</td><td>0.9</td><td>1.0</td></tr><tr><td>$\xi_{\text{б.т}}$</td><td>0.25</td><td>0.20</td><td>0.15</td><td>0.10</td><td>0.05</td></tr></table>	$\frac{\omega}{\Omega}$	0.1	0.2	0.3	0.4	0.5	$\xi_{\text{б.т}}$	0.47	0.42	0.38	0.34	0.3	$\frac{\omega}{\Omega}$	0.6	0.7	0.8	0.9	1.0	$\xi_{\text{б.т}}$	0.25	0.20	0.15	0.10	0.05
$\frac{\omega}{\Omega}$	0.1	0.2	0.3	0.4	0.5																					
$\xi_{\text{б.т}}$	0.47	0.42	0.38	0.34	0.3																					
$\frac{\omega}{\Omega}$	0.6	0.7	0.8	0.9	1.0																					
$\xi_{\text{б.т}}$	0.25	0.20	0.15	0.10	0.05																					
11.	Чиқиш (қувурлардаги каналда)	$\xi_{\text{чиқиш}} = 1,0$																								

Хулоса: Сув таъминоти тизимларини лойиҳалаш жараёнларида оқимни узунлик ва маҳаллий қаршилик бўйича йўқотилган босим аниқлаш учун гидравлик қаршилик коэффициентини қўллашда юқорида келтирилган формулар ёрдамида аниқлаб олинади. Бу узлуксиз муҳит суюқлик ва газ механикасининг энг мураккаб муаммолардан бири ҳисобланиб, шу кунга қадар тўлиқ ечимини топмаган. Бундан ташқари, йўқотилган босимни аниқлашда экспериментал моделлар ёрдамида лаборатория шароитида аниқлаш ҳам мумкин. Лекин лаборатория шароитида аниқлаш жараёнлари бир мунча ресурсларни талаб этиб, унга кетадиган сарф-харажатлар ва тадқиқот натижаларини олиш жараёнлари узок муддатларда амалга оширилиши мумкин. Шу сабабли лаборатория шароитида аниқлаш жараёнлари ноқулайликлар келтириб чиқаради. Юқорида келтирилган формулар ёрдамида тизим лойиҳа ишларини олиб бориш анча аниқлик ва ишонччилик даражаси юқорилиги таъминлайди. Бундан ташқари, бугунги кунда сув таъминоти тизимларида қўлланилаётган сув қувурларининг қувур турларига ҳам боғлиқ ҳолда қувурларнинг гидравлик ҳисоблари амалга оширилади. Чунки, сув таъминоти тизимларида ишлатилаётган сув

кувурларининг ички ғадир-будирлиги яъни гидравлик ғадир-будирлигини лойиҳа жараёнида аниқлаш, улар асосида гидравлик қаршилиқ коэффициентларини аниқлаш орқали тизимнинг гидравлик ҳисобларини юритишнинг ишончлилиқ даражаси юқори бўлиши таъминланади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Умаров А.Ю. “Гидравлика” Тошкент 2002 йил, 460 бет.
2. Мухаммадиев М.М., Уришев Б.У., Жонқобилов У.У. “Гидроэнергетик қурилмалар” ўқув қўлланма Тошкент 2006.
3. Бозоров Д.Р., Каримов Р.М., Хидиров С.К. Гидравлика II (*Махсус курс*), Тошкент, ТИҚХММИ, 2018, 401 б.;
4. Jacob E. Wamock. Spillways and energy dissipaters. Proceedings of Hydraulics Conference, Journal of the University of Iowa studies, 1940, Bulletin 20, 379, p.142-159.
5. Зегжда А.П. Гидравлические потери на трение в каналах и трубопроводах. Л.-М.: Гос.изд. литературы по строительству и архитектуре, 1957. 277с.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ НОВЫХ КАТИОННЫХ ФЛОКУЛЯНТОВ ПРИ ОЧИСТКЕ НЕФТЕЗАГРЯЗНЕННЫХ СТОЧНЫХ ВОД

Сафаев У.А., Ходжаев Ш.Ф.(ТГТУ)

The article presents the results of studies of properties synthesized based on the polymerization of monomeric salts of dimethylaminoethyl methacrylate with ethyl, propyl, hexyl and decyl esters of chloroacetic acid. The flocculating ability of the synthesized polymers was studied and the possibility of using the obtained flocculants to purify oil-contaminated wastewater was shown.

Экологическая обстановка в нашей республике настоятельно ставит вопрос о повышении степени очистки вод различных производств. К наиболее трудной в техническом плане проблеме относится очистка нефтезагрязненных сточных вод нефтегазовой отрасли промышленности, что связано с огромным объемом этих вод и широким, постоянно изменяющимся диапазоном состава загрязнителей.

Сточные воды наряду с нефтепродуктами содержат, и другие сопутствующие органические и минеральные примеси. В зависимости от их соотношения в широких пределах изменяются цветность, мутность, рН, ионный состав воды. Этими проблемными моментами объясняется отсутствие до настоящего времени разработанных универсальных способов очистки нефтезагрязненных сточных вод. В то же время существуют множество способов по очистке нефтезагрязненных промышленных сточных вод до достаточно высоких степеней очистки, многие из которых не вышли за рамки лабораторных исследований и носят патентный характер.

Одним из перспективных способов очистки нефтесодержащих сточных вод является метод флокуляция с использованием катионных аммониевых

поверхностно-активных полимеров, которые можно синтезировать при взаимодействии мономерных аминов с галогенсодержащими соединениями.

В этом аспекте представляет интерес изучение флокулирующей способности катионных полимеров на основе диметиламиноэтилметакрилата и алкиловых эфиров хлоруксусной кислоты. Наличие в их структуре различных углеводородных гидрофобных групп предопределяет ряд особенностей их полимеризации и получение новых полимеров с регулярным составом, структурой и ценными физико-химическими, а также прикладными свойствами.

Аммониевые полимерные соли, полученные при взаимодействии диметиламиноэтилметакрилата с этиловым (ПДЭ), пропиловым (ПДП), гексиловым (ПДГ) и дециловым (ПДД) эфирами хлоруксусной кислоты использованы в качестве флокулянта для очистки промышленных сточных вод.

Для оценки значения молекулярных масс полученных полимеров были найдены характеристические вязкости образцов, которые свидетельствуют об образовании полимеров с большой молекулярной массой (таблица 1).

Таблица 1 – Характеристические показатели катионных водорастворимых мономеров и их полимеров

№	Сокращенное обозначение полимеров	Боковые алкильные группы эфирной части мономера		Молекулярная масса мономера	Содержание хлора, %	Характеристическая вязкость полимера $[\eta]$, дл/г
1	ПДЭ	этиловый -	C_2H_5-	279,5	0,127	3,8
2	ПДП	пропиловый -	C_3H_7-	293,5	0,121	3,9
3	ПДГ	гексиловый -	$C_6H_{13}-$	335,5	0,106	4,1
4	ПДД	дециловый -	$C_{10}H_{21}-$	391,5	0,090	4,3

Известно, что полимеры, содержащие в составе аммониевые группы, наряду с полиэлектролитными обладают и поверхностно-активными свойствами. Сочетание полимерных, поверхностно-активных и электролитных свойств синтезированного полимера приводит к новому качественному состоянию, обладающему рядом специфических особенностей, проявляющихся в конформационном и электрохимическом поведении раствора полимера. Определение этих свойств обусловит оценку возможностей использования синтезированного полимера в качестве катионных флокулянтов, коагулянтов, осадителей и прочих целей.

При этом в отличие от анионных и неионогенных флокулянтов, катионные флокулянты проявляют высокую эффективность при применении их для извлечения органических и коллоидных загрязнений и осаждении взвешенных частиц. Также большим преимуществом катионных флокулянтов является отсутствие их коррозионного действия на металлы.

В этом аспекте представляло интерес изучить флокулирующую способность новых водорастворимых катионных полимеров. Для сравнения параллельно изучена флокулирующая способность известного неионогенного флокулянта – полиакриламида (ПАА).

Объектом исследования флокулирующего действия водорастворимых полимеров выбрана искусственно приготовленная водная суспензия смеси силикагеля и нефти с концентрацией взвешенных частиц 2 и 3 г/100мл, соответственно. Наибольшая скорость флокуляции наблюдается при использовании аммониевого флокулянта ПДД. Однако оптимальная концентрация, где достигается максимум выделения твердых частиц, зависит от природы флокулянта и составляет: для полиакриламида – 0.05 %, для аммониевого гребнеобразного полимера ПДД – 0.008 %.

эффе́ктини́нг сувни́нг қумли фильтрадаги фильтрланиш тезлиги ва темир дозасига боғликлиги m_K -10 $г/м^3$, $1-V_1=7м/соат$, $2-V_1=5м/соат$	эффе́ктини́нг сувни́нг қумли фильтрадаги фильтрланиш тезлиги ва темир дозасига боғликлиги m_K - темир дозаси $15 г/м^3$, $1-V_1=7м/соат$, $2-V_1=5м/соат$
--	---



6 - расм. Қумли фильтр тўлдирувчисида босим йўқолиши қийматининг сувни фильтрлаш тезлигига боғликлиги: 1- сувнинг фильтрланиш тезлиги 8м/соат; 2- сувнинг фильтрланиш тезлиги 6м/соат

Экспериментал тадқиқотлар натижаларини таҳлил қилишда қуйидагилар аниқланди:

- сувнинг тозаланиш даражаси, %
- эриган металлнинг назарий миқдори
- электроэнергия сарфи, кВт.соат/ $м^3$
- сувнинг фильтрланиш тезлиги.

Пластинкали электрокоагулятор қурилмасини ҳисоблашда фойдаланиладиган қуйидаги усуллар таҳлил қилинди ва ҳисоблаш тартиби келтирилди:

- электродлар орасида оқова сувнинг бўлиш вақти бўйича;
- электр токининг тозаланаётган оқова сув бирлик миқдори q ва электродлардаги ток зичлиги σ учун солиштирма миқдори бўйича;
- кимёвий коагулянт дозаси m_K бўйича;
- алюминий электродларининг актив юзаси S_{yo} бўйича:

Спорт мактаблари сузиш сув бассейни сувларини тозалаш бўйича таклиф ва мулоҳазалар. Бугунги кунда сузиш сув бассейнларида бассейн сувини тўхтовсиз равишда тозалаш ва зарарсизлантиришни таъминлаб берувчи айланма сув таъминоти тизими кенг қўлланилмоқда. Сузиш сув бассейнларининг айланма сув таъминоти тизимида сувни тозалашда амалиётда сувни тиндирмасдан босимли фильтрларда тозалаш йўлга

қўйилган. Циркуляцион сувни тиндириш ва рангсизлантириш жараёнини тезлаштириш мақсадида сув коагуляция қилинади. Босимли сув тозалаш қурилмалари ихчамлиги, габарит ўлчамларининг кичиклиги сабабли сузиш сув бассейнларининг айланма сув таъминоти тизимида кенг қўлланилмоқда.

Сузиш сув бассейнлари айланма сув таъминоти тизимларининг қисқача таҳлили ва бассейн сувини тозалаш бўйича олиб борилган изланишлар натижасида қуйидагилар аниқланди:

- сузиш сув бассейнлари сувини тозалашда донатор тўлдирувчили босимли фильтрларни қўллаш. Фильтрловчи материал сифатида маҳаллий кварцли кум ва бентонит тупроғидан тайёрланган керамзитдан фойдаланиш;

- сувни тиндириш ва рангсизлантириш жараёнини тезлаштириш мақсадида сувни электрокоагуляция қилиш;

- сувни электрохимёвий йўл билан олинган натрий гипохлорити орқали зарарсизлантириш. Таркибида коллоид ёки муаллақ моддалар ҳамда баъзи эриган бирикмалар бўлган сувларни электрокоагуляция орқали тозалаш мақсадга мувофиқдир. Сузиш сув бассейни сувларини электрокоагуляция йўли билан тозалаш ва фильтрлаш жараёнини ўрганиш бўйича тажрибалар лаборатория қурилмасида олиб борилди.

Ўтказилган тажрибалар натижаси шуни кўрсатдики темир электродларини қўллаб сувни электрохимиявий тозаланиш эффектига темир дозаси m_K , сувнинг электрокоагулятор пластинкалари орасидаги ҳаракат тезлиги V_1 , тозаланаётган сувдаги водород ионларининг концентрацияси pH , сувнинг фильтр қурилмасида филтрланиш давомийлиги t_2 ва тозаланаётган сувдаги дисперс моддаларнинг миқдори $C_{исх}$ асосий роль ўйнайди. Сувнинг тозаланиш эффекти тозаланаётган сувдаги дисперс моддаларнинг миқдори $C_{исх}$ ва темир дозаси m_K нинг ошишига пропорционал равишда ошади. Сувнинг тозаланиш эффекти тозаланаётган сувдаги водород ионларининг концентрацияси pH кўпайишига мос равишда ошади. Темир дозасининг бир хил миқдорида сувнинг тозаланиш эффекти сувнинг водород кўрсаткичига боғлиқ равишда ошади.

Электрокоагуляция йўли билан ишлов берилган сузиш сув бассейни сувларини кварц кумли филтрда тозалаш (филтрлаш) жараёнини ўрганиш бўйича ўтказилган тажрибалар натижаси шуни кўрсатдики сувнинг керакли тозаланиш эффектига сувнинг кумли филтрдаги филтрланиш тезлиги ва темир дозаси m_K , сувнинг фильтр қурилмасида филтрланиш давомийлиги t_2 ва тозаланаётган сувдаги дисперс моддаларнинг миқдори $C_{исх}$ асосий роль ўйнайди. Сувнинг керакли тозаланиш эффекти сувнинг кумли филтрдаги филтрланиш тезлиги 5м/соат ва темир дозаси $m_K = 10 \text{ г/м}^3$ ҳамда сувнинг филтрланиш тезлиги 7м/соат ва темир дозаси $m_K = 15 \text{ г/м}^3$ бўлганда эришилади. Сувнинг филтрланиш тезлиги 6м/соат бўлганда кумли филтр тўлдирувчисида босим йўқолиши қиймати бир текис ўзгаради, сувнинг филтрланиш тезлиги ошиши билан тўлдирувчида босим йўқолиши қиймати бирданига кўпаяди.

Фойдаланилган адабиётлар

1. «Сув ва сувдан фойдаланиш тўғрисида» ги Ўзбекистон Республикаси қонуни. Тошкент, 1993
2. «Табиатни муҳофаза қилиш тўғрисида» ги Ўзбекистон Республикаси қонуни. Тошкент, 1992
3. Яковлев С.В., Красноборожье И.Г., Рогов В.М. Технология электрохимической очистки воды. -М.: Стройиздат, Ленингр. Отделение, 1987. -312 б.
4. Кедров В.С., Рудский Г.Г. Водоснабжение и водоотведение плавательных бассейнов. - М.: Стройиздат, 1991
5. Государственный стандарт Узбекистана. Вода питьевая. Гигиенические требования и контроль за качеством. Срок действия с 01.07.2000 г по 01.07.2010г.
6. КМК 2.04.02-97 Қурилиш меъёрлари ва қоидалари. Сув таъминоти. Ташқи тармоқлар ва иншоотлар. Архитектура ва қурилиш соҳаси бўйича Ўзбекистон республикаси давлат қўмитаси. Тошкент, 1997.
7. Соатов У.А. ва бошқалар. Система оборотного водоснабжения плавательного бассейна спортивного коллежа в городе Намангане /Янги технологиялар- иктисодий тараккиётнинг асосий омили мавзусидаги Республика илмий-амалий конференцияси материаллари. Наманган-2003, Б.78-81
8. Рогов В.М. Применение электрокоагуляции-флотации для очистки производственных сточных вод /Сборник научных трудов №3. Оздоровление сред электрообработкой. -Л, 1976, Б.24-26

ЗАРАФШОН ЕР УСТКИ СУВ ХАВЗАСИНИНГ ТАВСИФИ ВА УЛАРНИ ТОЗАЛАШ УСУЛЛАРИНИНГ ТАҲЛИЛИ

Халилов.Н, Шамсиев.И (СамДАҚИ)

The scientific validity of the results is the analysis of the electrochemical treatment of surface water in the Zarafshan basin and its mixing and purification during electrocoagulation. Electrochemical purification of natural water Theoretical significance of the process of mixing and drying of sludge by electrocoagulation of sludge is studied. The practical significance of the research is to make suggestions and recommendations for improving the process of electrochemical treatment of Zarafshan water. In addition, improving water treatment technology in the water supply system of the population. The purpose and objectives of the work is to develop system of electrochemical treatment of Zarafshan water and to improve the surface water treatment process.

Целью и задачами работы является разработка системы электрохимической очистки поверхностных вод. Научная обоснованность полученных результатов заключается в анализе электрохимической очистки поверхностных вод в бассейне Зарафшана и ее смешивания и очистки при электроагуляции. Электрохимическая очистка природных вод Изучена теоретическая значимость процесса смешивания и сушки осадка с электрокоагуляцией. Практическая значимость исследования состоит в том, чтобы внести предложения и рекомендации по совершенствованию процесса электрохимической очистки воды Зарфшана. Кроме того, улучшается доступ к воде за счет использования эффективных и передовых технологий очистки воды в системе водоснабжения.

Сув хавзасининг қисқача физик-географик тавсифи. Сув таъминоти тизимида табиий сув манбаси сифатида ер устки сув хавзаси қабул қилинганда сувни истеъмолчи талаби даражасида тозалаш учун қабул қилинадиган технологик усуллар ва жараёнлар хавза сувининг сифат кўрсаткичлари ва ифлосланиш даражасига бевосита боғлиқ. Шунинг учун авваломбор тадқиқотчи томонидан сув манбаси ҳақида, унинг сифат кўрсаткичлари ва ифлосланиш даражаси тўғрисида етарли маълумотга эга бўлиши талаб этилади. Юқорида келтирилган фикрларни инобатга олган ҳолда Зарафшон сувини тозалаш бўйича тадқиқотлар ўтказишда биринчи навбатда сув манбаси ҳолати ўрганилди.

Зарафшон дарёси бассейни шарқ-жанубий-шарқдан ғарб-шимолий-ғарб томонга чўзилган. Бассейнинг умумий майдони 42 минг км² ни ташкил қилади. Хавзанинг шарқий чегараси Олой, Туркистон ва Хисор тоғ тизмалари қўшилишидан ҳосил бўлган кўк сув тоғ ирмоғидан бошланади ва дарёнинг ғарбий чегараси Амударёга етиб бормасдан сандикли қумликларида тугайди.

Зарафшон бассейни майдони табиий-тарихий белгиси бўйича иккита асосий қисмга бўлинади: шарқий (тоғли) ва ғарбий (текислик). Бассейнинг асосий сув манбаси-бу Зарафшон дарёси ҳисобланади. Дарё Туркистон ва Хисор тоғ тизмалари оролиғида жойлашган Зарафшон музликларидан бошланади.

Зарафшон дарёси Самарқанд шаҳри якинида Чўпонота тепаликлари ёнида иккита ҳар бирининг узунлиги 100 км бўлган Қорадарё ва Окдарё ирмоқларига бўлинади ва Хатирчи тумани ҳудудида ирмоқлар яна қўшилади. Зарафшон дарёсининг умумий узунлиги 780 км ни ва кўп йиллик ўртача сув сарфи 165 м³/с ни ташкил қилади.

Дарё сувининг сифат кўрсаткичлари ва ифлосланиш даражаси. Зарафшон дарёси сувининг кимёвий таркиби Самарқанд, Каттақўрған ва Навоий шаҳарларида жойлашган саноат корхоналари ҳамда қишлоқ хўжалиги экинзорлари томонидан хавзага ташланадиган ифлосланган оқова сувлар таъсирида вужудга келади. Ундан ташқари дарё оқими бўйича йўлма-йўл ташланаёткан дренаж-коллектор сувларининг таъсири ҳам сезиларли даражада. Бу таъсир натижасида дарё сувининг минераллашуви оқим бошида-289,9 мг/л (0,3 РЭЧТ), охирида-903,9 мг/л (0,9 РЭЧТ) ва оқим бўйича ўртача қиймат 503,2 мг/л (0,5 РЭЧТ) ни ташкил қилади. Дарё сувининг минераллашув даражаси йиллар давомида ошиб бориши кузатилмоқда. Масалан 1970 йилларда сувнинг минерализацияси 660-750 мг/л ни ташкил этган бўлса бугунги кунда 1000 мг/л дан ошиб кетди. Бу дарё сувининг сифатига кўрсатилаётган антропоген таъсирнинг йилдан-йилга ошиб бораётганини кўрсатади.

Зарафшон дарёси сувининг ион таркиби йил давомида ўзгариб туради. Дарёнинг юқори оқимида гидрокарбонат ионлари юқори бўлса, қуйи оқимларида эса сульфат ионлари таркибнинг асосий қисмини ташкил қилади.

Хавза сувининг умумий каттиклиги дарёнинг юқори оқимида 3-4 мг.экв/л бўлса, қуйи оқимида 11 мг.экв/л ни ташкил қилади. Умумий қаттиклик йил фасллари бўйича ўзгариб туради ва унинг энг минимал микдори йилнинг июн-сентябрь ойларида кузатилади ва оқим юқорисида 2,52-3,02 мг.экв/л, қуйи оқимда эса 7,63-9,80 мг.экв/л ни ташкил қилади. Ўзбекистон Республикаси ҳудудига кириб келганда дарё суви таркибидаги органик моддалар микдори ўртача 2,8 мгО/л ни ташкил қилса, дарё оқими бўйича бу кўрсаткич 18,2 мгО/л гача ошиб боради.

Дарё сувининг ифлосланиш даражаси Навоий шаҳридан пастда энг юқори максимал кўрсаткичга эга бўлади ва фенол- 0,001 мг/л (1,0 РЭЧТ), нефть маҳсулотлари -0,06 мг/л (1,2 РЭЧТ), хром VI -4,4 мкг/л (4,4 РЭЧТ), мис-1,3 мкг/л (1,3 РЭЧТ), нитритлар -0,095 мг/л (4,8 РЭЧТ) ни ташкил қилади.

Сув хавзасининг ўртача ифлосланиш даражаси нефть маҳсулотлари бўйича – 0,03 мг/л (0,6 РЭЧТ), азот аммонийи – 0,05 мг/л (0,1 РЭЧТ), азот нитрити – 0,031 мг/л (1,6 РЭЧТ), мис – 0,5 мкг/л (0,5 РЭЧТ), хром – 1,7 мкг/л (1,7 РЭЧТ) ва рух – 1,9 мкг/л (0,2 РЭЧТ) ни ташкил қилади.

Зарафшон ер устки сув хавзасининг сифат кўрсаткичлари ва ифлосланиш даражаси 1-жадвалда келтирилган.

Зарафшон сув бассейни ва Қорадарё суви таркибининг қисқача таҳлили бўйича қуйидагиларни таъкидлаб ўтиш мумкин:

- дарё суви таркибига кам микдорда табиий факторлар, кўп микдорда ишлаб чиқариш, коммунал-маиший ва коллектор-дренаж оқова сувлари билан боғлиқ антропоген таъсир кўрсатади;

- хавза сувининг сифат кўрсаткичлари дарё оқими бўйича ўзгариб боради ва табиий сув таркибидаги баъзи кимёвий моддалар РЭЧТ концентрацияси бирдан юқори қийматга эга бўлади;

- Қорадарё ирмоғи Зарафшон дарёсининг ўрта қисми ҳисобланиб мазкур манба сувининг сифат кўрсаткичлари дарё қуйи оқимига нисбатан анча юқори ва сувнинг таркибидаги аксарият кимёвий моддаларнинг РЭЧТ концентрацияси мазкур моддалар учун белгиланган меъёрдан ошмайди;

- дарё сувининг лойқалиги ўртача 194,1-582,2 мг/л ни ташкил қилади. Лекин тошқин вақтида максимал 4600 мг/л гача кўтарилади ва шу сабабли сувни тозалаш технологик тизимини лойихалашда сувни дастлабки тиндириш иншоотини таркибга киритиш мақсадга мувофиқдир

1-жадвал

Зарафшон ер устки сув хавзасининг сифат кўрсаткичлари ва ифлосланиш даражаси

Т/р	Кўрсаткичлар номлари	Кузатиш пунктлари ва моддалар микдорлари					
		Самарканд ш.		Каттакўрғон ш.		Хатирчи к.	
		Ўртача	Максимум	Ўртача	Максимум	Ўртача	Максимум
1	Кислород, мг/л	9,09	6,8	9,79	7,4	9,85	8,0

2	БПК, мгО/л	2,22	3,8	1,79	2,8	1,88	3,7
2	ХПК, мгО/л	6,1	10,4	7,5	28,4	7,6	13
4	Азот аммонийи, мгN/л	0,093	0,39	0,05	0,2	0,046	0,18
5	Азот нитрити, мгN/л	0,065	0,21	0,02	0,062	0,02	0,08
6	Азот нитрати, мгN/л	3,018	13,6	1,641	6,1	2,334	11,1
7	Темир, мг/л	0,01	0,03	0,01	0,03	0,01	0,05
8	Мис, мкг/л	0,6	1,3	0,7	2,4	0,3	1,4
9	Рух, мкг/л	2,0	4,1	2,1	5	2	6,4
10	Фенол, мкг/л	0,006	0,04	0,002	0,004	0,002	0,009
11	Нефть маҳсулотлари, мг/л	0,04	0,06	0,04	0,07	0,03	0,06
12	СПАВ, мг/л	0,01	0,03	0,01	0,02	0	0,02
13	Муаллақ моддалар, мг/л	194,1	940	480,9	3680	582,2	4600
14	Хром, мкг/л	0,8	2,5	0,9	3,9	0,8	4
15	Фтор, мкг/л	0,262	0,51	0,259	0,53	0,392	0,73
16	Мышьяк, мкг/л	1,4	9	0,6	2	0,6	3
17	Минерализация, мг/л	484,415	697,96	441,884	612,151	541,856	722,22

Лойқа сувларни тозалаш усулларининг таҳлили. Сув таъминоти амалиётида табиий сувларни ичимлик, ҳўжалик ва ишлаб чиқариш мақсадлари учун тайёрлашда комплекс физик, кимёвий ва биологик тозалаш усуллари кенг қўлланилади. Сувларни тозалаш усуллари қуйидаги гуруҳларга ажратиш мумкин:

-сувларнинг органолиптик хусусиятини яхшилаш (тиндириш, рангсизлантириш, таъмини яхшилаш);

-эпидемиологик хавфсизлигини таъминлаш (хлорлаш, озонлаш, ультрафиолит радиация ва бошқа зарарсизлантириш усуллари);

-минерал таркибини меъёрлаштириш (фторлаш, фтрсизлантириш, темирсизлантириш, юмшатиш, тузсизлантириш ва бошқалар).

Сувни истеъмолчи талаби даражасида тозалаш учун қабул қилинадиган технологик усуллар ва жараёнлар табиий сув манбаси сувининг сифат

кўрсаткичлари ва ифлосланиш даражасига бевосита боғлиқ. Хўжалик-ичимлик мақсадлари учун сувни тайёрлашнинг асосий жараёнлари тиндириш, рангсизлантириш ва зарарсизлантириш ҳисобланади.

Сувни тиндириш яъни унинг таркибидаги муаллақ заррачаларни тутиб қолиш сув тиндиргичларда сувни тиндириш, муаллақ чўкмали тозалагичда сувни тозалаш ва фильтр иншоотида сувни филтрлаш эвазига амалга оширилиши мумкин. Тиндириш жараёнини тезлаштириш мақсадида сувга кимёвий реагентлар – коагулянтлар қўшилади.

Бугунги кунда лойқа сувларни тозалашда жуда кўплаб тозалаш иншоотлари ишлатилиб келмоқда. Тозалаш иншоотларида асосан механик ва физико-кимёвий усуллар қўлланиб келинмоқда.

Механик тозалаш иншоотлари (гидроциклон, сув тиндиргич ва филтрлар) конструкциясининг ва унинг ишини ташкил қилишнинг оддийлиги сабабли лойқа сувларни тозалашда жуда кенг қўлланиб келинмоқда. Лекин фақат механик тозалаш хўжалик-ичимлик мақсадлари учун ишлатиладиган сувнинг сифатига қўйиладиган давр талабига жавоб бермайди.

Механик тозалаш иншоотларининг асосий камчилиги уларнинг габарит ўлчамларининг катталиги ва сувни тозалаш самарадорлигининг пастлигидир. Шунинг учун ҳам мазкур соҳа тадқиқотчиларининг асосий йўналиши тозалаш иншоотида тозалаш жараёнини жадаллаштириш орқали унинг ҳажмидан самарали фойдаланиш ва сувнинг сифатини яхшилашга қаратилган.

Табиий сувларнинг таркибидаги эриган ва коллоид ифлосликлардан тўлиқ тозалашда ҳар хил физик-кимёвий усуллар қўлланилади.

Физик-кимёвий усуллар сув таркибидаги эриган органик моддаларни қайта ишлашни таъминлайди.

Хозирги кунда табиий сувларни тозалашда жуда кўплаб ҳар хил русумдаги сув тиндиргичлар ишлатилиб келинмоқда. Иқтисодий нуқтаи назаридан бу иншоотлар қурилиши ўзини оқлайди. Лекин давр талабидан келиб чиқиб шуни таъкидлаш мумкинки янги тозалаш иншооти қурилишига катта маблағ сарфланади.

КМК 2.03.04-97 га мувофиқ лойқа сувларни тозалашда икки босқичли тиндириш ва сўнгги этапда филтрлаш тавсия қилинади. Тиндириш жараёнида сувга реагент қўшиш орқали ишлов бериш талаб этилади. Бу технологик тасвирнинг кўпчилик афзалликларига қарамадан шу нарсани таъкидлаш жоизки мазкур тизимда реагент хўжалиги қурилиши ва унинг ишини ташкил қилиш кичик тозалаш станциялари ишини ташкил қилишда анча нокулайлик туғдиради.

Бизнинг фикримизча мазкур иншоотларда сувни электрокоагуляция усули ёрдамида тозалаш мақсадга мувофиқдир.

Табиий сувларни таркибидаги эриган ва коллоид ифлосликлардан тозалашда электрокоагуляция ва юпқа қатламли сув тиндиргичларнинг

биргаликда қўлланилиши сувнинг тозаланиш самарасини талаб даражасигача оширади.

Муаллиф фикрича сув тиндиргичлар ҳажмидан самарали фойдаланиш масалалари ва юпқа қатламли сув тиндириш назарияси етарлик даражада ишлаб чиқилган. Шунинг учун ҳам мазкур ишда асосий эътибор биринчи навбатда лойқа сувларни электрокоагуляция йўли билан тозалаш жараёнини ўрганишга қаратилган.

Илмий техник адабиётлар ва ишланмалар таҳлили шуни кўрсатадики, табиий сувларни тозалашда электрокоагуляция усулидан фойдаланиш кўлами йилдан-йилга ошиб бормокда ва бошқа усулларга нисбатан анча юқори самара беради. Бу усулнинг кимёвий коагуляцияга нисбатан афзаллиги: реагент хўжалигининг йўқлиги, қурилма ишини ташкил қилишнинг осонлиги ҳамда электрокимёвий жараённи автоматлаштириш мумкинлигидадир. Ундан ташқари мазкур усулда тозаланаётган сувдаги зарарли ва захарли моддалар оксидланади, сувнинг қаттиқлиги пасаяди ва зарарсизлантирилади.

Зарафшон ер устки сув хавзасининг тавсифи ва уларни тозалаш усулларининг таҳлили бўйича сув хавзасининг қисқача физик-географик тавсифи келтирилди, дарё сувининг сифат кўрсаткичлари ва ифлосланиш даражаси ўрганилди, лойқа сувларни тозалаш усуллари таҳлил қилинди ва мазкур сув хавзасини сувини тозалаш бўйича энг маъқул вариант танлаб олинди.

Зарафшон сувини тозалаш бўйича тадқиқотлар ўтказишдан олдин биринчи навбатда сув манбаси ҳолати ўрганилди. Қорадарё ва Окдарё Зарафшон дарёсининг таркибий қисмига кирганлиги сабабли Зарафшон дарёси бассейни қисқача таҳлил қилинди. Бассейнинг асосий сув манбаси-бу Зарафшон дарёси ҳисобланади. Дарё Туркистон ва Хисор тоғ тизмалари оролиғида жойлашган Зарафшон музликларидан бошланади. Зарафшон дарёси Самарқанд шаҳри яқинида Чўпонота тепаликлари ёнида иккита Қорадарё ва Окдарё ирмоқларига бўлинади ва Хатирчи тумани худудида ирмоқлар яна қўшилади. Зарафшон дарёсининг умумий узунлиги 780 км ни ва кўп йиллик ўртача сув сарфи 165 м³/с ни ташкил қилади.

Зарафшон дарёси сувининг кимёвий таркиби Самарқанд, Каттакўрғон ва Навоий шаҳарларида жойлашган саноат корхоналари ҳамда қишлоқ хўжалиги экинзорлари томонидан хавзага ташланадиган ифлосланган оқова сувлар ва ундан ташқари дарё оқими бўйича йўлма-йўл ташланаёткан дренаж-коллектор сувларининг таъсирида вужудга келади. Бу таъсир натижасида дарё сувининг минераллашуви оқим бўйича ўртача қиймат 503,2 мг/л (0,5 РЭЧТ) ни ташкил қилади. Зарафшон дарёси сувининг ион таркиби йил давомида ўзгариб туради. Дарёнинг юқори оқимида гидрокарбонат ионлари юқори бўлса, қуйи оқимларида эса сульфат ионлари таркибнинг асосий қисмини ташкил қилади.

Сув хавзасининг ўртача ифлосланиш даражаси нефть махсулотлари бўйича – 0,03 мг/л (0,6 РЭЧТ), азот аммонийи – 0,05 мг/л (0,1 РЭЧТ), азот нитрити – 0,031 мг/л (1,6 РЭЧТ), мис – 0,5 мкг/л (0,5 РЭЧТ), хром – 1,7 мкг/л (1,7 РЭЧТ) ва рух – 1,9 мкг/л (0,2 РЭЧТ) ни ташкил қилади.

Зарафшон сув бассейни ва Қорадарё суви таркибининг қисқача таҳлили бўйича қуйидагилар таъкидлаб ўтилди: дарё суви таркибига кам микдорда табиий факторлар, кўп микдорда антропоген таъсир кўрсатади; хавза сувининг сифат кўрсаткичлари дарё оқими бўйича ўзгариб боради; Қорадарё ирмоғи Зарафшон дарёсининг ўрта қисми ҳисобланиб мазкур манба сувининг сифат кўрсаткичлари дарё қуйи оқимига нисбатан анча юқори ва сувнинг таркибидаги аксарият кимёвий моддаларнинг РЭЧТ концентрацияси мазкур моддалар учун белгиланган меъёрдан ошмайди; дарё сувининг лойқалиги ўртача 194,1-582,2мг/л ни ташкил қилади, лекин тошқин вақтида максимал 4600 мг/л гача кўтарилади.

Бугунги кунда лойқа сувларни тозалашда асосан механик ва физико-кимёвий усуллар қўлланиб келинмоқда.

Механик тозалаш иншоотлари конструкциясининг ва ишини ташкил қилишнинг оддийлиги сабабли лойқа сувларни тозалашда жуда кенг қўлланиб келинмоқда. Лекин фақат механик тозалаш хўжалик-ичимлик мақсадлари учун ишлатиладиган сувнинг сифатига қўйиладиган давр талабига жавоб бермайди.

КМК 2.03.04-97 га мувофиқ лойқа сувларни тозалашда икки босқичли тиндириш ва сўнгги этапда филтрлаш тавсия қилинади. Тиндириш жараёнида сувга реагент қўшиш орқали ишлов бериш талаб этилади. Бу технологик тасвирнинг кўпчилик афзалликларига қарамасдан шу нарсани таъкидлаш жоизки мазкур тизимда реагент хўжалиги қурилиши ва унинг ишини ташкил қилиш кичик тозалаш станциялари ишини ташкил қилишда анча нокулайлик туғдиради. Шунинг учун ҳам мазкур иншоотларда сувни электрокоагуляция усули ёрдамида тозалаш мақсадга мувофиқдир.

Илмий техник адабиётлар ва ишланмалар таҳлили шуни кўрсатадики, табиий сувларни тозалашда электрокоагуляция усулидан фойдаланиш кўлами йилдан-йилга ошиб бормоқда ва бошқа усулларга нисбатан анча юқори самара беради. Бу усулнинг кимёвий коагуляцияга нисбатан афзаллиги: реагент хужалигининг йўқлиги, қурилма ишини ташкил қилишнинг осонлиги ҳамда электрокимёвий жараёни автоматлаштириш мумкинлигидадир. Ундан ташқари мазкур усулда тозаланаётган сувдаги зарарли ва захарли моддалар оксидланади, сувнинг қаттиқлиги пасаяди ва зарарсизлантирилади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. «Сув ва сувдан фойдаланиш тўғрисида»ги Ўзбекистон Республикаси қонуни. Тошкент, 1993

2. Государственный стандарт Узбекистана. Вода питьевая. Гигиенические требования и контроль за качеством. Срок действия с 01.07.2000 г по 01.07.2010г.
3. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Махкамасининг 2001 йил 4-октябрдаги 401-сонли қарори «Зарафшон дарёси хавзасида экологик ва санитар эпидемиологик вазиятни тасдиқлаш тўғрисида».
4. Абрамов Н.Н. Водоснабжение.-М.; Стройиздат. -1982. -358с.
5. Николадзе Г.Н. Технология очистки природных вод.-М.; Высшая школа. -1987. -479с.

СУТ МАҲСУЛОТЛАРИГА ИШЛОВ БЕРИШ ЗАВОДЛАРИНИНГ ОҚОВА СУВЛАРИНИ ТОЗАЛАШ

Ф.М.Холов, Б.О.Хушвақтов, М.Мирзаев (СамДАҚИ)

Удобство и качество очистки сточных вод от молока и молочных заводов с использованием коагулянтов. Описано, что по сравнению с другими типами коагулянтов очистка сточных вод более эффективна, когда в качестве коагулянта используется алюминий. Кроме того, при очистке сточных вод с использованием этих типов коагулянтов на локальных очистных сооружениях локальная очистная установка компактна, проста и надежна в эксплуатации, обеспечивая необходимый уровень очистки сточных вод.

Convenience and quality of wastewater treatment from milk and dairy plants using coagulants. It is described that, in comparison with other types of coagulants, wastewater treatment is more effective when aluminum is used as a coagulant. In addition, when treating wastewater using these types of coagulants at local treatment facilities, the local treatment plant is compact, simple and reliable in operation, providing the required level of wastewater treatment.

Сут маҳсулотлари ишлаб чиқариш заводлари катта миқдорда чучук сув истеъмолчиларидан бирига ва оқова сувлар анча ҳажмда ҳосил бўлиши киради. Сут маҳсулотлари ишлаб чиқариш заводлари оқова сувларининг солиштирма сарфи ўртача ишлов берилаётган сутнинг бир тоннаси учун тахминан $5 - 7 \text{ м}^3$ ни ташкил қилади, агар заводда эскирган технологиялар бўлса, унда бу кўрсаткичлар янада ортиши мумкин бўлади.

Сут маҳсулотлари ишлаб чиқариш заводларининг оқова сувлари, юқори улушли органик ифлослик (ёғ, оксил, сув шакари), органик бўлмаган бирикма ҳамда синтетик сирти фаол моддалар (ювувчи моддалар) билан ҳам ифлосланган бўлади. Оқова сувлар ифлослигининг таркиби ва улуши завод кесими ва унумдорлигига боғлиқ бўлади.

Сут маҳсулотлари ишлаб чиқариш заводлари оқова сувларини ишлов бериш учун ҳар хил усуллар ишлатилади, тозалаш усуллари танлаш оқова сувларининг ифлослик миқдори ва тавсифига боғлиқ бўлади. Мавжуд талабларга мос ҳолда, сут маҳсулотлари ишлаб чиқариш заводлари оқова сувларини шаҳар оқова сувларини оқизиш тармоғига уларни ташлашдан олдин ёки биологик тозалашни маҳаллий иншоотларда, яъни маҳаллий тозалаш иншоотида амалга оширилиши керак.

Сут маҳсулотлари ишлаб чиқариш заводларининг маҳаллий тозалаш шаҳобчаси ихчам, оддий ва ишлатишда ишончли, оқова сувларни тозалашнинг талаб қилинадиган даражасини таъминлаши керак бўлади. Бу мақсадга эришиш учун уларни кейин тиндириш ёки флотациялаш билан коагуляциялаш кенг миқёсда ишлатиладиган бўлди, бироқ сут маҳсулотлари ишлаб чиқариш заводларида уларни ишлатиш бир қатор камчиликларни келтириб чиқаради: коагулянтларнинг анъанавий турларини улушлари юқори, pH муҳитларини кўзатиб туриш керак, натижада коагуляциялаш жараёни ҳам барқарор эмас, органик ифлосликлар улушининг пасайиш даражаси етарли эмас. Турли хил сут маҳсулотлари ишлаб чиқариш оқова сувлари қоидадаги каби бирлашган сутни қайта ишлов бериш заводининг оқова сувларини таркиби бир эмаслиги билан боғлиқ. Сутни қайта ишлов беришнинг технологик жараёни вақтида унинг компонентлари тузилишини ўзгариши содир бўлади, яъни коагулянтларни қўшиш билан уларнинг ўзаро таъсирини акс эттириши мумкин.

Кўпгина сут заводларида тозалаш шаҳобчаси ё мавжуд эмас, ё паст самара билан ишлайди, самарали маҳаллий тозалашни ташкил қилиш масаласи жуда долзарб бўлиб қолмоқда.

Сут маҳсулотларини ишлаб чиқаришнинг турли кўриниши бўйича алоҳида оқова сувларни коагуляциялаш жараёнининг механизмини чуқурроқ урганиш кераклиги, янги кўринишдаги коагулянтларни ишлатишга, оқова сувларни кўрсатилган турларининг маҳаллий тозалашда технологик жараёнини такомиллаштириш заруратига тўғри келади.

Ўтказилган тадқиқотлар кўрсатадики, яъни янги коагулянт – алюминий, сут маҳсулотлари ишлаб чиқариш заводларининг оқова сувларини тозалаш учун муваффақиятли ишлатилмоқда ҳамда анъанавий коагулянт – алюминий сульфат билан таққосланганда бир қатор афзалликларга эга. Оқова сувлар таркибига боғлиқ ҳолда алюминийни ишлатиш билан сут маҳсулотлари ишлаб чиқариш заводларининг оқова сувларини маҳаллий тозалашнинг қўлай ҳолати аниқланади.

Алюминий ва алюминий сульфатларнинг ҳар хил улушларига боғлиқ ҳолда модели оқова сувларни, реагентли тозалашда алюминий (Al_2O_3 бўйича) улуши 30 мг/л ни қўшишда pH миқдорининг ҳар хил таркибли модели оқова сувларини тозалаш даражасининг ўзгаришини кўрсатади. Реагентли тозалаш самарадорлиги қийматига таъсир қиладиган сут маҳсулотлари модели эритмаларнинг барча текширилган тавсифли белгиларига, улардаги мавжуд компонентларнинг миқдорий нисбатига, ёғ ва оксиллар киради. Бунга боғлиқ ҳолда, айтилган ёғнинг нисбий миқдорининг кўрсаткичлари киритилган, яъни эритмадаги мавжуд ёғнинг оксилга оммавий нисбатидан аниқланади. Модели оқова сувлар қаторида, қаралаётганда намунанинг биринчиси билан охиригисида ёғнинг нисбий миқдори ортади. Ёғнинг нисбий миқдори ортиши натижасида коагулянтнинг тенг улушларида тозалаш самарадорлигини максимал қиймати ошади.

Коагулянтлар иштирокида органик моддаларни кетказиш самарадорлиги ошади ва pH зонасининг чегараси кенгаяди, унда кислотали коагуляция (коагулянтни қўшмасдан) билан таққосланганда pH нинг юқорироқ қийматида уларни бир вақтда аралашган коагуляциялаш амалаг ошади. Сут маҳсулотлари ишлаб чиқариш заводларидаги оқова сувларни тозалаш учун алюминий сульфат ишлатилганда кучли ишқорли соҳаларда жойлашган pH нинг дастлабки қиймати етарлича қисқа оралиқ билан хулосаланган. Бу оқим ҳолатида коагуляционли тозалашда маълум қийинчиликларни олиб келади, қачонки келаётган оқова сувларнинг кислоталиги (ишқорлиги) тезда алмашилиши мумкин. Алюминий учун бундай оралиқ анча кенг, яъни кислота ёки ишқорларни улушлаш жараёни соддалашади ва тозалаш жараёни ишончлиги ошади.

Сут маҳсулотлари ишлаб чиқариш заводларининг модели оқова сувларини ишлов беришда, коагулянтнинг ҳар хил улушларида (Al_2O_3 бўйича) алюминий сульфат билан таққосланганда, анча кичик қолдиқ алюминийнинг миқдорини беради. Сут маҳсулотлари ишлаб чиқариш заводларининг оқова сувларини тозалашда коагулянт сифатида алюминийни ишлатиш мақсадга мувофиқдир.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Борисов, Б.А. Мембранный биореактор Lear MBR компании General Electric – последнее достижение технологии очистки стоков для молочных предприятий / Б.А. Борисов, П.С. Судиловский, О.В. Харькина // Молочная промышленность. – 2013. – № 2. С. 20 – 21.
2. Горбатова, К.К. Биохимия молока и молочных продуктов: учеб. / К.К. Горбатова, П.И. Гунькова; под общ. ред. К.К. Горбатовой. – 4 – е изд., перераб. и доп. – СПб.: ГИОРД, 2010. – 336 с.
3. Данилович, Д.А. Интенсификация очистки сточных вод предприятий молочной промышленности в анаэробных условиях: дис. канд. тех. наук: 05.23.04 / Данилович Дмитрий Александрович. – М., 2005. – 209 с
4. Дегтерев, Г.П. Механизм образования молочных загрязнений и их классификация / Г.П. Дегтерев // Хранение и переработка сельхозсырья. – 2008. – №11. – С. 41 – 43

ОЧИСТКИ СТОЧНЫХ ВОД ОТСТАИВАНИЕМ

Алладустов У.Б., Жуманов О.Ж., Хамдамова И.Ш. (СамГАСИ)

Кратко рассмотрены процессы осаждения взвешенных веществ отстаиванием, агрегативной устойчивости частицы взвеси, канализационные отстойники, количества задерживаемых осадков в виде взвешенных веществ, продолжительности отстаивание и гидравлические крупности взвешенных веществ.

Briefly discussed are the processes of sedimentation of suspended solids by sedimentation, the aggregate stability of suspended particles, sewer sumps, the

amount of suspended sediment in the form of suspended solids, the duration of sedimentation, and the hydraulic sizes of suspended solids.

Одной из актуальных задач сегодняшнего дня в области водоотведения является защита водоемов от загрязнения недостаточно очищенными сточными водами. Отстаивание сточных вод широко применяется для выделения из них нерастворенных взвешенных (оседающих или всплывающих) грубодисперсных веществ.

Эффективность удаления взвешенных веществ из сточных вод методом осаждения определяется степенью устойчивости таких дисперсных систем. Агрегативно устойчивыми являются обычно высокодисперсные примеси и коллоидные загрязнения, концентрация которых в природных и сточных водах не превышает 1%. Размеры частиц в таких взвесах не изменяются в течение длительного времени. Агрегативно устойчивые взвеси являются также и седиментационно устойчивыми, т.е. не осаждаются в течение длительного времени, и распределение их концентрации по высоте слоя жидкости остается более или менее равномерным. Очевидно, что максимальный размер седиментационно устойчивой частицы будет меньше, чем выше её плотности, так как на взвешенную в воде частицу действует сила R_0 , равная

$$R_0 = W(\rho_m - \rho_{ж})g \quad (1)$$

где, W – объем частицы; ρ_m и $\rho_{ж}$ – соответственно плотности твердого вещества частицы и жидкости (природной или сточной воды) при данной температуре; g – ускорение свободного падения.

Если результат действия этих сил больше нуля, то частица осаждается, и такая взвесь является седиментационно неустойчивой. Нарушение седиментационной устойчивости может быть вызвано изотермической перекристаллизацией, при которой крупные частицы растут за счет растворения мелких, в результате чего их масса увеличивается настолько, что они начинают оседать.

Для описания процесса осаждения взвесей предложено несколько количественных закономерностей; наиболее простой является формула Стокса. Движущаяся в реальной жидкости частица шарообразной формы испытывает сопротивление, сила которого R_c равна

$$R_c = 3\pi d\mu v \quad (2)$$

где, μ – вязкость среды; v – скорость движения частицы, которая может быть определена из условия равенства вертикальной результирующей силы R_0 и силы сопротивления

$$v = \frac{d^2}{18\mu} g(\rho_m - \rho_{ж}) \quad (3)$$

где, d – диаметр частицы.

При оседании частиц неправильной формы можно найти по формуле Стокса, исходя из опытных данных о скорости осаждения, эквивалентный диаметр равновеликих шарообразных частиц, осаждающихся с той же скоростью, что и реальные частицы суспензии. Из уравнения (3) видно, что скорость осаждения связана степенной зависимостью с размером частиц. Если принять все остальные величины постоянными, то

$$v = c_i d^2 \quad (4)$$

где, c_i – константа.

С увеличением размер частиц скорость их оседания резко возрастает.

Применение формулы Стокса ограничивается системами с частицами, эквивалентный диаметр которых не превышает 0,1 мм. При падении частиц больших размеров за ними возникают завихрения, нарушающие спокойное состояние жидкости и вызывающие переход ламинарного режима в турбулентный. При этом формула (4) претерпевает следующие изменения:

$$\text{при } d = 0,125 - 0,6 \text{ мм} \quad v_1 = c_1 d$$

$$\text{при } d = 0,6 - 2,0 \text{ мм} \quad v_2 = c_2 d^{2/3}$$

$$\text{при } d > 2 \text{ мм} \quad v_3 = c_3 d^{1/3}$$

На практике почти всегда приходится иметь дело с полидисперсными взвесьями, содержащими частички различных размеров и формы. Тогда картина седиментации осложняется тем, что оседание частиц происходит одновременно с различной скоростью и зависимость массы накапливающегося осадка от времени осаждения имеет вид, приведенный на рисунки. Эта кривая является важнейшей характеристикой фракционного состава дисперсной фазы. Чем круче поднимается кривая, тем более однородна взвесь.




Рис. Характер изменения массы накапливающегося осадка Q от времени осаждения t

Отстойники применяют как основные сооружения механической очистки сточных вод. На станциях полной биологической очистки при концентрации взвешенных веществ в исходной сточной воде более 150 мг/л перед биоокислительными сооружениями располагают первичные отстойники; для задержания активного ила или биопленки используют вторичные отстойники.

Отстойники разделяются на три основных конструктивных типа в зависимости от направления движения воды – вертикальные, горизонтальные, радиальные. Отстойники различной конструкции представляют собой резервуары с системой устройств для ввода и вывода обрабатываемой жидкости, узлом выгрузки осадка и, в ряде случаев, камерой хлопьеобразования.

Тип отстойника и его конструкцию выбирают с учетом пропускной способности станций очистки сточных вод, концентрации и характера нерастворенных примесей в воде, способа намеченной обработки осадка. Число отстойников обычно принимается: первичных – не менее двух, вторичных – не менее трех.

Количество, задерживаемых в виде осадка взвешенных веществ определяется в зависимости от принятого эффекта осветления сточных вод по формуле

$$W = \frac{(C_{ucx} - C_{ocв})Q}{(100 - p)y} \times 100$$

где: $C_{исх}$, $C_{осв}$.- содержание взвешенных веществ соответственно в исходной и осветленной воде, г/м³; Q – количество сточных вод, м³; y – объемная масса осадка, г/м³; p –влажность осадка, %.

Влажность осадка бытовых сточных вод принимается равной 95% для первичных отстойников всех типов при самотечном удалении и 93,5 – 94% при удалении плунжерными насосами.

Расчет первичных отстойников производится по кинетике выпадения взвешенных веществ объемной массой более 1 г/см³ либо по кинетике всплывания взвешенных веществ объемной массой менее 1 г/м³.

Кинетику процесса отстаивания устанавливают опытным путем в лабораторных условиях. При этом выявляется зависимость эффекта осветления от продолжительности отстаивания (табл.).

Расчетная продолжительность отстаивания сточных вод в отстойнике, соответствующая заданному эффекту осветления, определяется по формуле

$$T = t(H / h)^n$$

где t – продолжительность отстаивания в эталонном цилиндре; H – глубина поточной части отстойника; h – высота эталонного цилиндра; n – коэффициент, зависящий от свойств взвешенных веществ.

Таблица

Продолжительность отстаивания сточных вод в зависимости от эффекта осветления

Эффект осветления, %	Продолжительность отстаивания, с, взвешенных веществ при их концентрации, мг/л			
	500	1000	2000	3000
20	150	140	100	40
30	180	150	120	50
40	200	180	150	60
50	240	200	180	80
60	280	240	200	100
70	360	280	230	130
80	1920	690	570	370
90	-	2230	1470	1080
100	-	-	3600	1850

Основным показателем для определения размеров отстойников является расчетная гидравлическая крупность взвешенных частиц. В соответствии со КМиК 2.04.03-97, гидравлическая крупность, мм/с, определяется по формуле

$$u_0 = \frac{1000kH}{\alpha t(kH/h)^n} - \omega$$

где k – коэффициент, зависящий от типа отстойника; α – коэффициент, учитывающий влияние температуры воды на её вязкость; ω – вертикально составляющая скорость движения воды в отстойнике.

В дальнейших этапах исследований проводится экспериментальные исследования процесса осаждения взвешенных веществ в модулях тонкослойного отстойника.

Литература

1. Канализация населенных мест и промышленных предприятий /Н.Н.Лихачев, И.И.Ларин, С.А.Хаскин и др.: под общ.ред.В.Н.Самохина.-2-е изд. перераб. и доп.-М.: Стройиздат,1981.-639 с.:ил.
2. КМиК 2.04.03-97. Канализация. Наружные сети и сооружения. Госкомархитектстрой РУз. –Т.; 1997

УДК-725.89

РАЗВИТИЕ SPA (SANUS PER AQUAM) ЗОН В ВОДНЫХ СООРУЖЕНИЯХ

Ибрагимов Н.Х.(СамГАСИ)

Мақолада сув объектларида, масалан, сув кўнгилочар мажмуаларида (сув парклари) SPA зоналарини ривожлантириши ҳақида сўз боради. Сув паркларидаги SPA зоналарнинг роли, SPA-курорт тушунчаси ва уларнинг инсон саломатлигига таъсири.

The article discusses the development of SPA zones in water facilities such as water entertainment complexes (water parks). The role of SPA zones in water parks, the concept of SPA resort and their actual impact on human health.

Калим сўзлар: *сув парки, сузиш ҳавзаси, типология, сув слайдлари, СПА майдони, дам олиш, fitness, соғлом турмуш.*

Keywords: *water park, pool, typology, water slides, SPA zone, relaxation, fitness, wellness.*

Введение и актуальность исследований. В нашей стране уделяется особое внимание воспитанию физически здорового и духовно зрелого, никому ни в чем не уступающего молодого поколения. Ведь формирование высоко духовной, гармонично развитой молодежи является ключевым фактором обеспечения великого будущего Родины и достижения всех благородных целей.

Отсутствие водных парков в особенно заметно на фоне процветающего аквабизнеса в развитых странах, где это развлечение уже давно не считается экзотическим.

Первые аквапарки появились всего около 25–30 лет назад на тропических курортах Америки и Азии и представляли собой парки на берегу водоемов со множеством водных горок, бассейнов, водопадов. Опыт их эксплуатации показал, что при стоимости строительства среднего аквапарка в 1,5–2 млн долларов и средней продолжительности купального сезона 4 месяца сроки их окупаемости составляли всего полтора-два года. Такая рентабельность считается невероятно высокой, вследствие чего в конце 1980-х – начале 1990-х гг. крытые аквапарки стали строиться уже и в северных широтах. В России первый аквапарк небольших размеров был открыт во Владивостоке в конце 1980-х гг.

Объект исследований. В работе рассматриваются следующие типы зданий и сооружений:

- водолечебные, водогрязелечебные и водные лечебно-оздоровительные комплексы.

- лечебно-массажные и лечебно-плавательные бассейны, каскадные бассейны для лечебной гимнастики, а также комплексы лечебно-оздоровительных бассейнов;

Методика исследований - обусловлена целью и задачами исследования, включает изучение отечественных и зарубежных литературных и интернет источников, а также использование метода сравнительного анализа.

К настоящему времени аквапарки есть почти во всех крупных городах Европы с населением более 500 тыс. жителей. В США один муниципальный или частный бассейн приходится на 240 человек, а один аквапарк – на 330 000. На Западе аквапроекты считаются одними из самых рентабельных. Средний аквапарк в Европе окупается всего за три-пять лет. Они занимают одно из первых мест по количеству посещений в расчете на квадратный метр рабочих площадей. Средняя загрузка аквапарков в Европе составляет около 80%. И это при том, что крытый аквапарк – сооружение по определению дорогое.

Это бизнес, который не знает кризисов. Замечено, что в неблагополучных странах или в государствах, переживающих экономический кризис, люди не только не перестают ходить в аквапарки, но иногда начинают посещать их еще чаще: это помогает отвлекаться от проблем, снимает стресс.

В ближайшее десятилетие потребности населения в услугах аквапарков вряд ли будут удовлетворены, какие бы аквапарки – большие или не очень – мы ни строили. Спрос далеко превышает все то, что в обозримом будущем может быть предложено. В городе с населением в миллион жителей, например, реально аквапарк на 20–25 тыс. кв. метров и несколько небольших

по размеру, “муниципального класса” аквапарков, куда приходят окрестные жители.

Следует уточнить важный момент. Аквапарк по архитектурной типологии предназначен не только для развлечений, он имеет еще ряд функциональных особенностей, существенно расширяющих его назначение. В конце 1990-х гг. зарубежные “пластиковые” компании привнесли и сформировали у наших инвесторов и проектировщиков выгодное для себя представление, что аквапарк начинается с водной горки, тем самым деформировав понимание сути этого объекта. Между тем аквапарк предполагает обширную современную инфраструктуру: бани, фитнес, SPA и другие услуги, направленные на оздоровление посетителей.

Иными словами, аквапарк – это комплексный объект, представляющий собой сеть рентабельных предприятий оздоровительной направленности в пределах обозначенной территории. Его также можно встретить в составе и торгово-развлекательного центра, и бизнес-центра, и гостиничного комплекса.

SPA как известно, во всём в мире существуют баланс и гармония. Не менее известно, что чтобы хорошо работать, необходимо хорошо отдыхать. Современному деловому человеку, измученному постоянной усталостью, стрессом, нарушенным режимом сна и плохой экологией жизненно необходим какой-нибудь бальзам на душу, способный сохранить здоровье, вернуть силы и энергию для новых свершений. Открытием в этой сфере когда-то стало SPA - слово, изменившее мир и создавшее целую СПА индустрию. SPA – (Sanus per aquam), что в переводе с латыни - "Здоровье от воды". Еще древние римляне занимались оздоровлением, принимая целебные ванны и купаясь в термальных источниках. Позже слово "спа" стало более собирательным понятием и включает не только водные процедуры, но и всевозможные косметические процедуры по уходу за телом, массажи, бани и сауны.

С чего все началось? Возникшая примерно в V-VI веках до н.э. у древних греков, знавших и ценивших целебные свойства моря, традиция принятия ванн для релаксации тела и обновления духа за долгое время трансформировалась в популярнейшую глобальную систему многочисленных салонов SPA (SPA salon), центров SPA (SPA center), отелей SPA (SPA hotel), гостиниц SPA, пансионатов SPA и курортов SPA, функционирующих в соответствии с последними инновациями в области СПА терапии. С каждым днём всё больше людей познаёт пользу процедур СПА, окунаясь в неповторимую атмосферу умиротворения, блаженства и гармонии СПА.

Известнейшие SPA курорты мира - своеобразные «столицы красоты» - с их чистым воздухом, девственной природой, шикарными парками, дворцами, салонами, ресторанами и бутиками ежегодно посещает самая обеспеченная публика. Целебные свойства термальных источников и

индивидуально подобранные курсы СПА процедур и режим питания нормализуют обменные процессы в организме, возвращают прекрасный цвет лица, разглаживают морщины, стирают следы усталости и волнений и заставляют буквально родиться заново. Ну а развлекательно-спортивные мероприятия подобно гольфу, теннису, танцам и катанию на лошадях не дадут соскучиться.

В сегодняшнем стремительном мире, все более и более наполняющимся шумом и напряжением, такие SPA центры становятся обиталищем покоя и гармонии. Медитативная музыка, ароматерапия, наличие специальной зоны релаксации — среди многих особенностей, которые предлагают подобные SPA центры для восстановления здоровья и прекрасного самочувствия.

Результаты исследований. Самое же убедительное доказательство тому, что сегодня SPA — это уже не просто отдых с пользой для здоровья, но и часть и даже образ жизни. Жилые сообщества на территории SPA курортов приобретают всё большую популярность, поскольку количество людей, стремящихся сохранить здоровье и красоту всеми возможными путями, стремительно растёт. Ну а что может стать лучшим и целесообразным вложением средств, чем возможность окунуться в поистине райскую жизнь? Только жизнь в этом раю!

Обсуждение и заключение исследований. 1. Сравнение особенностей формирования архитектуры современных зарубежных и российских спа-комплексов и велнес-центров показывает, что в Узбекистане, наряду с активным внедрением современных направлений оздоровительной индустрии, проектирование специализированных зданий находится на начальной стадии развития.

2. Необходимо четкое понимание того, что спа- и велнес-концепции имеют непосредственное влияние на формирование архитектуры воднооздоровительных центров (от выбора и организации участка до подбора элементов внутреннего декора) и что именно закладываемые в основу спакомплексов и велнес-центров концепции делают их отличными от других оздоровительных заведений.

Список использованной литературы

1. Уралов А.С. Бани-хаммам в зодчестве Центральной Азии. Самарканд СамГУ. 2002 г.
2. Хасиева, С.А. Архитектура городской среды [Текст.] / С.А. Хасиева / М., Стройиздат, 2001.
3. Ясный Г.В. Спортивные бассейны [Текст.] / Г.В. Ясный. / М., Стройиздат, 1988.
4. СанПиН 2.1.2.1331-03 Аквапарки.

JIZZAX VILOYATIDA TOZA ICHIMLIK SUVI VA UNING TEJAMKORLIGINI TA'MINLASH SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Qutlimurodov U.M.(JizPI)

В Узбекистане основной проблемой системы водоснабжения является ограниченные запасы воды и её неравномерное распределение. Это означает что, научные исследования, связанные с обеспечением надежной работой и бесперебойности подачи непосредственно связаны эффективностью системы водоснабжения. Это требует специального анализа и разработки рекомендаций для конкретных случаев. Данное исследование носит инновационный характер, согласно которому, сформулированные идеи и рекомендации способствуют повышению эффективности и устойчивости работы сооружений системы водоснабжения.

One of the urgent water supply system problems in Uzbekistan is the drinking water reserve limitation and uneven location. This article devoted to the increasing of the water supply system efficiency. Water supply system effectiveness is the guarantee for the stable, safe and regular work of the system. It requires a case study of the specific regions and their water supply effective work, which supplies sustainable water resources management in the region and which is the main goal of the researches and investigations.

Rivojlanishning keskin o'sishi hisobiga iste'molchilar sonining oshishi ularning suvga bo'lgan ehtiyoji va talabining oshishiga olib keladi. Xalqaro tajribadan ma'lumki, suvni tejash va undan samarali foydalanish borasida yo'nalishidagi loyihalar, ishlanmalar hamda suvtejamkor qurilmalar ishlab chiqarish, ularni amalda tadbiq etish bugunning eng dolzarb masalasi hisoblanadi. Dunyoning rivojlangan davlatlari tajribasidan kelib chiqqan holda, O'zbekiston Respublikasi va Markaziy Osiyo hududida suvni tejaydigan texnologiyalar, qurilma, jihoz, asboblarni ishlab chiqarishni tashkil etish va amalda qo'llash bo'yicha ko'plab ishlar olib borilmoqda.

